

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**Z.A. Zaripova**



# **KONFLIKTOLOGIYA**

**O'QUV QO'LLANMA**

**TOSHKENT 2013**

JIDU O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan (14-sonli bayonnomma, 2013-y.18.02.) “Xalqaro munosabatlar” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

**Taqrizchilar:**

S.f.d., professor N.U.Tulyaganova  
S.f.n. M.M. Baxadirov

O‘quv qo‘llanmada ijtimoiy siyosiy mojarolar fenomeni bilan bog‘liq asosiy masalalar o‘rganiladi. Siyosat ko‘plab hodisalarda namoyon bo‘ladi, mojaro ham shu hodisalarning asosiylaridan biri bo‘lib, unda turli guruhlarning manfaatlari to‘qnashadi. Har bir mojaroni alohida o‘rganish zamonaviy mojarolarni tadqiq qilishdagi asosiy yondashuvlardan biridir. Mojaroni hal etish va tartibga solish yo‘llarini izlashda esa bu o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mojarolar deyarli har doim o‘z tarixiga, o‘ziga xos tuzilmaga ega bo‘lgan holda o‘zgacha rivojlanadi ham. Aynan shu sababli, o‘quv qo‘llanmada mojaroning turli jihatlari muayyan mojaro misolida yoritib berilgan.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	5
<b>1. SIYOSIY MOJAROLARNING XUSUSIYATLARI .....</b>	7
1. Siyosiy mojarolar ta'rifi va ularning xususiyatlari .....	7
2.Xalqaro mojarolarning xususiyatlari .....	11
3. Xalqaro mojarolarni tadqiq qilishda nazariy-uslubiy yondashuvlar ....	14
4. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda mojaro kelib chiqishi imkoniyatlari .....	17
<b>2. ETNOSIYOSIY MOJAROLARNING XUSUSIYATLARI.....</b>	20
1. Etnosiyosiy mojarolarning asosiy xususiyatlari .....	20
2. J.Rotshild, E.Gellner nazariyalarida etnosiyosiy mojarolarning xususiyatlari, S. Xatingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasi, Gurrning deprivatsiya nazariyasi.....	21
3. Etnosiyosiy mojaroni tahlil qilishgdagi nazariy yondashuvlar .....	27
<b>3. MOJAROLI MUNOSABATLAR DINAMIKASI VA TUZILMASI (Falastin-Isroil mojarosi misolida).....</b>	31
1. Mojaro tuzilmasining sxematik ifodasi. Falastin-Isroil mojarosi dinamikasi va tuzilmasi .....	31
2. Arab-Isroil mojarosida muzokaralar jarayoni xususiyati.....	34
3. Yo. Arofat va A.Sharon siyosat maydonidan ketganidan so‘ng yuzaga kelgan vaziyat va uni tartibga solish istiqbollari .....	48
<b>4. MOJAROLARNING OLDINI OLISH VA PREVENTIV DIPLOMATIYA VAZIFALARI .....</b>	51
1. Preventiv diplomatiya tavsifi va mohiyatiga yondashuvlar.....	51
2. Nizo omillari va mojarolarni oldini olish strategiyasi (erta chora ko‘rish va tarkibiy oldini olish).....	53
3. BMT ning mojarolar oldini olish strategiyasi.....	60
<b>5. ZAMONAVIY XALQARO MOJAROLAR: BOSHQARISH VA HAL ETISH MODELLARI (Kosovo misolida).....</b>	64
1. Tarixiy kontekst va Kosovoda mojaro rivojlanishininig asosiy bosqichlari .....	64
2. Kosovo muammosini o‘rganishning yuridik jihatlari .....	69
3. Mojaroni hal etishga urinishlar.....	69

4. Kosovoda milliy-siyosiy mojaroni boshqarish modellari .....	78
<b>6. MOJARO SHAROITIDA MUZOKARALAR JARAYONI .....</b>	<b>82</b>
1. Siyosiy muzokaralar tavsifi. Muzokalarlarni mojarolarni hal etish usuli sifatida tadqiq qilishga asosiy ilmiy yondashuvlar .....	82
2. Zo‘rlik ishlatiladigan mojarolarni to‘xtatish uchun olib boriladigan muzokalarlarda kun tartibiga qo‘yiladigan asosiy masalalar .....	87
<b>TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT .....</b>	<b>91</b>

## KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlar milliy va mintaqaviy mojarolar soni ko‘payib borayotgani bilan ajralib turadi. O‘z navbatida, milliy va mintaqaviy mojarolar global darajadagi xavfsizlik tizimiga ta’sir qilish tendensiyasiga ega. Bugungi kunda yuzaga kelgan vaziyat uchta parallel kechayotgan jarayonlarga egaligi bilan ajralib turadi. Aynan shu jarayonlar dunyodagi tartibning umumiy transformatsiyasiga, ya’ni o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu transformatsiya esa ham ijobiy, ham salbiy tendensiyalarga ega.

Birinchidan, rivojlanish jarayoni kechmoqda. Bir qator mamlakatlar uchun esa xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyekti bo‘lgan milliy davlat sifatida shakllanish jarayoni kechmoqda. Turli bo‘hronlar va davlat ichida namoyon bo‘ladigan mojarolar (siyosiy (qonuniylik inqirozi), iqtisodiy (iqtisodiy inqirozlar), madaniy (o‘xhashlik inqirozi) esa bu jarayon tekis kechishini birmuncha murakkablashtirmoqda.

Ikkinchidan, globallashuv chaqiriqlariga javoban mintaqaviy birlashmalarning yuzaga kelishi (regionalizatsiya) va integratsiya yo‘llarini aniqlash hamda iqtisodiyot, siyosat va madaniyat borasida mintaqaviy bir xillik shakllanishi jarayoni kechmoqda. O‘z navbatida, bu jarayon markazdan uzoqlashish va markazga intilish tendensiyalari notejis rivojlanishi bilan murakkablashmoqdaki, bu tendensiyalar samarali integratsiya jarayonlarini sekinlashtirmoqda. Uchinchidan, globallashuv jarayonlarining tezlashishi ham ijobiy (kommunikatsiya rivojlanishi, xalqaro tartib-taomillar rivojlanishi, ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishi), ham salbiy xususiyatlarga ega bo‘lib, salbiy xususiyatlar jiddiy mojaro salohiyatiga ega (notejis iqtisodiy rivojlanish, OQQ (Ommaviy qirg‘in quollar) tarqalishi, narokotiklar tarqalishi, terrorchilik va hokazo).

Mazkur o‘quv qo‘llanma siyosiy mojarolar mavzusiga qaratilgan bo‘lib, maqsad mojaroni tahlil qilishning ushbu mojaro sabablari, tuzilishi, rivojlanish dinamikasi, shuningdek, uni oldini olish imkoniyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq asosiy elementlarini o‘rganish, zamonaviy boshqaruv modellarining imkoniyatlari va kamchiliklarini tadqiq qilishdan iborat.

Qo‘llanmada etnosiyosiy mojarolarni tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Zamonaviy etnosiyosiy mojarolarni tahlil qilishda mojaroning har qanday, hatto, eng kam ahamiyatli elementlari borasidagi barcha nuqtayi nazarlarni xolis tahlil qilishga e’tibor berish kerak. Har bir etnosiyosiy mojaro o‘ziga xos hodisa bo‘lib, boshqarish va hal etish modelini sinchkovlik bilan tanlashni talab etadi.

Mojaroning barcha taraflari manfaatlarini inobatga olgan holda eng oqil va samarali modelni tanlash uzoq muddatli tinchlikka erishishga va zo‘ravonlikka olib keladigan ko‘plab stereotiplar va afsonalarni yengishga

yordam beradi. Ushbu nuqtayi nazardan mojaroli ong va tushunchalarni o‘zgartirish va yengishga erishish yo‘lida etnosiyosiy mojaroning psixologik jihatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Faqat muzokaralardagina konstruktiv dialogga erishish mumkin. Uchinchi taraflarning (mediatorlarning), mojaro ishtirokchilarini o‘zining sa’y-harakatlari, muzokara makonini belgilab olish, qulay shart-sharoit va xavfsiz rivojlanish istiqboli barqaror taraqqiyotning asosini tashkil etadi.

Bugunga kelib shakllangan mojaroshunoslik fani falsafa, sotsiologiya, psixologiya va siyosatshunoslik fanining jiddiy ishlanmalariga tayanadi. Mojaroni ko‘plab ijtimoiy fanlar o‘rganadi va tadqiq etadi, bunga qo‘srimcha ravishda siyosiy mojaroshunoslik mojaroni ijtimoiy munosabatlar tizimidan ajratib oladi va uni diqqat bilan alohida o‘rganadi. Mojaroshunoslik ikki vazifani bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi - bir tarafdan mojaroshunoslik fani uchun mojaroni tahlil qilish muhim bo‘lsa, boshqa tarafdan, mojaroni prognoz qilish, boshqarish va oldini olish masalalarini o‘rganish muhim.

Taklif etilayotgan o‘quv qo‘llanma zamonaviy mojarolar bilan bog‘liq turkum masalalarini taklif etadi hamda talabalar, aspirantlar, tadqiqotchilar va mazkur muammo bilan shug‘ullanadigan barcha uchun qiziqarli bo‘ladi.

## **1. SIYOSIY MOJAROLARNING XUSUSIYATLARI**

1. Siyosiy mojarolar ta’rifi va ularning xususiyatlari.
2. Xalqaro mojarolarning xususiyatlari.
3. Xalqaro mojarolarni tadqiq qilishda nazariy-uslubiy yondashuvlar.
4. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda mojaro kelib chiqishi potensiali.

Butun siyosiy tarix uzlucksiz mojarolardan tashkil topgan. Bundan xulosa shuki, siyosiy mojarolar muqarrar hodisa; siyosiy mojarolar jamiyat siyosiy hayotining rivojlanish yo‘li, siyosiy subyektlarning musobaqalashish, raqobatga kirishish istaklari ifodasidir. Siyosiy hayot, albatta, faqatgina raqobatdan iborat emas, ammo raqobatsiz siyosiy rivojlanish sur’atlari va jamiyatning o‘z muammolarini hal qilish qobiliyati keskin susayadi. Siyosiy mojarolarsiz jamiyat biron ijtimoiy guruhlarning o‘z ahvoldidan norozi ekanligi to‘g‘risida aniq signallar olmaydi, mavjud tushunmovchiliklarni aniq ifoda etolmaydi, muammoni vaqtida aniqlab, turli yechimlarni ko‘rib chiga olmaydi.

Siyosat – bu ruxsat etilgan, qonuniylashtirilgan mojarolar sohasidir. Taniqli jamiyatshunos, siyosatshunos J.Burde siyosatni “mojarolar uchun tayyor maydon”, deya ta’riflagan. Tinchlik esa, mojarolar yo‘qligi emas, balki mojarolarni mohirona hal qilinganligi natijasidir. Mojarolarni tinchlik yo‘li bilan hal qilishga, ularning halokatli, destruktiv tendensiyalari ustun kelishiga yo‘l qo‘ymaslikka doim ham erishib bo‘lmaydi. Jamiyat a’zolari o‘rtasidagi tafovut ortishi va ularning tabaqalarga ajralishi mojarolar ko‘payishiga, murakkablashishiga olib keladi. Shunday ekan, mojarolarning tub sababini, ularni hal qilish yo‘llarini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylanadi.

### **1. Siyosiy mojarolar ta’rifi va ularning xususiyatlari**

Siyosiy mojaro – bu siyosat subyektlarining hokimiyatni qo‘lga kiritish yoki qayta taqsimlash, shuningdek, jamiyatda o‘z siyosiy mavqyelarini o‘zgartirish bilan bog‘liq manfaat va maqsadlarini amalga oshirishga intilishlaridagi to‘qnashuvidir<sup>1</sup>.

Mojaroning ko‘pdan-ko‘p ta’riflari mavjud, shu bilan birga tadqiqotchilarning mojaro – bu mojaroda ishtirok etuvchi taraflarning murosasiz manfaatlari to‘qnashuvi, degan umumiy fikri mavjud.

*Mojaro – real ijtimoiy vaziyat bo‘lib, unga, hech bo‘lmaganda, ikki tomon (individlar, guruhlar, davlatlar) jalb qilinadi. Mojaroda tomonlarning*

---

<sup>1</sup> Политологический словарь. В 2 ч. ч.II. – М., 1994. – С.31.

*har biri, boshidanoq, yoki qarama-qarshi maqsadlarga, yoki faqat bir tomon erishishi mumkin bo‘lgan maqsadlarga intiladilar. Mojaroda tomonlar ularning manfaatlari bir-biriga zidligini anglab yetishlari kerak. Ko‘p hollarda, bu ziddiyat ularning muayyan xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladiki, bu xatti-harakatlar ularning nuqtayi nazarlari, qadriyatlari, ular ko‘zlagan manfaatlar va maqsadlar bilan bog‘liqdir. Mojaroda (xususan, siyosiy mojaroda) kichik yoki yirik ijtimoiy guruhlar, davlatlar yoki bir guruh davlatlar ishtirok etishlari mumkin.*

Jon Berton mojaroli munosabalarning uchta keng tarqalgan turini qayd etgan: **tortishuvlar, chuqur ixtilof va mojarolar**.

**Tortishuvlar** – taraflar umumiyligi manfaat va maqsadlarga ega, ammolarga erishish usullari borasida hamjihatlik yo‘q: bilim darajasi nomuvofiqligi, vaziyatni noto‘g‘ri tushunish yoki ustuvor masalalar har xilligi tufayli o‘rtadagi ziddiyat kuchayishi tortishuvlarga xos jihatdir.

Muloqot o‘rnatish va muammoni hal etishdan iborat mohirona menejment natijasida tortishuvlar o‘z yechimini topishi mumkin.

**Chuqur ixtilof** – taraflarning manfaat va maqsadlari bir-biriga zid. Modomiki vaziyat yoki g‘alaba, yoki mag‘lubiyat bilan tugashi mumkin ekan, tomonlar kelishuvga kelishga intilishlari mumkin. Qachonki tomonlar safida barcha tan oladigan va tushunmovchiliklarni hal qilishga qodir obro‘li shaxs yoki tanlash imkoniyati bo‘lar ekan, chuqur ixtilof mojaroga aylanmaydi. Masalan, ichki siyosiy ixtilofda yuqorida bunday vazifani konstitutsion sud, davlatlar o‘rtasidagi mojarolarda esa – xalqaro huquq normalari bajarishi mumkin.

Mojarolar – shunday vaziyatki, unda muhokama qilinmaydigan ehtiyojlar o‘rtaga qo‘yilgan bo‘ladi, bu ehtiyojlar yuzasidan kelishuvga kelish mumkin emas. Masalan, bir tomonning qarama-qarshi tomon uning o‘ziga xosligi, xavfsizligi yoki hayotiga tahdid solayotganiga aminligi. J.Bertoning fikricha, mojarolar hal etilishi uchun tomonlarning tub ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha xatti-harakatlar talab qilinadi.

Berton taklif etgan mojaroli munosabatlar tasnifi ularning ijtimoiy va siyosiy kontekstda namoyon bo‘lishiga mutlaqo mos.

O‘ziga xos ijtimoiy resurs – davlat hokimiyyati, shuningdek, ijtimoiy guruhlarning siyosiy mavqeyi (hokimiyyat dastaklariga uzoq-yaqinligi, jamiyat uchun muhim qarorlar qabul qilishga ta’sir o‘tkaza olish qobiliyati) va siyosiy qadriyatlar (vatanparvarlik, fuqarolik burchini anglash, huquq va erkinliklar) **siyosiy mojarolar obyekti** bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy guruhlar, yoki ularning xohish-irodalarini ifodalovchi siyosiy institutlar **siyosiy mojarolar subyektlari** bo‘lishi mumkin.

**Mojarolarning predmeti** – hal etilishi kerak hisoblangan obyektiv mavjud yoki o‘ylab topilgan muammo bo‘lib, uni hal qilish talab etiladi va shuning uchun

u qarashlar, shuningdek, muammoni o‘ziga qulay tarzda yechishga intilayotgan opponentlar bergan baho va maqsadlar qarama-qarshiligiga sabab bo‘ladi. Guruhlararo mojarolarda hudud birligi va uning guruhlar birligiga nisbati, mulk va resurslar taqsimoti (shu jumladan, hokimiyat taqsimoti), ulardan foydalanish shartlari, guruhlar mavqyei tengligi va tengsizligi, muayyan guruh qadriyatlarining tan olinishi va pisand qilinmasligi shunday muammolardan bo‘lishi mumkin<sup>1</sup>.

Siyosiy mojarolarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Siyosiy mojaro – siyosat dunyosining ajralmas qismi, siyosiy hayotning motivatsion asosi. Birini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, shuning uchun siyosatga berilgan zamonaviy tavsiflarda uning tarkibiga mojaro fenomenini kiritish taqozo etiladi. Bir qator siyosatchilarining fikriga ko‘ra, siyosat – bu o‘zaro qarama-qarshi maqsadlarni ko‘zlaydigan subyektlar kurashi bo‘lib, natijada qadriyatlar taqsimoti hokimiyat tomonidan boshqarilishi va nazorat qilinishiga erishiladi.

2. Siyosat dunyosi – bu oshkorlik dunyosi, bir talay harakatlar uchun makon. Aynan shu fikrlarning oshkor ijtimoiy to‘qnashuvida ijtimoiy dunyo o‘zgacha xususiyat kasb etadi va siyosat dunyosiga aylanadi.

3. O‘ziga xos resurslar: davlat hokimiyati, hukumat institutlari tuzilmasi, ijtimoiy guruhlarning siyosiy mavqyei, siyosiy hukumat va umuman mavjud siyosiy jamoa asosini tashkil etuvchi qadriyatlar va ramzlar siyosiy mojaroga sabab bo‘lishi mumkin. Siyosiy mojaroning industrial mojarodan asosiy farqi shundaki, agar iqtisodiyotda resurslar ozmi-ko‘pmi adolatli taqsimlansa, ba’zida oldiniga mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirib, keyin uni taqsimlash uchun birlashishga rozi bo‘linsa, siyosatda buning iloji yo‘q. Prezident, hukumat rahbari lavozimini bo‘lib bo‘lmaydi, parlamentdagi o‘rinlar soni ham qat’iy chegaralangan. Agar iqtisodiyotda liberal doktrinaga muvofiq barcha buyumlar o‘z almashinadigan bahosiga ega bo‘lsa, siyosatda buning aksi: siyosiy erkinlik va siyosiy mustaqillikning ekvivalent bahosi yo‘q.

4. Harbiy kuchdan mojaroni hal etish vositasi sifatida foydalanish imkoniyati. Hokimiyatlar ichida faqat davlat hokimiyatigina qonuniy ravishda kuch ishlatish huquqiga ega. Davlat siyosiy institut sifatida deyarli barcha siyosiy mojarolarning muqarrar ishtirokchisidir. Shunday ekan, so‘nggi dalil sifatida, harbiy kuchdan foydalanish, foydalanganda ham qonuniy ravishda foydalanish istagidan tiyinish qiyin. Bu siyosiy mojarolarni oqibatlar nuqtayi nazaridan ancha xavfli va vayronakor qiladi<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup>Аклаев А.Р. Этно-политическая конфликтология. Анализ и менеджмент. – М.: Дело, 2005. – С.458

<sup>2</sup>Политическая конфликтология (под ред. С.Ланцова). – Питер, 2008. – С.20-21.

Demokratik siyosiy tartib ijtimoiy mojarolarni tan olibgina qolmay, ularni institutsionallashtiradi ham. Uning institutlari yuzaga keladigan mojarolar va ularni ko‘pchilik foydasiga hal etish yo‘llari oshkor, qonuniy ravishda, umume’tirof etilgan me’yor va “o‘yin qoidalari”ga muvofiq erkin muhokama qilinishini (parlamentda, partiyalarda, saylovlarda) ta’minlashi lozim.

Siyosiy mojaro qanday bo‘lmisin, uning negizida mafkura yotadi, mojaro agentlari siyosiy mojaroni mafkuraviy timsollar orqali anglaydi. Mafkuraviy komponent qarshi tomonlar xulq-atvori va xatti-harakatlarida tashkiliylik va safarbarlik ahamiyatiga ega.

**Konservativ mafkura** mojaroni muhosara qiladi, hatto, mojaroning ijobiy rivojini ham muhosara qilib, salbiy jihatlar to‘planib qolishiga sabab bo‘ladi.

**Progressiv mafkura** – mojaroni jamiyat foydasiga hal bo‘lishi darajasigacha rag‘batlantiradi.

Siyosiy mojarolarning yemiruvchi kuchi boshqa barcha ijtimoiy mojarolarning salbiy oqibatlari ko‘lamidan beqiyos darajada ko‘p. U binoning ayrim qismlarini emas, balki poydevorini larzaga keltiradi (agar mojaro revolyutsiyaga olib kelsa).

**Subyektlar mezoni bo‘yicha** siyosiy mojarolar quyidagi toifaga bo‘linadi: sinfiy, aralash, partiyaviy, partiyadan ustun, ommaviy, elitar.

Namoyon bo‘lish makoni nuqtayi nazaridan siyosiy mojarolar **xalqaro** va **partiya ichidagi mojarolarga** bo‘linadi.

**Mojaro makoniga ko‘ra partiya ichidagi mojarolar quyidagilarga bo‘linadi:**

- oliv hokimiyat va boshqaruv darajasidagi mojarolar;
- mintaqqa miqyosidagi mojarolar;
- mahalliy va periferiya miqyosidagi mojarolar.

Oliy hokimiyat darajasidagi mojarolarni ularning chukurligi va jamiyat barqarorligi uchun xavfi darajasiga ko‘ra ajratish mumkin:

*hukumat inqirozi* – hukumat jamiyat oldidagi ishonchini yo‘qotishi oqibatida yuz beradi (eng ko‘p Italiyada kuzatiladi);

*parlament inqirozi* – parlament falajligini anglatadi. Mojaro parlament fraksiyalari o‘rtasida; parlament va hukumat o‘rtasida; parlament va president o‘rtasida bo‘lishi mumkin;

*konstitutsiyaviy inqiroz* – odatda Asosiy qonunning mukammal emasligi, davlat organlari tomonidan ushbu qonunni siyosiy maqsadlarda buzishga urinishlar bilan bog‘liq konstitutsiyaviy mojarolardan so‘ng yuz beradi. Konstitutsiyaviy inqiroz 1993-yilda Rossiyanı larzaga soldi. O‘shanda Rossiya Prezidenti Boris Yeltsinning “Rossiya Federatsiyasini bosqichma-bosqich konstitutsiyaviy isloh qilish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq

nafaqat Sovetlar tizimi parchalangan, balki Konstitutsion sud o‘z faoliyatini to‘xtatib qo‘ygan edi.

Siyosiy mojarolar radikal va qisman mojarolarga bo‘linadi:

1.Radikal mojarolar – mavjud davlat hokimiyati tizimi almashinishi (revolyutsiya).

2.Qisman mojarolar natijasida siyosatda hokimiyat va hokimiyat tuzilmalari qisman o‘zgaradi (islohot).

**Siyosiy kurash shakllariga** parlament va partiya muzokaralari, saylovchilarning ovozlari uchun saylovoldi kurash, norozilik aksiyalari, ish tashlashlar, partiyalar va ijtimoiy harakatlar tashkil etish kiradi.

**Siyosiy majburlash shakli** – urush (eng qat’iy chora sifatida).

**Muxolifat** – rasmiy nuqtayi nazar, ya’ni davlat hukumati tan olgan nuqtayi nazarni, davlat taraqqiyoti strategiyasi va turli islohotlarni qabul qilmaydigan ozchilik. Muxolifat bu partiyalar va parlamentdagi fraksiyalar o‘rtasidagi qarama-qarshilikni aks ettiradi. Muxolifat **konstruktiv, destruktiv** va **murosasiz** bo‘ladi. Muxolif partiyalar ko‘pincha saylovda yutib chiqmagan parlamentdagi ozchilikni tashkil etadi. Saylovda yutib chiqqan partiya, odatga ko‘ra, bu hokimiyat partiyasi. Muxolifatning asosiy vazifalari – **tanqid, nazorat, muqobillik**. Konstruktiv oppozitsiya – sog‘lom demokratik tizimning qismi.

**Inqirozlar** – iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa inqirozlar siyosiy mojarolarning vujudga kelishiga va rivojlanishiga dastlabki sabab bo‘ladi.

Usul va vositalar – halollikdan pastkashlikkacha, tinchlikdan zo‘ravonlikkacha (“boshga urish”, “parchala va hukmronlik qil”, “nozik joy”, axborot urushi, qamal va boshqalar).

## 2. Xalqaro mojarolarning xususiyatlari

Xalqaro-siyosiy mojaro – bu jahon maydonida o‘zaro aloqa qiladigan ijtimoiy jamoalar o‘rtasida hokimlikni amalga oshirish yuzasidan bo‘ladigan munosabatlar tizimi doirasidagi manfaatlar to‘qnashuvi. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro-siyosiy mojarolar sirasiga nafaqat davlatlarning va davlatlar birlashmasining siyosiy faoliyati natijasi bo‘lgan, balki xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari xatti-harakatlari hamda har qanday (iqtisodiy, axborot, diniy, madaniy, ilmiy va hokazo) xalqaro munosabatlarning siyosiy jihatlari hosilasi bo‘lgan mojarolarni kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xalqaro-siyosiy mojarolarning bunday ta’rifi xalqaro-siyosiy mojarolar mohiyatini aniqroq tushunish va ularni chuqr tahlil qilish imkonini beradi:

- “Xalqaro-siyosiy mojaro” tushunchasi nafaqat davlatlar o‘rtasidagi mojarolarga nisbatan, balki jahon maydonida o‘zaro aloqa qiladigan ijtimoiy jamoalar o‘rtasida hokimlikni amalga oshirish yuzasidan bo‘ladigan

munosabatlar tizimi doirasidagi manfaatlar to‘qnashuviga nisbatan qo‘llanilishi mumkin;

- xalqaro-siyosiy mojarolarni o‘rganish faqat uning o‘z, ichki siyosiy mohiyati va vazifalari, kelib chiqish sabablari va hal etish yo‘llarini aniqlash bilan cheklanib qolmasligi, aksincha, uning ichki va dunyo siyosatidagi o‘rni va ahamiyatini, ularning mojaro genezisi, mohiyati va kechishiga ta’sirini ham o‘rganishi lozim.

Hozirda, ichki mojarolar xalqaro tus olayotgan bir paytda, ichki va xalqaro mojarolar o‘rtasidagi chegara yo‘qolib bormoqda, buning oqibatida tan olinmagan davlat tuzilmalari, siyosiy harakatlar, terroristik tashkilotlar mojaro ishtirokchilariga aylanmoqda.

Ketrin Barns (mojarolar tahlili va ularni hal qilishi instituti, London, ACCORD jurnalining hamkor muharriri) zamonaviy siyosiy mojarolar **tipologiyasida** quyidagi mojaro turlarini ajratishni taklif etadi:

- institutsional darajada vujudga kelgan ichki siyosiy mojarolar;
- kichik urushlar (lokal, mintaqaviy mojarolar);
- fuqarolar urushlari;
- mustamlakadan chiqqan davlatlardagi mojarolar;
- milliy mojarolar;
- resurslar uchun mojarolar (iqtisodiy, boj, savdo-sotiq);
- parchalanayotgan davlatlardagi mojarolar;
- murakkab siyosiy inqirozlar;
- gumanitar halokatlar.

Xalqaro mojarolar ishtirokchilari soniga qarab, ularni shartli ravishda ikki taraflı va ko‘p taraflı mojarolarga bo‘lish mumkin.

Mojaro geografik jihatdan global, mintaqaviy va lokal mojarolarga bo‘linadi.

Global xalqaro mojarolarning chegaralari bo‘lmaydi, deyarli barcha davlatlar taqdiri, dunyo taraqqiyoti yo‘nalishlari va tendensiyalari ularning natijasiga bog‘liq (Birinchi va Ikkinci Jahon urushlari, “sovuv urush”).

Mintaqaviy mojarolar bitta siyosiy-geografik mintaqaga doirasidagi xalqaro munosabatlarni qamrab oladi. Qatnashchilarning miqdori cheklangan bo‘lib, oqibatlarining ko‘lami torroq. Lokal mojarolar submintaqaviy va mahalliy darajada rivojlanadi. Odatda ular aniq muammolar va hududlarga taalluqli. Ularga ikki taraflı mojarolarning katta qismi kiradi.

### **Xalqaro ijtimoiy mojaro nazariyasi globallashuv jarayonlari kontekstida**

Xalqaro ijtimoiy mojaroning nazariyasiga ko‘ra mojarolar faqat ichki yoki faqat xalqaro bo‘lib qololmaydi, balki shu ikki qutb oralig‘ida joylashadi. Ular globallashuv jarayonlari bilan zamonaviy xalqaro ijtimoiy mojarolar modellari o‘rtasida kuchli bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi. Global

darajada kechayotgan zamonaviy mojarolarning negizini ko'rib chiqayotib, olimlar muayyan mojarolarga global tizimli jarayonlarning xususiy ko'rinishi sifatida yondashadilar. Aksariyat hollarda shunday manba sifatida quyidagi tizimli jarayonlar ko'rsatiladi: 1)“sovuq urush”ning tugaganligi bilan bog‘liq geosiyosiy tranzit; 2)sivilizatsiyalar to‘qnashuvi; 3)quyidagi uchta tendensiya ta'siri natijasida yuzaga kelgan mojarolarning global-tizimli manbalari: a)boylik va iqtisodiy hokimiyatni global darajada taqsimlashda tenglisizlik ortishi; b)inson faoliyati va iqtisodiy o'sishning ekologik muammolar sababli cheklanishi (rivojlangan dunyoda energiya haddan ziyod ko‘p iste'mol qilinishi va rivojlanayotgan dunyoda aholi soni ortishi); d)xavfsizlik munosabatlari militarizatsiyasi davom etishi, shu jumladan, Ommaviy Qirg'in Qurolining yanada keng tarqalishi. Shu borada uch turdag'i mojaro kelib chiqadi – davlatlararo miqyosda resurslar, avvalo, neft yetishmasligi bilan bog‘liq mojarolar; aholining keng ko‘lamli migratsiyasi tufayli qiyinlashgan bir-biriga o‘xhash guruhlarning mojarosi; kutilgan natija va erishilgan natija orasidagi farq kattalashib borgani sari bir davlat miqyosida nisbiy deprivatsiya mojarosi<sup>1</sup>.

### Zamonaviy mojarolar manbalari: darajalar jadvali<sup>2</sup>

Miqyos	Misol
Global	Geosiyosiy tranzit, Shimol-Janubga bo‘linish
Mintaqaviy	Patronat-kliyentella modeli, davlatlararo chegaralar hududi ijtimoiy demografiyasi
Davlat darajasida: a) kichik ijtimoiy daraja; b) kichik iqtisodiy daraja; d) siyosiy daraja.	Zaif jamiyat: madaniy farqlar, etnik nomutanosiblik Zaif iqtisodiyot: resurs bazasi qashshoqligi, nisbiy deprivatsiya. Zaif siyosiy tizim, institutsional besamara davlat, hukumat milliy guruhlarning biriga nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘lishi, siyosiy tizimda qonuniylik ta'minlanmaganligi
Mojaro taraflarining darajasi	Guruhlar safarbarligi, guruh ichidagi dinamika omili
Individ, kiborlar darajasi	Istisno siyosati, fraksiyalarning ajralishi, hokimiyatni qo‘lga kiritishda ochko‘z kiborlarning ambitsiyalari, yetakchilar safidagi korrupsiya darajasi

<sup>1</sup>Теория Х. Милла, О. Рамбсботама, Т. Вудхауза. *Аклаев А.Р.* Этно-политическая конфликтология. Анализ и менеджмент. – М.: Дело, 2005. – С.264.

<sup>2</sup>*Аклаев А.Р.* Этно-политическая конфликтология. Анализ и менеджмент. – М.: Дело, 2005. – С.264.

### **3. Xalqaro mojarolarni tadqiq qilishda nazariy-uslubiy yondashuvlar**

Mojarolar va hamkorlik xalqaro munosabatlarning eng ahamiyatli xususiyatlaridan bo‘lib, ular jarayon sifatida o‘rganiladi va mojaro taraflari o‘zaro aloqasining bog‘liq tomonini ifodalaydi. Rossiyalik tadqiqotchi P.A.Sigankov<sup>1</sup> xalqaro mojarolarni o‘rganishda uchta asosiy yo‘nalishni ajratadi: **strategik tadqiqotlar, mojaroni tadqiq qilish, dunyonni tadqiq qilish.**

*Strategik tadqiqotlarnuqtayi* nazaridan xalqaro mojarolar tahlilining o‘ziga xos tomonlari ularning millat manfaatlari va davlat xavfsizligini ta‘minlash, ehtimoliy urushda g‘alaba qozonish uchun qulay sharoit yaratish bilan bog‘liq amaliy vazifalarni hal etishga qaratilganligida. Strategik tadqiqotlaryo‘nalishi vakillari, ko‘p hollarda, xalqaro mojaroni uning turlaridan biriga – davlatlarning qurolli to‘qnashuvi tomon soddalashtirishga moyillik bildiradilar, shu yerda ta‘kidlash joizki, “katta strategiya” harbiy strategiyadan farq qiladi, “chunki uning chin maqsadi harbiy harakatlarga intilish emas, balki shunday manfaatli strategiyaga erishishki, u o‘z-o‘zidan yechimga olib kelmasa ham, harbiy harakatlar vositasida davom ettirilganda muqarrar g‘alabaga olib kelsin”.

Taniqli amerikalik olim L.Kozer ijtimoiy mojaroni “qadriyatlar, maqomlar, hokimiyat yoki noyob resurslar uchun aktyorlar jamoasi o‘rtasidagi to‘qnashuv bo‘lib, bu to‘qnashuvda taraflardan har birining maqsadi o‘z raqibini barcha narsadan neytralizatsiya qilish, zaiflashtirish yoki bartaraf etishdan iborat”<sup>2</sup> deb baholagan.

Bunday ta’rifni to‘g‘ri deb bilgan xalqaro munosabatlar tadqiqotchilarining bir qismi mojaro obyektiv mazmunga egaligini inobatga olgan holda uni o‘rganadilar.

K.Bouldningning fikriga ko‘ra, bu “shunday raqobat vaziyatiki, bunda taraflar mumkin bo‘lgan pozitsiyalar bir biriga to‘g‘ri kelmasligini yaxshi tushunadilar va har bir taraf boshqa taraf egallagan pozitsiyaga to‘g‘ri kelmaydigan vaziyatni egallahni istaydi”<sup>3</sup>. Boshqacha qilib aytganda so‘z manfaatlar qarama-qarshiligi to‘g‘risida boradi. Manfaatlar obyektivligi sababli xalqaro munosabatlar ishtirokchilari tomonidan ularni bir vaqtning o‘zida amalga oshirishning iloji yo‘q.

Taniqli kanadalik mutaxassis A.Lego ta‘kidlaganidek, “strategiyaning mohiyati siyosiy maqsadlarga erishish uchun kuchdan foydalanishdan

---

<sup>1</sup>Цыганков П.А. Международные отношения. Учебное пособие. – М.: Новая школа, 1996.

<sup>2</sup>Coser L. The Functions of Social Conflicts. New York, 1999. p.8.

<sup>3</sup>Dahrendorf R. The Modern Social Conflict: An Essay on The Politics of Liberty. – Berkeley, Los Angeles: University of California Press, 2002. – 219 p.

iborat”<sup>1</sup>. Uning eng yirik nazariyachisi Klauzevits bo‘lgan. Ushbu nuqtayi nazardan ish ko‘riladigan bo‘lsa, aynan “taraflardan biri ziddiyatlarni harbiy terminlar orqali baholashni boshlaganda” mojaro boshlanadi<sup>2</sup>.

Strategik tadqiqotlarning assosiy vazifasi mojaro sharoitida davlat tutishi mumkin bo‘lgan va dushmanga ta’sir ko‘rsata oladigan, uni nazorat qila oladigan, unga o‘z hukmini o‘tkaza oladigan eng to‘g‘ri yo‘l qanday bo‘lishini aniqlashga urinishdan iborat. “Sovuq urush” sharoitida bu qo‘rqitish strategiyasi global xalqaro tizimni nisbiy barqarorlikda ushlab turish imkonini bergen. Ammo bu, birinchidan, statik barqarorlikning konfrontatsiya shakli bo‘lgan; ikkinchidan, u harbiy mojarolarni mintaqaviy va submintaqaviy kichik tizim darajasida bartaraf etishga yordam bermagan.

“Sovuq urush” tugatilishi bilan xalqaro uyushtirilgan jinoyatchilik, tajovuzkorona millatchilik, siyosiy zo‘ravonlik sababli kelib chiqadigan muammolarga adekvat javob berish vazifasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi sharoitda boshqa yo‘nalishlar oldingi o‘ringa chiqadi, xususan, **mojarolarni tadqiq qilish** yo‘nalishi doirasida qo‘llaniladigan yondashuvlar keng tarqaladi. Bu yo‘nalish uchun eng muhimi xalqaro mojarolarning kelib chiqish sabablarini va turlarini aniqlashdir.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha farq bor. Xususan, xalqaro mojarolarning kelib chiqishi masalasida ikkita nuqtayi nazar mavjud. Birinchi nuqtayi nazar mojarolarning sababi xalqaro tizim tuzilmasi xususiyati bilan bog‘liq. Ikkinchi nuqtayi nazar tarafdorlari mojarolarning kelib chiqishi sabablarini kontekst bilan, ya’ni xalqaro munosabatlar tizimining ichki muhiti bilan bog‘lashga moyillik bildiradilar.

“Mojarolarni tadqiq qilish” yo‘nalishi vakili Y.Galtung “tajovuzkorlikning tarkibiy nazariyasini” taklif etdi. U xalqaro mojarolarning asosiy sababi muayyan davlat dunyo maydonida qanday o‘rin egallashini aniqlashga yordam beradigan mezonlar nisbati buzilganligida deb biladi. Galtung ta’kidlashicha, tuzilmalar o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelganda tajovuzkorlik uchun qulay sharoit yaratiladi. Bu, shuningdek, global xalqaro tizim va uning doirasida kuzatiladigan “tuzilmaviy zulm”ga taalluqli bo‘lib, bunda industrial rivojlangan davlatlar o‘z iqtisodiyoti yuqori pog‘onaga ko‘tarilganidan foydalangan holda sust rivojlangan mamlakatlarning zolimi va ekspluatatori sifatida ish ko‘radilar. Bunday mojaroga “Shimol-Janub” modeli ichidagi mutanosiblikni misol keltirish mumkin. Jadalroq va yaxshiroq rivojlanish uchun Shimol zarur salohiyatga ega janub mamlakatlari esa buning uchun imkoniyatga ega emas.

<sup>1</sup>Фельдман Д.М. Политология конфликта. Учеб.пособие. – М.: Издательский Дом «Стратегия», 1998. – 200 с.

<sup>2</sup> Фельдман Д.М. Конфликты в мировой политике / Под ред. П. А. Цыганкова. – М.: МУБУ, 1997. – 128 с.

Biroq, tuzilmaviy nomutanosiblik mavjudligining o‘zi uning oqibatida yuzaga keladigan mojarolar muqarrar ravishda oliy darajadagi mojaro – harbiy to‘qnashuvga sabab bo‘ladi degani emas. Pirovardida mojaro harbiy to‘qnashuv bilan tugashi uchun ikkita shart-sharoit bo‘lishi kerak: birinchidan, zulm jamiyat hayotining ajralmas va odatiy qismiga aylanishi, ikkinchidan, yo‘qotilgan mutanosiblikni tiklash uchun boshqa vositalar qolmasligi.

Uchinchi yo‘nalish – *dunyoni tadqiq qilish* yo‘nalishi xalqaro muzokaralar jarayoniga alohida urg‘u beradi. Ushbu yo‘nalish tarafdorlari mojarolarni hal etish va nazorat qilish mexanizmlariga taalluqli masalalarni tadqiq qilish va shu asosda qarama-qarshilikdan hamkorlikka o‘tish yo‘llarini izlashga alohida ahamiyat beradilar. Xalqaro mojarolarni tinchlik yo‘li bilan hal qilish yo‘llarini tushunib yetishga Osloda chop etiladigan “Journal of Peace Researche” jurnalidagi maqolalar katta hissa qo‘shdi. Jurnal shakllantirayotgan g‘oyaviy-nazariy oqim doirasida qilingan xulosalar ichida eng muhimi quyidagicha yangraydi: “Tinchlik – bu shunchaki urush yo‘qligi emas, bu, avvalo, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda qonun va adolat ustuvorligidir”.

“Conflict Resolution” yo‘nalishi doirasida **“mojarolar transformatsiyasi”** konsepsiysi yuzaga keldi. Bu konsepsiya ko‘ra muhimi mojaroni hal etishga strategik tanlov nuqtayi nazaridan emas, balki mojaro negizida yotgan muammoni transformatsiya qilish yo‘llarini izlash nuqtayi nazaridan yondashishdir, ya’ni eng muhimi muammo ustida ishslash va bu barcha mojaro ishtirokchilari uchun asosiy vazifa.

“Conflict Resolution” oqimining eng yorqin vakillaridan biri J.Bertonne fikriga ko‘ra “mojaro, asosan, subyektiv xususiyatga ega. Manfaatlar o‘rtasidagi go‘yoki “obyektiv” tafovutdan kelib chiqqan mojaro ikkala taraf uchun ijobjiy tugaydigan mojaroga aylantirilishi mumkin, qachonki ular bir-birini tushunishga harakat qilib, mojaroga sabab resursdan birgalikda foydalanish mumkinligini tushunib yetsalar”<sup>1</sup>.

Umuman, qayd etish lozimki, o‘rganilayotgan oqimlar o‘rtasidagi farq ko‘p jihatdan shartlidir. Bunga dalil oqim vakillarining mojarolar kelib chiqishi, tabiatи va ularni hal etish usullarini tadqiq qilishda yaqindan hamkorlik qilishlaridir. Shunisi ham muhimki, ikkala oqim **muzokaralarni** mojaroni hal etishning muhim vositasi deb biladilar.

G‘arb mojaroshunoslik fanida muzokaralar muammosi nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi (D.Mitrani, Fisher, Zortman). Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, xalqaro muzokaralarga bag‘ishlangan tadqiqotlarga, ko‘p hollarda, bir-

---

<sup>1</sup> Horowitz D.L. Ethnic Groups in Conflict. – Berkeley, Los Angeles, L.: University of California Press, 2002. – 697 p.

biriga qarama-qarshi bo‘lgan yo‘nalishlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Bir tomondan, bu tinchlik muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlanmalar (Peace Researche), ikkinchi tomondan esa, “kuch ishlatish” g‘oyasi. Agar birinchi tendensiya muzokaralar xalqaro mojarolarni hal etish va tinchlikka erishish vositasi ekanligi to‘g‘risida tasavvur hosil qilsa, ikkinchisi muzokaralarda yutuqqa erishishning eng maqbul yo‘llarini topishga qaratilgan. Shu bilan birga “sovuj urush” va dunyo miqyosida qarama-qarshilik tugashi muzokaralar olib borishda yangi tendensiyalar yuzaga kelishiga olib keldi. Umuman olganda, ushbu tendensiyalar quyidagilardan iborat<sup>1</sup>:

Birinchidan, xalqaro muzokaralar davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy shakliga aylanib bormoqda. Ular harbiy omillar roli asta-sekin kamayib borishiga faol ta’sir qilmoqda.

Ikkinchidan, muzokaralarning hajmi va miqdori ko‘paymoqda. Xalqaro munosabatlarning yangi sohalari (ekologiya, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnik hamkorlik va h.k.) muzokaralarning yangi obyektiga aylanib bormoqda.

Uchinchidan, xalqaro tashkilotlarning muzokaralar olib borishdagi ahamiyati ortmoqda.

To‘rtinchidan, muzokaraga diplomatik tajribaga ega bo‘lmagan mutaxassislar jalb etilmoqda, ammo lekin ular ikki davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning yangi sohalari tahlili uchun zarur ilmiy-texnik va iqtisodiy muammolar borasida kerakli bilimlarga egalar.

Nihoyat, beshinchidan, muzokaralarni boshqarish jarayonini tubdan qayta ko‘rib chiqish; oliy davlat boshqaruvidagi eng muhim muammolarni aniqlash; turli ishchi darajalar mutasaddi bo‘lgan masalalar doirasini aniqlash; javobgarlikni yuklash tizimini ishlab chiqish; diplomatik hizmatlarning muvofiqlashtiruvchi rolini oshirish zarurati tug‘ilmoqda.

#### **4. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda mojaro kelib chiqishi imkoniyatlari**

Zamonaviy xalqaro munosabatlar mojaroga olib kelishi mumkin bo‘lgan bir qator murakkab jarayonlar majmuasi bilan ajralib turadi. Rus tadqiqotchilari A.Bagaturov va I.Fomenko inqiroz potensialini o‘z ichiga oluvchi bir nechta muhim jihatlarni alohida qayd etadilar.

Dunyoda harbiy-siyosiy sohada murakkab jarayonlar yuz bermoqda. Birinchidan, transmilliy jinoiy-terroristik tarmoqlarning faolligi oshib borayapti. So‘nggi yillarda terroristik tarmoqlar qulay sharoit yuzaga

---

<sup>1</sup> Цыганков П.А. Международные отношения. Учебное пособие. – М.: Новая школа, 1996.

kelganda osonlik bilan partizanchasiga ish ko‘radigan diversion-terroristik guruhlarga aylanishmoqda. Agar hozirgi toliblar harakatida mahalliy kuchlardan ko‘ra ko‘proq xorijiy kuchlar rahbarlik qilayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, bu holda global terroristik tarmoqlar dunyoning istalgan mintaqasida vaqtı-vaqtı bilan o‘z “kvaziarmiya”larini vujudga keltirishlari mumkinligini taxmin qilish qiyin emas. Kvaziarmiyalar mahalliy hukumat va xalqaro kuchlarga qarshi harakatlarni muvaffaqiyat bilan olib borishlari mumkin (Somali, Sudan, Iroq, Pokiston hududlarining bir qismi, Afg‘onistonda pushtunlar qo‘zg‘oloni).

Ikkinchidan, ommaviy qirg‘in quroli (OQQ) tarqalishi xavfi ortib bormoqda. 2003-2006-yillarda Eron va KXDR yadro dasturlarini faollashtirganlari munosabati bilan vujudga kelgan diplomatik inqirozlar OQQ tarqatmaslik borasidagi vaziyat keskinlashishiga olib keldi. Hindistonning yadroviy maqomini qonuniylashtirish jarayoni boshlandi. Pokiston bu jarayonni diqqat bilan kuzatmoqda. Isroil 1960-yillar oxirida yadro qurilmalarini sinovdan o‘tkazgandan keyin, vujudga kelgan ikkilamchi vaziyatga ravshanlik kiritish maqsadida, “keskin harakatlar” qilishini kutish o‘rinlidir.

Uchinchidan, qurol-yarog‘ ustidan nazorat transformatsiyasi kuzatilmoqda. Hali ham 1980-1990-yillarda yuzaga kelgan qurollanish ustidan nazorat to‘g‘risidagi global muzokaralar g‘oyasiga qaytish ehtimoli kam. E’tibor xavfli harbiy potensialga ega “zaif” davlatlarning (Pokiston) barbod bo‘lishini oldini olishga, “potensial xavfli” davlatlarda OQQ yaratish dasturini majburiy ravishda tugatishga, jinoiy-terroristik tarmoqlar bilan kurashishga qaratilmoqda.

“Qurollanish ustidan nazorat o‘rnatishning yangi tartibi” tasdiqlanishi “eski” yadro quroliga ega davlatlar bilan yadro obyektlarini xalqaro nazoratga topshirishni yoki yadro sohasida o‘z faoliyatini cheklashni xohlamagan rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida chuqur nizolarni keltirib chiqarishi mumkin.

To‘rtinchidan, 2000-yillar o‘rtasidan boshlab xorijiy quvvat manbalari ustidan nazorat o‘rnatish uchun harbiy kuch ishlatish ehtimoli oshgan. 2005-yildan boshlab “energetika sohasida xavfsizlik”ni ta‘minlash muammosi yuzasidan avjga olgan bahs-munozaralar bunday konsepsiya yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Fors ko‘rfazidagi Birinchi urush paytidan boshlab (1991-yil) AQSh Saudiya Arabistonini himoya qilishni o‘z milliy xavfsizlik strategiyasining bir qismi deb hisoblaydi, chunki Amerika iste’mol qiladigan neftning ko‘p qismini Al Riyod yetkazib beradi. Tahlilchilarning fikriga ko‘ra, 2003-yildagi Fors ko‘rfazidagi Ikkinchi urushning sabablaridan biri - Bush ma’muriyatining AQShda oshib borayotgan uglevodorodlarga bo‘lgan

ehtiyojni Iroqdagi neft konlari ustidan nazorat o‘rnatish orqali qondirishga intilishidir.

Beshinchidan, bugungi kundagi xalqaro vaziyatning xususiyatlaridan biri unda katta-yu kichik hududiy mojarolarning ko‘pligi va ular, allaqachon, surunkali tus olganidir. Janubiy Osiyo, Koreya yarim oroli, Tayvan bo‘g‘ozidagi mojarolar va Janubiy Afrika mamlakatlaridagi hukumatga qarshi namoyishlar shular jumlasidan.

So‘nggi besh yil ichida eng yirik hisoblangan Iroq va Afg‘onistondagi mojarolar 50 yil avvalgi mojarolardan farqli o‘laroq davlatlardagi ichki ziddiyatlar yoki tortishuvlar sababli emas, balki boshqa davatlarning intervensiysi oqibatida sodir bo‘lgan. Demak, kuchli mamlakatlarning kuchsiz davlatlar ishlariga harbiy aralashuvi kelajakda mojarolarning asosiy sababi bo‘lishi mumkin.

### **Qaytarish uchun savollar:**

1. Siyosiy mojaroni ta'riflab bering.
2. Xalqaro mojarolarning xususiyatlari.
3. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mojaro keltirib chiqarish potensiali.

## **2. ETNOSIYOSIY MOJAROLARNING XUSUSIYATLARI**

1. Etnosiyosiy mojarolarning asosiy xususiyatlari.
2. E.Gellner, J.Rotshild nazariyalari daetnosiy osiy mojarolarnin gxususiyatlari, S.Xantingtonning “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasi, T.Gurrning nisbiy deprivatsiya nazariyasi.
3. Etnosiyosiy mojaroni tahlil qilishdagi uslubiy yondashuvlar (primordializm, instrumentalizm, konstruktivizm).

### **1. Etnosiyosiy mojarolarning asosiy xususiyatlari**

Etnosiyosiy mojaro – bu ijtimoiy-siyosiy mojaroning xususiy shakli, ammo uo‘ziga xos xususiyatlarga ega:

- Etnik mojarolarning aksariyati siyosiy tusga ega, ya’ni ma’lum darajada ular etnosiyosiy mojarodir;
- Etnosiyosiy mojarolarning aksariyati tabiatan tomonlarning huquqiy maqomi bilan bog‘liq: bu mojarolar negizida etnik guruhning siyosiy maqomi yotadi, shuning uchun mojaroga olib kelgan sabablardan biri bu etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa yoki shu o‘zaro aloqa sodir bo‘ladigan muhit o‘zgarishi bo‘lib, bunda tomonlardan birining iqtisodiy yoki siyosiy maqomi uning a’zolari tomonidan nomaqbul, debhisoblanadi;
- milliy mojarolar – bu nafaqat manfaatlar to‘qnashuvi, balki o‘xshashliklar to‘qnashuvidir, chunki mojaroda guruh manfaatlaridan kelib chiqib ishtirok etganda, inson mojaroda ishtirok etayotgan guruhga tenglashtiriladi, aytish mumkinki inson o‘z etnosi, ya’ni millatining bir parchasi sifatida qabul qilinadi;
- etnosiyosiy mojarolar hissiyotlar haddan ziyod jumbushga kelishi bilan, aql bovar qilmaydigan amallar sodir etilishi bilan ajralib turadi. Bu esa adovat, g‘azab va bosqinchilikka erk berilishida namoyon bo‘ladi va mojaro eskalatsiyasi uchun zamin yaratadi<sup>1</sup>.

Rossiya tadqiqotchilari Z.Sikevich va S.Lansov mojaroning vujudga kelish iehtimolini ko‘rsatib beradigan “etnik tahlika”ning tarkibiy qismlari ro‘yxatini taqdim etadilar. Ular quyidagilardir:

1. Hududda yashovchi millatlar, davlat negizini tashkil etadigan millatlarning va/yoki mintaqada ko‘pchilikni tashkil etuvchi millat ulushining va ozchilikni tashkil etuvchi millatlar ulushiga nisbati.
2. Etnik-hududiy da’volarning mavjudligi, ayniqsa, ulardan davlat siyosati vositasi sifatida foydalanilsa.

---

<sup>1</sup> Политическая конфликтология (под ред. С.Ланцова). – Питер, 2008. С.70-71.

3. Ozchilikni tashkil etadigan, alohida yashaydigan millatlarning o‘z milliy davlatchilagini o‘zi belgilashga intilishi, ayniqsa bu anklav asosiy millat vakillari yashaydigan hudud bilan bevosita qo‘shni bo‘lsa.

4. Ko‘p millatli jamiyatda milliy davlat qurishga intilish.

5. Davlat hokimiyati barqarorligi, samaradorligi va qonuniyligi darajasi, hukmron markaziy siyosiy elitaning birdamligi va uyushqoqligi.

6. Hududiy joylashishi. Agarda respublika yoki o‘z mavqyeini belgilayotgan millat jamiyati tashqi chegeralarga ega bo‘lmasa, unda ular tomonidan setsesiya va radikal separatizmni o‘ziga maqsad qilib belgilash qiyin kechadi. Mustaqillikka erishgan sobiq Sovet Ittifoqi tarkibidagi qardosh respublikalar Abxaziya, Janubiy Osetiya, Qorabog‘, Checheniston kabi tashqi chegaralarga egalar. Bunday chegaralarning yo‘qligi separatizm eskalatsiyasini cheklab qo‘yadi va tinch konstitutsiyaviy yechimlar qidirishni rag‘batlantiradi (Tatariston, Boshqirdiston).

7. Mojaro chiqishi ehtimoli katta mintaqaning geosiyosiy ahamiyati o‘zgarishi (o‘sishi). Mojaro tomonlari geosiyosiy omildan o‘z maqsadlariga erishishda va mojaro negizini kengaytirishda asosiy vosita sifatida keng foydalanmoqda. Jahon hamjamiyati qo‘llab-quvvatlashi milliy mojaroda eng muhim resurslardan biriga, separatizmga asoslangan mojarolarda esa eng muhim resursga aylanmoqda<sup>1</sup>.

## **2. J.Rotshild, E.Gellner nazariyalarida etnosiyosiy mojarolarning xususiyatlari, S. Xatingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nazariyasi, Gurrning deprivatsiya nazariyasi**

Olim jamiyatda modernizatsiyaning etnik stratifikatsiya rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirinio‘rganibkelgan.<sup>2</sup> U etnik guruhlar va davlatlarga etnosiyosiy mojarolarning subyektlari (aktorlar) sifatida qarashni birinchi bo‘lib taklif etgan. Rotshild 1960-1970-yillarda G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan mamlakatlaridagi etnosiyosiy faollikni tahlil qilgan. O‘tkazilgan tahlil unga etnik millatchilik va etnosiyosiy faollik notekis kechgan iqtisodiy va siyosiy modernizatsiya jarayonlari oqibati, degan xulosaga kelishga asos bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, zamonaviy davlatning siyosiy tuzilmasi va uning hududiy chegaralari milliy muammolar tufayli xavf ostida qolishiga, ularning qonuniyligiga shubha tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Rotshildning fikriga ko‘ra, guruh maqomining o‘zgarishi (masalan, ozchilikni tashkil etadigan millat vakillarining o‘sib borayotgan ijtimoiy

<sup>1</sup> Политическая конфликтология (под ред. С.Ланцова). – Питер, 2008. – С.70-71.

<sup>2</sup> Аклаев А.Р. Этно-политическая конфликтология. Анализ и менеджмент. – М.: Дело, 2005. – С.218

harakatchanligi oqibatida) etnik jamoalar siyosiyashib borishiga va etnosiyosiy mojarov vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda, deb ta’kidlash uchun, avvalambor, etnik munosabatlarning turli tarkibiy qismlarini, ya’ni etnik guruhlar o‘rtasidagi demografik, ijtimoiy va siyosiy muvozanatni va bu muvozanat modellari qanday qilib etnik guruhlar foydalanishlari mumkin bo‘lgan resurslar va siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari o‘rtasidagi farqni belgilashi mumkinligini tushunish kerak.

Rotshild iqtisodiy modernizatsiya va siyosiy rivojlanish etnik guruhlar siyosiy tus olishi uchun zarur va yetarli sharoitlarni teng darajada ta’milnamayapti degan xulosaga kelgan. Etnosiyosiy harakat boshlanishi uchun yetarli shart-sharoitlar milliy guruhlar foydalana oladigan iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy resurslarga bog‘liq. U zamonaviy jamiyatda guruhlarning etnosiyosiy faolligiga ta’sir etuvchi bir qator tarkibiy qismlar mavjudligini ta’kidlagan.

Ernst Gellner - ingliz jamiyatshunos olimi, konstruktiv paradigma rivojiga eng katta hissa qo‘sghan faylasuf, “Millatlar va millatchilik” (1983-y.) ilmiy asari muallifi. Millatlar paydo bo‘lmaydi, shakllanmaydi, ular davlat tomonidan olib boriladigan muayyan siyosat -millatchilik siyosati yordamida yaratiladi. Millatchilik nima o‘zi? Gellner uning uchta jihatini ko‘rsatadi: 1) millatchilik –siyosiy prinsip bo‘lib, uning mohiyati shundaki, siyosiy va milliy birliklar bir-biriga mos kelishi kerak; 2) millatchilik – siyosiy qonunchilik nazariyasi, uning mohiyati davlat chegaralari hukmdorlarni asosiy aholidan ajratib qo‘ymasligi kerakligidan iborat. 3) ushbu prinsipning buzilishi yoki amalga oshirilishi oqibatida yuzaga keladigan milliy g‘azab yoki qanoatlanish tuyg‘usi. Millatchilik harakat esa – bu tuyg‘u bilan ruhlantirilgan harakatdir<sup>1</sup>. Gellner millatchilikni umuman olganda, ideal tip, deb ifodalaydi. Bunda millat asosiy voqyelik emas, uni anglash, o‘xshashlik, birdamlik va o‘zaro ta’sir rishtalari bilan, umumiylilik bilan bog‘lash talab etilmaydi, uning qa’rida o‘zgacha intilishlar, hissiyotlar bilan yo‘g‘rilgan millatchilik shakllanadi. U jamiyatning zamonaviy industrial tuzilmasi talab etadigan millatchilik va siyosat faoliyati natijasidir. Qaysidir ma’noda millatlar ham, millatchilik ham o‘ziga xos alohida tabiatdan, mustaqillikdan, faoliyat va intilishning ichki motivlaridan mahrum, ular industriallashtirishning alohida shaklini, uni namoyish etish usullarini ifodalaydi.

Gellner milliy adovat va yotsirshga asoslangan millatchilikning turlarini ta’riflaydi. Birinchi turi –davlat ichidagi millatchilik. Bu muhojirlarning millatchiligi, ular hokimiyatni qo‘lga kirta olmaydilar. Demak, jamiyatning madaniyati va urf-odatlaridan, ta’limdan to‘laqonli foydalana olmaydilar.

---

<sup>1</sup>Gellner E. Nationsandnationalism. Ithaca. Oxford, 1983. – C. 24.

Davlat ichidagi kam sonli xalqlar, etnik guruhlar va boshqa madaniyatlarning millatchiligi ham shu kabi millatchilik his-tuyg‘ulari va bid'ati bilan bog‘liq. Bu tuyg‘ular ular kansitilgan kamchilik toifasiga kirib qolganlarida, assimilyatsiya muammosi bilan to‘qnashganlarida vujudga keladi. Millatchilikning ikkinchi turi – G‘arb xalqlari va Sharq xalqlarining millatchiligi. Bu millatchilik yaxshi rivojlanmagan mamlakatlar jahondagi iqtisodiy, texnologik, madaniy munosabatlar va jarayonlarda tengsizlik bilan to‘qnashganlarida yuzaga keladi. G‘arbiy Yevropa xalqlari millatchiligi ham millatchilikning shu turiga mansubdir. Nihoyat, uchinchi turi – yahudiylar, arman, yunon va boshqa diasporalarning millatchiligi<sup>1</sup>.

Samuel Xantington – amerikalik siyosatshunos, Garvard universiteti Strategik tadqiqotlar instituti direktori, solishtirma siyosatshunoslik va tranzitologiya, xalqaro munosabatlar bo‘yicha mutaxassis. U o‘zining taniqli “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” tadqiqotida shunday yozadi: “Mening o‘ylashimcha, yangidan shakllanayotgan dunyoda mojarolarining asosiy manbai na mafkura, na iqtisodiyot bo‘ladi. Insoniyatni ajratuvchi muhim chegaralar va mojarolarning asosiy manbalari madaniyat bilan bog‘liq bo‘ladi.

Millat-davlat xalqaro ishlarda asosiy rol o‘ynovchi bo‘lib qoladi, ammo global siyosatdagi eng ahamiyatli mojarolar turli tamaddunlarga tegishli millatlar va guruhlar o‘rtasida kechadi.

Tamaddunlar to‘qnashuvi dunyo siyosatining ustunlik qiluvchi omiliga aylanadi. Tamaddunlar o‘rtasidagi siniq chiziq esa bo‘lajak frontlar o‘tadigan chiziq bo‘ladi. Tamaddunlar o‘rtasidagi bo‘lajak mojaro – zamonaviy dunyodagi global mojarolar evolyutsiyasining yakunlovchi bosqichidir<sup>2</sup>.

Muallif tamaddunlar tabiatini o‘rganadi va uni qardosh madaniyat, til, tarix, din mavjudligi bilan belgilanadigan keng miqyosli umumiylig deb hisoblaydi. U yetta-sakkizta yirik tamaddunlarni alohida ajratadi (G‘arb, konfutsian, yapon, islom, induizm, pravoslav-slavyan, Lotin Amerikasi va, ehtimol, Afrika tamaddunlari). U savol qo‘yadi - nima uchun tamaddunlar to‘qnashuvi muqarrar? Tamaddunlar o‘rtasidagi farq yaqqol ko‘zga tashlanadi varealdir.

Bu farq juda chuqur va yuz yillar davomida shakllangan, u mafkuraviy va siyosiy farqqa nisbatan ancha ahamiyatli. Albatta, farq doim ham mojaroga olib kelavermaydi, mojaro esa doim ham zo‘ravonlik degani emas. Ammo yuz yillar davomida eng qonli mojarolar aynan tamaddunlar o‘rtasidagi farqlardan kelib chiqqan. Shu bilan birga turli tamaddunlarga tegishli xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa tobora kuchayib bormoqda.

<sup>1</sup>Мцаканян М.О. Национализм и глобализм. Национальная жизнь в современном мире. Анкил, 2008. – С.197.

<sup>2</sup>Политология. Хрестоматия. – М.: Гардарики, 2000. – С. 754.

Tamaddunlar vakillari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa ularning madaniy ongini mustahkamlamoqda, bu esa, o‘z navbatida, tarixan shakllangan, yoki tarixan shakllangan deb tushuniladigan noittifoqlik va adovatni kuchaytirmoqda... Bunda butun dunyoda kechayotgan iqtisodiy modernizatsiya va ijtimoiy o‘zgarish jarayonlari odamlarning o‘z yashash joylari bilan an’anaviy identifikasiyasini yo‘q qilib yubormoqda, bir vaqtning o‘zida millat-davlatning identifikasiya manbai sifatidagi roli ham susaymoqda. Buning natijasida hosil bo‘lgan bo‘shliq ko‘p hollarda din bilan, fundamental harakat shaklidagi din bilan to‘lmoqda. Bunday harakatlar nafaqat islomda, balki g‘arb nasroniylik dinida, yahudolik dinida, buddizm, induizmda ham yuzaga kelmoqda. Ko‘plab mamlakatlar va konfessiyalarda ma'lumotli yoshlar fundamentalizm tarafiga o‘tmoqda.

Xantingtonning fikricha, iqtisodiy va siyosiy o‘ziga xoslik va farqqa nisbatan madaniy o‘ziga xoslik va farq o‘zgarishlarga moyil emas. Demak, ularni bartaraf etish yoki murosaga keltirish qiyinroq masala. Sinfiy va mafkuraviy mojarolarda asosiy savol quyidagicha qo‘yilgan “Sen kim tomondasan?” va inson kim tomonida ekanligini o‘zi tanlagan, tanlagan yo‘lini o‘zgartirolgan. Tamaddunlar to‘qnashuvida savol boshqacha qo‘yiladi: “Sen kimsan?”. Inson kim bo‘lsa, o‘shandoq tug‘ilgan va buni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Bosniya, Kavkaz, Sudan tajribasidan ko‘ramizki, bu savolga noto‘g‘ri javob berilsa, peshonadan o‘q yeish mumkin. Din esa insonlarni milliy mansublikdan ko‘ra ham qat‘yroq ajratadi. Inson yarim fransuz va yarim arab bo‘lishi, hatto, ikkala davlat fuqarosi bo‘lishi ham mumkin. Yarim katolik va yarim musulmon bo‘lish mutlaqo boshqa va murakkab masala<sup>1</sup>. O‘z nazariyasida muallif sinish chiziqlarini, ularning rivojlanishi va o‘zgarishi xususiyatlarini ko‘rsatib bergen. “Yevropada eng muhim ajratuvchi chiziq g‘arbiy nasroniylikning sharqiy chizig‘i bo‘lib, u 1500 yilga qadar shakllangan. U Rossiya va Finlyandiya o‘rtasidagi, Boltiqbo‘yi mamlakatlari va Rossiya o‘rtasidagi hozirgi chegaralar bo‘ylab Belorussiya va Ukrainiani kesib o‘tadi, g‘arb tomon burilib, Transilvaniyani Ruminiyaning qolgan qismidan ajratadi, keyin Yugoslaviya bo‘ylab o‘tib, hozirda Xorvatiya va Sloveniyani Yugoslaviyaning qolgan qismidan ajratib turuvchi chiziq ustidan deyarli aniq o‘tadi. Bolqonda esa bu chiziq Gabsburglar va Usmoniylar imperiyasi o‘rtasidagi tarixiy chegara ustidan o‘tadi... Mana 13 asrdan beri G‘arb va Islom tamadduni o‘rtasidagi sinish chizig‘i bo‘ylab vujudga kelgan mojaro davom etib kelmoqda... Bu mojarolar Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyo oralig‘idagi makonda yarim oy shaklida yotgan islom dunyosi chegarasida ayniqsa avjiga chiqadi.”<sup>2</sup>. Aynan ana shu

<sup>1</sup> Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? Полис, 1994. – №1. – С.33-48.

<sup>2</sup> Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? Полис, 1994. – №1. – С.42.

“sinish chiziqlarida” bo‘lajak mojarolar ana shu kuzatilishini muallif konseptual ta’kidlab o‘tadi.

Xantington inobatga olinishi kerak bo‘lgan bir qator omillarni ko‘rsatadi. Bu, birinchidan, G‘arb mamlakatlari va boshqa mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatning tarixiy xususiyati; ikkinchidan, iqtisodiy jihat bo‘lib, unda tamaddunlarning bozor uchun kurashi va raqobati namoyon bo‘ladi; uchinchidan, demografik omil, va bu, muallifning fikricha, eng muhim omil, aynan shu omil bo‘lajak taraqqiyotni belgilaydi, “...arab mamlakatlarida, ayniqsa, shimoliy Afrikada aholi soni keskin ko‘payishi G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga emigratsiyani kuchaytirmoqda. O‘z navbatida, Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi chegara asta-sekin yo‘qolib berayotgan bir paytda yuz berayotgan emigrantlar oqib kelishi keskin siyosiy ziddiyatga sabab bo‘lmoqda, irqchilik kayfiyatları kuchaymoqda va zo‘ravonlik qilish, kuch ishlatish hollari ko‘paymoqda”<sup>1</sup>.

Olimning fikricha, zo‘ravonlik hamda zo‘ravonlik darajasi o‘zgarib turadi va bir qator sabablarga bog‘liq bo‘ladi. Xantington bo‘lajak mojarolar G‘arb tamadduni mamlakatlari va boshqa, g‘arb bo‘lмаган mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyat tufayli vujudga keladi, deb hisoblaydi va G‘arb uchun ba‘zi tavsiyalar beradi. “G‘arbdan boshqa tamaddunlarning fundamental diniy va falsafiy asoslarini yanada chuqurroq anglash talab etiladi. G‘arb ushbu tamaddun vakillari o‘z manfaatlarini qanday tasavvur qilishlarini tushunishi kerak. G‘arb va boshqa tamaddunlar o‘rtasida o‘xshashlik, umumiylit elementlarini topish kerak. Chunki yaqin kelajakda yagona universal tamaddun shakllanmaydi. Aksincha, dunyo bir-biriga o‘xshamaydigan tamaddunlardan iborat bo‘ladi va ularning har biri qolganlari bilan murosada yashashni o‘rganishi kerak bo‘ladi”<sup>2</sup>.

Ichki siyosiy rivojlanishda esa rivojlanayotgan mamlakatlarda zo‘ravonlik va beqarorlik sabablarini yashashga qodir siyosiy institatlarning rivojlanish darajasi bilan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi farqdan qidirish kerak, deb hisoblaydi Xantington. Sotsiologlar tomonidan ishlab chiqilgan jamiyatni uchta darajaga, ya’ni an’anaviy, o‘tish va zamonaviy darajalarga ajratish prinsipidan kelib chiqib, Xantington birinchi, ya’ni an’anaviy va oxirgi, ya’ni zamonaviy darajalar o‘zlarining siyosiy institatlari kuchi tufayli siyosiy zo‘ravonlikka kamroq moyillar, deb hisoblaydi. O‘tish bosqichidagi jamiyatlarida esa, aksincha, siyosiy harakatlarning destruktiv shakllari namoyon etilishi ehtimoli katta. Revolyutsion to‘ntarishlar, putchlar, qo‘zg‘olonlar, partizanlik urushlari va terrorizm bu mamlakatlardagi siyosiy taraqqiyot uchun odatiy hol.

---

<sup>1</sup> Политология. Хрестоматия. – М.: Гардарики, 2000. – С. 763.

<sup>2</sup> Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? Полис. 1994. – №1. – С.48.

Xantington kambag‘allik tezisini inkor etadi. Bu tezisga ko‘ra kambag‘allik va qoloqlik zo‘ravonlik va beqarorlikni keltirib chiqaradi. Uning fikricha, qisqa muddatda boyish va zamonaviylashishga intilish modernizatsiyalashayotgan jamiyatlardagi ijtimoiy guruhlarga xos. Ana shu intilish siyosiy hayotning kuch ishlatiladigan shakllarini vujudga keltiradi. Tartibsizlik va ekstremizm jamiyat va mamlakatning kambag‘al qismiga nisbatan o‘ziga to‘q qismiga ko‘proq xos. Shu sababdan iqtisodiy o‘sishning ba’zi yaqqol belgilari siyosiy beqarorlik vujudga kelganda kuzatiladi.

Modernizatsiyalashayotgan jamiyatlarda urbanizatsiya jarayonlari, ommaviy ta‘lim o‘sishi va OAV faoliyati individni o‘zining o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun yangidan-yangi usullarini qidirishga undaydi. Ammo o‘tish davrida turgan jamiyatning institutsional imkoniyatlari bu ehtiyojlarni qondira olmaydi. Natijada intilish, orzu-havas bilan siyosiy institutlar darajasi o‘rtasida uzilish, nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bu uzilish ijtimoiy frustratsiya va norozilikni keltirib chiqaradi. Bu esa, o‘z navbatida, hukumatga guruh bo‘lib talab qo‘yish, siyosiy mobilizatsiya kuchayishi va siyosiy faollikning turli shakllari avjiga olishiga olib keladi. Ulardan ko‘zlangan maqsad esa ilg‘or surilgan talablar bajarilishiga erishish uchun siyosiy bosim o‘tkazish bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mojaro bilan tugaydi”<sup>1</sup>.

**T.Gurrning nisbiy deprivatsiya nazariyasi.** Guruh kutgan qadriyatlar va uning amalga oshmagan qadriyat imkoniyatlari o‘rtasida farq hosil bo‘lgan taqdirda mojarolar kelib chiqadi. Kutilgan qadriyatlar hayotning zarur xususiyati va sharti, deb tushuniladi va odamlar o‘zlarini shu qadriyatlarga erishishga haqli hisoblaydilar. Amalga oshmagan qadriyat imkoniyatlari hayotning zarur xususiyati va sharti, deb hisoblanadi va inson ularga erishish hamda ularni o‘z ixtiyoridagi barcha ijtimoiy vositalar bilan saqlab qolishga intilish mumkin deb o‘yaydi. Vujudga keladigan deprivatsion-induksiyalashgan qanoatsizlanish siyosiy faollikni boshlashga asosiy turki bo‘ladi. Ommaviy norozilik o‘sishi dastlabki sabab hisoblanib, keyinchalik u siyosiy tus oladi va mojaro keskinlashgan sharoitda siyosiy zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin<sup>2</sup>.

T.Gurr 1945-yildan to 1989-yilgacha bo‘lgan davrda etnik guruhlarning siyosiy safarbarligini umumlashtirdi va qiyosiy tahlil qildi. Gurrning xulosalariga ko‘ra bu shartlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) ustun guruhlar tomonidan kam sonli etnik guruhlarga nisbatan diskriminatsion munosabat (kamsitish); 2) etnik guruhlar o‘rtasida yangi davlatda hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun kurash; 3) tashqaridan turib etnosiyosiy aktivizmni yuqtirish effekti; 4) safarbar bo‘lgan etnik kuchni yoki norozilik,

<sup>1</sup>Аклаев А.Р. Этно-политическая конфликтология. Анализ и менеджмент. – М.: Дело, 2005. – С.211-212.

<sup>2</sup>Gurr T. R. Why Men Rebel. Princeton: Princeton University press, 1970.

yoki qo‘zg‘olon tomon yo‘naltiradigan davlat hokimiyati va siyosati modellari. Gurr ushbu omillarni etno-siyosiy harakat umumiylar nazariyasiga birlashtiradi. Bu nazariyani keng ko‘lamli vaziyatlarga qo‘llash mumkin. Mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy farqdan norozilik va umumiylar bir-biriga o‘xshashlik hissi etnik guruhni safarbar qilish hamda shu guruh yetakchilari ilg‘or suradigan talablar turini aniqlash uchun zamin tayyorlaydi.

Gurr nazariyasi<sup>1</sup> kam sonli etnik ozchilik guruhlarining kollektiv siyosiy harakatlari sabab mexanizmlari va namoyon bo‘lish shakllarini (zo‘ravonlik qilmasdan norozilik bildirish, zo‘ravonlik qilib norozilik bildirish va etnik qo‘zg‘olon) to‘rtta omil ishi natijasi deb ifodalaydi: a) etnik norozilik shakllanishi uchun dastlabki shart-sharoit va etnosiyosiy harakat salohiyati; b) etnik guruhlarning siyosiy xatti-harakatlarni boshlash imkoniyatlari; d) global jarayonlar va xalqaro miqyosdagi omillarning etnik norozilik kuchayishiga ta’siri; e) institutsional omillarning etnosiyosiy xatti-harakatlar strategiyasini tanlashga ta’siri.

Etnik ozchilikning norozilik hissi va ushbu norozilik asosida guruhlarning siyosiy harakatlari salohiyati to‘rtta asosiy dastlabki shart-sharoit (yoki o‘zgaruvchan omil) ta’siri ostida shakllanadi va ular etnik ozchilik guruhining ijtimoiy va siyosiy tarixi bilan bog‘liq: 1) guruh imtiyozli maqomga ega emasligini anglash darajasi; 2) etnik o‘zini o‘zi anglash siyosiy jadallahishi darajasi; 3) guruh ichida hamjihatlik va etnik safarbarlik darajasi; 4) ustun guruh tomonidan olib boriladigan nazorat repressivliligi darajasi.

### **3. Etnosiyosiy mojaroni tahlil qilishdagi nazariy yondashuvlar**

Rossiya tadqiqotchisi A.R. Aklayev etnosiyosiy mojaroni tahlil qilishda uchta asosiy metodologik yonlashuvni alohida ajratadi - primordializm, instrumentalizm, konstruktivizm<sup>2</sup>.

Primordializm nuqtai nazaridan etnik mansublik haqiqatda mavjud narsa, u tabiatda va jamiyatda obyektiv asosga ega. Shunday ekan, jamoaning etnik xususiyatlari tug‘ma va avloddan avlodga berib borish orqali ko‘payadigan xususiyat, deb qabul qilinadi.

Primordialistik konsepsiyalarga ko‘ra odamlarning bir xil bo‘lishga va o‘zini o‘zi hurmat qilishga bo‘lgan fundamental ehtiyojlari faqat bir-biriga o‘xshashlar jamiyatni amalga oshishi mumkin va shu tariqa ular bir xillik o‘zlikdan ko‘ra muhimligini tushunadilar. Etnik bir xillik “men”ning

---

<sup>1</sup> Аклаев А.Р. Этно-политическая конфликтология. Анализ и менеджмент. – М., Дело, 2005. – С.230.

<sup>2</sup>Аклаев А.Р. Этно-политическая конфликтология.– М.: Дело, 2005. С. 59-71.

uzilmas psixologik bir qismi sifatida, uning har qanday o‘zgarishi esa g‘ayrioddiy va zo‘raki holat sifatida qabul qilinadi.

Primordialistlarning fikricha “tabiiy” jamiyat sifatida etnik guruhga mansublik, yoki millat milliy davlat va sinfli tuzumdan oldin vujudga keladi va ulardan ustun keladi. Biron muddat davomida etnik bir xillik yo‘q qilinishi yoki latent holatda bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, u etnik guruhning doimiy va fundamental xususiyatiligidicha qoladi. Shunday ekan, har qanday etnik harakatning maqsadi va vazifasi azaldan mavjud bo‘lgan etnik tuyg‘ularni “uyg‘otish” va uning atrofida kollektiv siyosiy ongi vujudga keltirishdan iborat. Xullas, Entoni Smitning fikricha, etnik mojaroni etnik mansublik hissi keltirib chiqaradi va “uzoq kelajakda ehtiyojlari qanoatlantirilmagan etnik millatchilik tufayli yuz berishi mumkin bo‘lgan turli jarayonlardan qochib qutulib bo‘lmaydi”<sup>1</sup>.

Primordialistlar etnik mansublik muqarrar mojaro keltirib chiqaradi, deb hisoblaydilar. Etnik mojaro – noyob hodisa bo‘lib, ijtimoiy mojaroning boshqa turlaridan ajralib turadi, etnik mojaro – etnik, ya’ni millatlar o‘rtasidagi farqning tabiiy oqibatidir, undan keyin uni maxsus tushuntirishga hojat yo‘q. Ularning fikricha, etnik mojaroni ilmiy tahlil qilib bo‘lmaydi va uni hal qilishning muayyan usullari va mexanizmlarini ishlab chiqib ham bo‘lmaydi.

Primordializm tanqidchilari sotsio-biologik yoki madaniy-tarixiy determinizmga berilgan o‘rinsiz urg‘uni tanqid ostiga oladilar. Primordializm yangi bir xillik namoyon bo‘lishi yoki eskisi shaklan o‘zgarishini tushuntirib bera olmaydi. Primordialistlar etnik mojaro nega boshqa yerda emas, aynan shu yerda bunchalik keskin shaklda namoyon bo‘ladi, degan savolga javob bera olmaydilar. Uzoq davrlar davomida etnik guruhga mansublik guruhning asosiy siyosiy xususiyati bo‘lmaganligini qanday tushunish mumkin?

**Instrumentalistik paradigma** etnik guruhga mansublikni tabiiy “borliq” sifatida emas, mojaroda foydalanish mumkin bo‘lgan siyosiy instrument sifatida talqin qiladi. Guruh o‘zini nima uchun etnik guruh deb biladi? Chunki etnik guruh a’zolari buning orqasida siyosiy manfaat yotganini ko‘radilar, aslo bir-birlari orasida qandaydir anglab bo‘lmaydigan, tug‘ma psixologik aloqa bo‘lgani uchun emas. Etnik mansublikni instrumentalistlar individning manfaatli guruhga mansubligi yoki biron partiyaga mansubligi bilan tenglashtiradilar va shu sababdan etnik mansublik siyosiy harakat vositasi sifatida ijtimoiy aloqaning boshqa turlaridan katta farq qilmaydi, deb hisoblaydilar. Instrumentalizm ijtimoiy-psixologik nazariyalarga tayanadi. Bu nazariyalar etnik mansublikni begonalikni yengish, boy berilgan kollektiv

---

<sup>1</sup> Smith A. The ethnic sources of nationalism... NJ: Princeton University Press, 1993. – P.27-42.

g‘ururni tiklash, ijtimoiy yaralarni davolash vositasi, deb talqin qiladi. Etnik mansublikdan foydalanadigan siyosiy yetakchilar bir etnik guruhga mansub kishilarni ko‘plab safarbar qilishga erishadilar, buni jamiyatda sinfiy aloqa sust bo‘lganda, ayniqsa, yaqqol ko‘rish mumkin.

Primordializmning tanqidchilari ijtimoiy-biologik yoki madaniy-tarixiy determinizim tomoniga oqlab bo‘lmaydigan e’tiboriga qaratmoqda. Primordializm yangi o‘xshashligining paydo bo‘lishini yoki eskisini transformatsiya doktrinasini tushuntirib berolmaydi. Primordialistlar nima uchun etnik mojarolar u yerda emas, xuddi shu yerda o‘tkir shakllariga ega bo‘ladi? Qanaqasiga uzoq muddat ichida etniklik guruhning siyosiy tavfsifi bo‘limganligi faktini tushuntirmoq mumkin?

Etnik mansublik instrument, individlar, guruhlar va hokimiyat tepasidagilar tomonidan o‘z maqsadiga erishish yo‘lida foydalaniladigan yaratiladigan siyosiy resurs sifatida talqin qilinadi. Primordialistlardan farqli o‘laroq instrumentalistlar etnik bir xillikni muqim emas, balki o‘zgarib turadigan va vaziyatga bog‘liq xususiyat, deb biladilar. U tarkibiy kontekst bo‘lib, o‘zgaruvchan omillar, shu jumladan, siyosiy yetakchilarning etnik afsonalardan foydalanish qobiliyati ta’siri ostida o‘zgaradi.

“Madaniy bir xillikni primordial (tug‘ma) bir xillik sifatida emas, balki ko‘proq yangi va ko‘lami keng bir xillik sifatida ifodalash zarur... Bu bir xillik ma'lum shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, bu shart-sharoitlarda madaniy xususiyat siyosiy dolzarb xususiyatga aylanadi. Ko‘p hollarda bir xillik boshqa ijtimoiy rollar bilan bog‘lanib ketadi”<sup>1</sup>. Shunday qilib, etnik mansublik – guruhning moddiy, iqtisodiy va hokimiyatga egalik qilish manfaatlarining o‘ziga xos niqobi. Etnik mojaro – raqib guruhlar o‘rtasidagi mojaroli o‘zaro munosabatlar namoyon bo‘lishining bir shakli bo‘lib, u siyosat borasidagi boshqa (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy) mojarolar uchun niqob vazifasini o‘taydi. Mojaro resurslar, hokimiyat, ijtimoiy maqom adolatsiz va turlicha taqsimlanganda namoyon bo‘ladi

Bu yondashuv tanqidchilari etnik mansublikning siyosiy vosita sifatidagi samaradorligi nafaqat yetakchilarning manfaatlariga, balki individlarning o‘z etnik mansubligini emotsiyonal qabul qilishi va anglashiga bog‘liqligini qayd etadilar. Insonlarning o‘z etnik guruhining utilitar manfaatlari yo‘lida qurban bo‘lishga va hamma narsadan mahrum bo‘lishga tayyorligini faqatgina “oqilona tanlov” bilan tushuntirib bo‘lmaydi.

**Konstruktivistcha yondashuv.** Etnik mansublik va etnik mojarolarga konstruktivistlar nuqtai nazaridan berilgan tavsif primordializm va instrumentalizm o‘rtasidan o‘rin olgan. Konstruktivism birinchi ikkita yo‘nalishning nuqsonlarini kelishtirishga harakat qiladi. Konstruktivism etnik

---

<sup>1</sup> Young C. The Politics of cultural Pluralism. University of Wisconsin Press, 1976.

mansublik individning xususiyati emas, balki ijtimoiy hodisa ekanini ta'kidlaydi. “Boshqa konsepsiyalarga nisbatan konstruktivizmning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u etnos va etnik mansublik tushunchalari tavsifiga qo‘sishimcha belgilar kiritmaydi, balki bunday ro‘yxatga “ushbu belgilar to‘g‘risida tasavvurni” kiritadi”<sup>1</sup>. Etnik mansublik – bu etnik guruh vakillari tabiiy rishtalar, yagona madaniyat turi va g‘oyasi yoki umumiy shajara va umumiy tarix bilan bog‘liq, degan **xayoliy umumiylilikni** ijtimoiy shakllantirish jarayonidir. Bu belgilarning “etnik mansublik”, deb ataladigan butunlikka qanday birlashishi ko‘plab ijtimoiy omillarga, avvalambor, davr va ayrim odamlar yaratadigan “etnik mansublikka” bo‘lgan talabga bog‘liq.

Instrumentalistlar kabi konstruktivistlar ham yetakchilarning etnik safarbarlikni amalga oshirishdagi hal qiluvchi roliga alohida e’tibor beradilar. Yetakchilar aslo madaniy mafkurani yoki “xalq irodasi”ni ifodlamaydilar, balki siyosiy maqsadlarni ko‘zlaydilar. Etnik bir xillik – guruh borligi to‘g‘risida doim o‘zgarib turadigan tasavvurgina emas, balki mazkur tasavvur ustidan nazorat, definatsiya, guruhning asosiy xususiyatlari va qadriyatlarini tashkil etadigan narsalar uchun kurash hamdir<sup>2</sup>.

Konstruktivistlar tomonidan etnik mojaroga berilgan tavsif instrumentalistlarning yondashuviga o‘xshaydi: etnik mansublikning o‘zi mojaro keltirib chiqarmaydi. Mojaro kelib chiqishiga etnik mansublikni safarbar qiluvchi va undan o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida siyosiy resurs sifatida foydalanuvchi yetakchilarning xatti-harakatlari sababchi bo‘ladi. Instrumentalistlardan farqli o‘laroq konstruktivistlar ma’lum mojarolar ijtimoiy tizimdagi patologik (aqlga zid) holat sababli kelib chiqishi mumkinligini qayd etadilarki, bu holatni elita nazorat qila olmaydi. Ammo mazkur holatda mojaro manbai individlarning “tor aql bilan tankangan” xatti-harakatlarida yoki etnik farqlar mavjud degan “primordial fakt”da ham emas, balki ijtimoiy tuzum turida yashiringan, aynan shu ijtimoiy tuzumning zo‘raki mojaro keltirib chiqarishida<sup>3</sup>.

### **Qaytarish uchun savollar:**

1. Etnosiyosiy mojarolarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. J.Rotshild, E.Gellner, S.Xantington, T.Gurr nazariyalaridagi etnosiyosiy mojarolarning o‘ziga xos tomonlarini qisqacha ifodalab bering.
3. Etnosiyosiy mojarolarni tahlil qilishda qanday asosiy metodologik yondashuvlar mavjud (primordializm, instrumentalizm, konstruktivism).

---

<sup>1</sup> Тицков В.А. Очерки теории политик и этничности в России. – М., 1997.

<sup>2</sup> Тицков В.А О феномене этничности. Этнографическое обозрение. 1997. – №3.

<sup>3</sup> Rothschild J, Groth A. Pathological dimensions of domestic and international ethnicity. Political Science Quarterly. 1995 Vol.1 110. №1. – P. 69-83.

### **3. MOJAROLI MUNOSABATLAR DINAMIKASI VA TUZILMASI**

#### **(Falastin-Isroil mojarosi misolida)**

- 1.Mojaro tuzilmasining sxematik ifodasi. Falastin-Isroil mojarosi dinamikasi va tuzilmasi.
- 2.Arab-Isroil mojarosida muzokaralar jarayoni xususiyati.
- 3.Yo.Arofat va A.Sharon siyosat maydonidan ketganidan so‘ng yuzaga kelgan vaziyat va uni tartibga solish istiqbollari.

#### **1. Mojaro tuzilmasining sxematik ifodasi. Falastin-Isroil mojarosi dinamikasi va tuzilmasi**

Mojaroshunoslik paradigmasi dastlabki rivojlanish bosqichidaligida Amerika mojaroshunoslik fani, mojaroli munosabatlarni klassik sxema bo‘yicha o‘rgangan. Mojaro ishtirokchilari A taraf va B tarafga bo‘lingan. Bu yondashuvning kamchiligi shundaki, unda yetaricha muvozanatga ega guruhlarning mojaroli munosabatlari o‘rganilgan, aslida bunday mojarolar ko‘p emas, shuning uchun bu model haqiqatdan yiroq.

Mojaroli munosabatlar uchburchagini aks ettiruvchi boshqa sxema – J.P. Liderak modeli. Masalan, bu model asosiy mualliflar o‘rtasidagi, mualliflar va mojaroga faol ta’sir ko‘rsatuvchi taraflar o‘rtasidagi, asosiy ishtirokchilar va asosiy ishtirokchilardan tashkil topgan taraflar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiradi. Bu sxemaga kontekst ham qo‘shilgan. Kontekst – mojaroda ishtirok etmaydigan, ammo uni tartibga solishga harakat qiladigan ishtirokchilar yoki taraflarning munosabati. Bu yerda mojaroli munosabatlar ancha murakkab va bataffsil ko‘rsatilgan. Shu tariqa model “A taraf B tarafga qarshi” ko‘rinishli bir yoqlamalikdan yiroqlashadi va ko‘p yoqlamalikka o‘tadi.

Mojaroli munosabatlarning bevosita ishtirokchilari kim? Tavsiflar turlitumanligini inobatga olgan holda faqat ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz.

**Faol**– qarshi tomonlardan birining guruhi tarkibiga kiradi, qarama-qarshi guruh bilan kurashish nuqtayi nazaridan o‘zi tegishli bo‘lgan guruhning strategik holatini yaxshilashga harakat qiladi.

**Advokat**– qarshi turgan taraflarning birontasiga tegishli emas, ammo maslahatchi sifatida ish olib boradi va ko‘pincha bir taraf o‘z opponenti oldida o‘z maqsadiga erishishi uchun uni qo‘sishimcha resurslar bilan ta’minlaydi.

**Fitnachi** (hardliners) – mojaro to‘xtashidan manfaatdor bo‘lmagan, aksincha, iqtisodiy yoki mafkuraviy nuqtayi nazardan u davom etishidan manfaatdor bo‘lgan shaxs.

**Vositachi-mediator** – mojaro taraflarining birontasiga taalluqli bo‘limgan, shunga qaramay barcha guruhlar tomonidan qabul qilinadigan shaxs. Uning vazifasi kelishuvga kelishda yordamlashishdan iborat.

**Vositachi –fasilitator** – mojaro taraflarining vaziyatni yengillashtirish va yumshatish bo‘yicha aloqalarini ta'minlaydi.

**Mushakdor vositachi** – muammo kuch ishlatish usuli bilan hal etilishini ta'minlashga qodir shaxs; mojaro taraflariga ta'sir etishga yetarli darajada qudratga ega, yuridik vakolatlarga va qarorlarni ro‘yobga chiqarishga qodir tashkilotlarga tegishli bo‘lishi mumkin.

**Tadqiqotchi**– mojaroli vaziyat bilan bog‘liq masalalarga mustaqil baho beradi va muammoli masalalar yechimini topishga yordam berishi mumkin bo‘lgan texnik ma’lumotlarni ta'minaydi.

Xalqaro tashkilotlar, mojaro hududida joylashgan katta davlatlar, kichik davlatlar, shuningdek, xususiy shaxslar, nodavlat va ijtimoiy tashkilotlar mojaroda mediator (vositachi) bo‘lishlari mumkin. Mediatorlarning aralashuvi tufayli mojaro rivojlanishida burilish yasaladi va taraflar tinchlik sulhi tuzish jarayoniga kirishadilar.

Vositachilar ba'zida navbatma-navbat, ba'zida bir vaqtning o‘zida bir necha vazifalarni bajaradilar. Mediatorlarning uchta asosiy vazifasi bor: xolis xizmat, monitoring va arbitraj.

**Xolis xizmatlar.** Ko‘pincha bu vazifani bajarishni uchinchi taraf o‘z zimmasiga oladi. Uchinchi taraf mojaroni bartaraf etishda faol ishtirok etmaydi, ammo muzokara boshlash uchun qarama-qarshi tomonlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatishga yordam beradi (masalan, transport vositalari beradi, kuzatib boradi yoki uchrashuv uchun joy beradi). Uchinchi taraf sifatida qarama-qarshi taraflar bilan do‘stona aloqada bo‘lgan mamlakat, yoki urushayotgan taraflarni yarashtirish, muzokara jarayonining ehtimoldagi yo‘llarini o‘rganish va mojaroni hal etish uchun tashkil etilgan ishonchli xalqaro tashkilot ish yuritishi mumkin. Odatda, uchinchi taraf muzokara olib borayotganda yoki unda ishtirok etayotganda, “Xolis xizmatlar” to‘xtatiladi. “Xolis xizmatlar”ga quyidagi faoliyat turlari kiradi:

1) mojarolashayotgan taraflar o‘rtasida muloqotni yengillashtirishga qaratilgan norasmiy aloqalar va maslahatlar;

2) jahon hamjamiyatining xavotirlarini ommaviy tarzda yoki xususiy tarzda ifodalaydigan, shuningdek, mojaroni tinch yo‘l bilan hal etish usullarini qidirishda taraflarni qo‘llab-quvvatlaydigan diplomatik tadbirlar;

3) vositachilik, tinchlik o‘rnatish va insonparvarlik yordami ko‘rsatishni, o‘sib borayotgan iqtisodiy inqirozni yengillashtirish yoki tiklash ishlarida yordam ko‘rsatishni muvofiqlashtirish;

4) saylovlarda qonunda ko‘zda tutilgan muolajalarning buzish hollarini aniqlash yoki ushbu muolajalarga rioya qilinishini kuzatish (1979-yilda

AQSh va Eron o‘rtasidagi mojaroda Jazoir shunday vositachilik vazifasini bajargan).

Monitoring – ko‘pincha bu vazifa ham mediatorlar zimmasiga yuklatiladi yoki ular o‘z xohishlari bilan bu vazifani o‘z bo‘yinlariga oladilar. Monitoring ma'lum hudud yoki mintaqadagi mojaro jarayonlarini muntazam yoki uzoq vaqt kuzatish va yoritish asosida ma'lumot to‘plash hamda uni tartibga keltirishni ko‘zda tutadi. Monitoring, aksariyat hollarda, zararni oldini olish va qisqartirish doirasida manfaatdor bo‘lmagan chet kuzatuvchilar, masalan, BMT kuzatuvchilari, YEXHT missiyalari va shu kabi tashkilotlar tomonidan olib boriladi.

Arbitraj – bu uchinchi tarafning an'anaviy vazifasi, nizolarni bartaraf etishning an'anaviy usuli bo‘lib, mojarolashayotgan taraflar uzil-kesil qaror qabul qilish maqsadida o‘zлari istagan holda muayyan arbitrga yoki arbitraj sudiga murojaat etadilar. Arbitr – janjallashayotgan ikkala tarafdan kuchliroq va kombatantlarning o‘rtasida obro‘sni baland, qo‘lida hokimiyat bo‘lgan, qonuniy uchinchi taraf. Neytral arbitr chiqargan qaror ikkala taraf uchun majburiydir (batafsilroq qarang: М.М.Лебедев. Политическое урегулирование конфликтов. – М., 1999.).

Xolis xizmat ko‘rsatadigan mediator va fasilitatorlar odatda nima bilan shug‘ullanadilar? Tadqiqotchilar Z.Zameta va D.Fleysher taraflarni muzokaralarga tayyorlashda uchinchi tarafning eng o‘ziga xos vazifalarini ko‘rsatib o‘tganlar.

<b>Baholash texnikasi</b>	
<b>Mediatorlar</b>	<b>Fasilitatorlar</b>
Muammoni aniqlashda taraflarni torroq chegara tortishga undaydilar	Taraflarni mojaroni muvofiqlashtirish chegaralariga yaqinlashishga chorlaydilar.
Mojaroli munosabatlarni hal qilishda o‘z ssenariylarini rivojlantiradilar va taklif etadilar	Taraflarning munosabatlarini yengillashtiradilar va hal etish chegaralarini taklif etadilar
Natijani oldindan ko‘ra biladilar	Kelishuvlar natijalarini mustahkamlaydilar
Taraflar qo‘ygan qonuniy talablarning zaif va kuchli tomonlarini baholaydilar	Taraflarning manfaatlarini tadqiq etadilar
<b>Yengillashtiruvchi texnika</b>	
Taraflarga boshqa tarafning taklifini baholashda yordam beradilar	Taraflarga nizoni hal etish bo‘yicha takliflar chegaralarini rivojlantirishda yordam beradilar
Taraflarga saylovni rivojlantirishda yordam beradilar	Munozarani ma'lum manfaatlardan (biznes, ijtimoiy) chetga chiqarmaslikka yordam beradilar

## **2. Arab-Isroil mojarosida muzokaralar jarayoni xususiyati.**

Falastin – qadimiy tarixga ega hudud. Uning nomi qadimiy filistimlik xalq nomining grekcha talaffuzidan kelib chiqqan. Qadim zamonlardan bu yer Qadimiy Misr, Finikiya va Mesopotamiya davlatlari o‘rtasida betinim janglarga sabab bo‘lgan. Eramizdan oldingi taxminan XI asrda Falastin hududlariga qadimiy yahudiy qabilalari kirib kela boshlaganlar va o‘z davlatlarini (Isroil va Iudeya podsholigi) tashkil eta boshlaganlar.

Keyinchalik Falastin Axamoniylar davlatlari, Aleksandr Makedonskiy, Ptolemeylar va Salavqiy davlatlari tarkibiga kirgan, Rim va Vizantiya provinsiyasi bo‘lgan. Rimliklar hukmronligi davrida quvg‘inga uchragan yahudiy aholi O‘rta yer dengizi mintaqasining boshqa davlatlariga tarqalib ketgan, bir qismi mahalliy nasroniy xalqlarga qo‘silib ketgan<sup>1</sup>.

638-yilda Falastin arablar tomonidan bosib olingan, u Falastin nomi ostida halifalikning viloyatlaridan biriga aylangan (al Falastin). Aynan shu davrdan boshlab, mamlakat hududiga arab falohhlari ko‘chib kela boshlaganlar. Falastinda musulmonlar hukmronligi (salib yurishlari natijasida XI-XIII asrlarda Quddus qirolligini nasroniylar boshqargan davrlarini inobatga olmaganda) deyarli 1000 yil davom etgan. 1260-1516-yillarda Falastin – mamluklar boshqargan Misr viloyati bo‘lgan. 1516-yildan boshlab bu hudud Usmoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan, ma’lum vaqt Damashq viloyati, ma’lum davr Bayrut viloyati tarkibiga kirgan. 1874-yildan boshlab Usmoniylar imperiyasida Quddus mutasarifligi tashkil etiladi va bevosita Istanbuldan boshqariladi. 1892-yilda Turkiya 1882-yildan boshlab Misrga deyarli egalik qilgan Buyuk Britaniya tazyiqi ostida o‘z chegaralarini Suets kanalidan tortgan va 1906-yildan boshlab, chegarasini Rafax-Eylat chizig‘i bo‘ylab tortgan. 1917-yilda Birinchi Jahon urushi davomida Falastin ingлиз qo‘sirlari tomonidan bosib olinadi va Buyuk Britaniyaning mandat bilan idora qilinadigan hududiga aylanadi.

XX asr boshlarida o‘z tashkilotini tuzgan dunyo Yahudiylari hamjamiyati tomonidan 1897-yilda Bazelda o‘tkazilgan birinchi sionistlar kongressida Falastin yahudiy davlatchiligi o‘chog‘i sifatida e’tirof etila boshladi. Yahudiylarning Falastinga nisbatan alohida huquqlari borligini qayd etgan Britaniya bosh ministri Artur Balfuring (1917-y.) deklaratsiyasidan ilhomlangan sionistlar tashkiloti mamlakatni yahudiylashtirish bo‘yicha amaliy chorralarga o‘tadi. Ushbu barchaga ma’lum hujjatda shunday deyiladi: “Zoti oliylari hukumati Falastinda yahudiy xalqi uchun millat o‘chog‘i tashkil etishga xayrixohlik bildirdilar va biz bu maqsad ro‘yobga chiqishi uchun astoydil intilamiz. Binobarin, Falastindagi yahudiy bo‘lmagan jamoalarning fuqarolik yoki diniy huquqlariga zarar yetkazishi

---

<sup>1</sup> Дмитриев Е. Палестинская трагедия. – М.: Международные отношения, 1986. – С. 4.

mumkin bo‘lgan biron harakat sodir etilmasligi kerakligini yaxshi anglaymiz...”<sup>1</sup>.

Bu davrda yahudiy shaharlari va aholi maskanlari (1909-yilda Tel-Aviv, 1921-yilda Ramat-Gan, 1924-yilda Gersliya /Xersliya, 1929-yilda Natanya kabi shaharlar) qurilishi amalga oshiriladi, Yevropa, Amerika, Osiyo, Afrika mamlakatlaridan muhojir Yahudiylar oqimi keskin ortadi. Aholi ancha zich joylashgan, bo‘sh yer va suvdan qiyinchilik sezilayotgan Falastinda bu yerlarda deyarli bir yarim ming yillar avval joylashib, ildiz ortgan arablar va ko‘chib kelgan Yahudiylar o‘rtasida mojarolar kelib chiqa boshladи.

Falastinda alohida arab va yahudiy davlati yaratish fikri birinchi bo‘lib yigirmanchi asrning 30-yillarda paydo bo‘ldi. 1937-yilda Britaniya qirollik akademiyasi tomonidan mandat bo‘yicha boshqariladigan hududni uch qismga ajratish rejasi taklif etildi. Birinchi bo‘lak Falastinning shimoliy hududlari, shuningdek, Galileya va dengiz bo‘yining bir qismini o‘z ichiga olishi kerak va yahudiy davlatiga mo‘ljallangan bo‘lgan. Samariya, Negev, Iordan daryosining o‘ng sohilining janubiy qismini, shuningdek, hudud jihatdan ulardan ajralib qolgan Tel-Aviv va Yaffa shaharlarini o‘z ichiga olgan ikkinchi sektor Buyuk Britaniyaning mandat bilan boshqariladigan neytral hududi sifatida qolishi kerak edi. Bu sektorga muhim strategik ahamiyatga ega Iudeya tog‘lari bilan bir qatorda, musulmon, yahudiy va nasroniy madaniyatining muqaddas maskanlari: Quddus, Vifleyem (Beyt-Laxm), Nazaret (En-Nasira) kirgan edi. Bu reja amalga oshishiga Ikkinchi Jahon urushi xalaqit berdi.

1947-yilning noyabr oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Britaniyaning mandat hududida ikkita mustaqil davlat – arab va yahudiy davlati tashkil etish to‘g‘risida 181-sonli rezolyutsiya qabul qilingunga qadar yahudiylar Falastinda kamchilikni tashkil etgan. Inglizlar 1920-yilda San-Remo shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyada Falastinni boshqarish mandatini olgunlariga qadar mamlakat aholisining 90 foizini arablar tashkil etar edi. Yahudiylarning ommaviy ko‘chib kelishi (Britaniya boshqargan davrda Falastinga diaspora mamlakatlaridan deyarli 483 ming yahudiy ko‘chib keldi) mamlakat umumiyligi aholisi sonida Yahudiylarning salmog‘i uch baravar oshdi: 1947-yilning noyabr oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Falastinni bo‘lish va ikkita mustaqil davlat<sup>2</sup> tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilinganida, yahudiylar Falastin aholisining 31 foizini tashkil etar edi. Qayd etish lozimki, 1936-yilda arab qo‘zg‘oloni boshlanganidan so‘ng, mandat hokimiyati muhojir yahudiylar ko‘chib kelishiga katta cheklashlar joriy qildi. Bu cheklash, hatto, Xolokost yillarida ham bekor qilinmadи, hech

<sup>1</sup> Дмитриев Е. Палестинская трагедия. – М.: Международные отношения, 1986. – С. 9.

<sup>2</sup>Палестинская проблема. Документы ООН, международных организаций и конференций./Ред. Тимофеев И. В. – М., 1984.

bo‘lmasa, yumshatilmadi ham; shu yillarda millionlab yahudiylar nemis o‘lim lagerlarida nobud bo‘ldilar.

Jahon urushi tugagach, Falastinni bo‘lish masalasi yana ko‘tarildi. Yahudiy tashkilotlari dahshatli Xolokostni eslatib, zudlik bilan Isroil davlatini e’lon qilishni talab etar edilar. BMT tomonidan taklif etilgan Falastinni bo‘lish sxemasi urushdan oldingi mintaqani siyosiy qayta tashkil etish rejalaridan tubdan farq qilar edi. BMT Bosh Assambleyasining bo‘lish to‘g‘risidagi rezolyutsiyasiga muvofiq Falastinda Yahudiylar davlati (maydoni 14,1 ming km<sup>2</sup>, yoki 509 780 arab, shu jumladan, shu yerlarda ko‘chmanchi hayot kechirgan badaviylar va 499 020 yahidiydan iborat Falastinning 56 foiz hududi), shuningdek, Quddus baynalmilal zonasi (aholisi 105 540 arab va 99 690 yahidiydan iborat 1 foiz hudud) yaratish ko‘zda tutilgan edi<sup>1</sup>.


Bosh Assambleyaning 181-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq Yahudiylar davlati janubdagagi arab hududlari hisobiga o‘z hududini ancha kengaytirar edi. Dastlab hududning 1/10 qismini ajratish orqali tashkil etish ko‘zda tutilgan xalqaro neytral zonadan o‘z ichiga Quddus va Vifleyemni (Beyt-Laxm) olgan kichkinagina anklav qoldi, xolos. Bu hudud BMT ma’muriyati tomonidan maxsus saylanadigan organ orqali boshqarilishi va butkul demilitarizatsiyalashtirilgan bo‘lishi kerak edi.

Tashkil etish rejorashtirilgan ikkala davlat ham makon jihatdan juda noqulay joylashgan edi. Ularning har biri bir necha tarqoq, stretegik, iqtisodiy va transport jihatidan ahamiyatsiz hududlardan iborat edi. Rejorashtirilgan yahudiy davlati uchta, arab davlati esa to‘rtta o‘zaro bog‘lanmagan hududdan tashkil topgan edi. Ikkala soxta davlatning qishloq xo‘jaligi ustun tumanlari dengiz portlaridan ajralib qoldi. BMT rezolyutsiyasi etnik paritetni ham buzdi. Yahudiy davlati hududi Negava sahrosi hisobiga arab davlati hududidan katta bo‘lib, bu Falastinning urushdan keyingi milliy manzarasiga zid edi: 1946-yilda bu yerlarda 1269 ming arabga atigi 678 ming yahudiy to‘g‘ri kelar edi. O‘sha davr sharoitida bunday reja shak-shubhasiz utopiya edi. Falastin hududida faqat Yahudiy davlati – Isroil tashkil etildi (1948-y.). Bitta yerda bir-biriga dushman, diniy-madaniy ildizlari tubdan farq qiladigan, rivojlanib borayotgan “sovuv urush” sharoitida sun‘iy chegaralari aniq belgilanmagan ikki davlatning tinch yashashi imkoniy yo‘q edi<sup>2</sup>. Falastin uzoq yillik urush domiga tashlangan edi. Arab dunyosining tahdidlariga qaramasdan, Falastin yahudiy jamoasi Falastinda Yahudiy davlati tashkil etilganini e’lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

---

<sup>1</sup>Перес III. Новый Ближний Восток. – М., 1994. – С. 239-240.

<sup>2</sup>Истоки и история проблемы Палестины. Ч. 1, 1917-1947. / Изд. ООН на русском языке. 1998. – С. 8.



Hozir taraflardan qay biri bиринчи bo‘lib qurolli to‘qnashuvlarga sabab bo‘lgани muhim emas: u vaqtda na arablar, na yahudiylar o‘z dushmanining davlatchiligini tan olgan edi. Yaqin Sharq mojarolarining urushdan keyingi yillar tarixida beshta yirik harbiy to‘qnashuvlari qayd etilgan bo‘lib, ular Arab-Isroil urushlari nomini olgan. Ular 1948-1949, 1956, 1967, 1973 va 1982-yillarda sodir bo‘lgan<sup>1</sup>.

Birinchi urush 1948-yil 14-mayda Isroil Davlati mustaqilligi e’lon qilinishi bilanoq boshlandi. Besh arab mamlakatlari: Misr, Iordaniya, Iroq, Suriya va Livanning harbiy qismlari Falastinning janubiy va sharqiy qismlarida BMT rezolyutsiyasiga ko‘ra arab mamlakatlariga ajratilgan qator hududlarni egalladilar. So‘ng arablar Eski Quddusdagi Yahudiylar kvartalini egalladilar. Yahudiylar, o‘z navbatida, dengiz sohilidan Quddus tomon olib boradigan Iudeya tog‘lari orqali o‘tgan strategik muhim yo‘lni egalladilar. 1949-yil boshlarida G‘arb mamlakatlari qo‘llab-quvvatlayotgan Isroilning harbiy tuzilmalari Negevni oldingi Misr-Falastin chegarasigacha egallahsha muvaffaq bo‘ldilar. Faqat G‘azo sektoridagi tor sohil hududi egallanmay, Misr tasarrufida qoldi va aynan shu yerlar hozirda G‘azo sektori deb ataladi. Vaholanki, BMTning 1947yildagi qaroriga ko‘ra, G‘azo sektori maydon jihatdan ancha katta bo‘lishi kerak edi. Iordan armiyasi Iordan daryosining G‘arbiy qirg‘og‘iga (u ham BMT qarori bilan arab tarafiga ajratilgan maydondan ancha kam) va Sharqiy Quddusga joylashib olishga muvaffaq

<sup>1</sup> Эпштейн А.Д.. Бесконечное противостояние. Израиль и арабский мир: войны и дипломатия. История и современность. – М.: Институт изучения Израиля и Ближнего Востока, 2003.

bo‘ldi. G‘azo sektoriga kelsak, Misr bu sektorni deyarli nazorat qilgan bo‘lsada, uning qo‘shib olinishi to‘g‘risida e’lon qilmagan, va atlaslarda u “arab davlati hududi”<sup>1</sup> sifatida alohida rangga bo‘yalgan. Xo‘jalik yuritish masalalarida G‘arbiy sohil Iordan ortiga (sobiq Transiordaniya hududi) nisbatan ancha yuqori darajada bo‘lgan. 1967-yilga qadar Iordaniya aholisining 47 foizi G‘arbiy qirg‘oqning kichkina hududida yashagan.

Ikkinchi urush yetti yil o‘tib boshlangan. Shundoq ham murakkab arab-isroil munosabatlari 1956-yil oktabr oyida Misrda hokimiyat tepasiga prezident Kamol Abdul Nosir kelishi bilan yanada taranglashadi. Shu vaqtgacha Yevropa kompaniyalari mulki bo‘lgan va Mirs hukumati tomonidan natsionalizatsiya qilingan Suets kanalini himoya qilish bahonasida Isroil o‘z qo‘s Shinlarini Sinay yarim oroliga olib kiradi. Mojaro avj organidan besh kun o‘tgach, Isroilning tank kolonnalari G‘azo sektorini, aniqrog‘i 1948-1949-yillardan so‘ng sektorning arablar ixtiyorida qolgan qismini bosib oladilar, Sinayning katta qismini egallaydilar va Suets kanaliga chiqadilar. Dekabr oyida Misrga qarshi qilingan ingliz-fransuz birlashgan intervensiyasidan so‘ng, mojaro chiqqan hududda BMT qo‘s Shinlari joylashtiriladi. Isroil qurolli kuchlari Sinay yarim orolidan 1957-yilning mart oyida chiqib ketadilar.

Tez kechgani tufayli Olti kunlik urush nomini olgan uchinchi urush 1967-yil -iyundan 10-iyungacha bo‘lib o‘tgan. 1967-yil boshlarida Suriya aviatsiyasi tomonidan Isroil harbiy obyektlari bombardimon qilinishi ushbu urushga sabab bo‘lgan. Urush tufayli arablar Sharqiy Quddus ustidan nazoratni, Iordan daryosining G‘arbiy qirg‘og‘ini, G‘azo sektori, Sinay va Isroil-Suriya chegarasidagi Golan tepaliklarini yo‘qotganlar<sup>2</sup>.

Xalqaro tashkilotlarda, avvalo, BMTda Arab-Isroil mojarosini hal etish bo‘yicha qilingan diplomatik sa’y-harakatlarning hech biri keskinlik yumshashiga olib kelmadи.

Olti kunlik urushdan so‘ng vaqt-vaqt bilan bo‘lib turgan qurolli to‘qnashuvlar 1973-yil 6-oktabrda munosabatlar yana bir bor taranglashishiga olib keladi: yahudiylarning Yom-kippur diniy bayrami chog‘ida Misr Suets kanali hududida Isroilning harbiy qismlariga hujum qiladi. Birinchi uchta urushdan farqli o‘laroq bu urushda arablarning ruhi baland edi. Shunga qaramay, isroilliklar Suriya hududiga yorib kirishga va u yerda Misrning Uchinchi Armiyasini qurshab olishga muvaffaq bo‘ladilar. Suets kanalini bosib olish va uning g‘arbiy qirg‘og‘ida joylashish Tel-Avivning yana bir strategik yutug‘i bo‘ldi.

<sup>1</sup> Пырлин Е.Д. Ближневосточный узел: как все завязывалось.– Восток, 2000. – № 5.

<sup>2</sup> Хигер Л. Шестидневная война: К истории одного мифа. –

[http://antisemitism.yevrey.com/6days\\_war.html](http://antisemitism.yevrey.com/6days_war.html)

Isroil va Misr noyabr oyida tinchlik sulhi tuzadilar, sulk 1974-yil 18-yanvarda tinchlik kelishuvi bilan mustahkamlandi. Jangni to‘xtatish to‘g‘risidagi kelishuv kuchga kirganidan so‘ng, Isroil va Misr qo‘sishinlari pozitsiyalari o‘rtasida BMT qo‘sishinlarining kuzatuv punktlari o‘rnataladi va G.Kissinjer Isroil va Misr rahbariyati bilan harbiy kuchlarni olib chiqib ketish to‘g‘risida muzokaralar boshlaydi.

1975-yil sentabr oyida Misr va Isroil o‘rtasida Sinay to‘g‘risida oraliq kelishuvi imzolandi. Unda Isroil qo‘sishinlarining Mitla va Jidda dovonlaridan olib chiqib ketilishi, Sinayda amerikaliklar nazorati ostida elektron kuzatuv tizimi o‘rnatalishi va Misrga Abu Rodes neft maydonlari qaytarilishi ko‘zda tutilgan edi. Evaziga Isroilga Suets kanalida kemalar erkin harakatlanishi kafolatlanar edi.

70-yillarda Yaqin Sharq mojarosini hal etish jarayonini yo‘lga qo‘yishda AQSh davlat kotibi Genri Kissinjer va uning “mokilik” diplomatiyasi katta rol o‘ynadi. Genri Kissinjerning Damashq va Quddusga tashriflari taraflarning nuqtayi nazarlarini yaqinlashtirdi va 1975-yilning may oyida Suriya va Isroil o‘rtasida qo‘sishnlarni ajratish to‘g‘risida kelishuv imzolandi. Shundan so‘ng, zudlik bilan asirlar almashish boshlab yuborildi. Kelishuvni bajargan holda Isroil Golan tepaliklaridagi vayron bo‘lgan Kuneytra shahridan o‘z qo‘sishinlarini olib chiqib ketdi. Ikki armiya pozitsiyalari o‘rtasida BMTning 1250 ta askari joylashtirildi. Bu kelishuv Qiyomat kuni urushidagi muntazam qo‘sishlar harakatlariga yakun yasadi.

Shu davrda Misr prezidenti Anvar Saodat Isroil bilan yaqin munosabatlar o‘rnatalish to‘g‘risida prinsipial qaror qabul qiladi. Misr parlamentida so‘zga chiqar ekan, u Isroil bilan tinchlik muzokaralari boshlashga tayyorligini e’lon qildi. 1977-yil 19-noyabrda A.Saodatning Isroilga tarixiy tashrifi boshlandi. Tashrif chog‘ida u Isroil bilan tinchlik munosabatlariga tayyorligini bildirdi.

1978-yil 5-sentabrda AQSh prezidentining taklifiga ko‘ra Kemp-Devidda M.Begin, A.Saodat va J.Karter rahbarligidagi Isroil, Misr va AQSh delegatsiyalari uchrashishdi. 1978-yil 17-sentabrda o‘n uch kun davom etgan muzokaralardan so‘ng Misr va Isroil rahbarlari “Yaqin Sharqda tinchlik chegaralari” deb nomlangan hujjatni imzoladilar. Hujjatga ko‘ra Iordan daryosining G‘arbiy qirg‘og‘i va G‘azo sektorining falastin ahonisiga o‘zini o‘zi boshqarishning cheklangan huquqi berildi. Taraflar BMT Xavfsizlik kengashining 242- va 338- sonli rezolyutsiyalari mojaroni uzil-kesil hal qilish uchun asos bo‘lishiga kelishib oldilar. Falastinda o‘zini o‘zi boshqarish idoralari tashkil etilgan vaqtidan boshlab besh yillik o‘tish davri belgilandi. Isroil, Misr va Iordaniya hamda falastinliklar o‘rtasida G‘arbiy qirg‘oq va G‘azo sektorining kelajagi to‘g‘risida muzokaralar boshlanishi muhokama qilindi. Besh yillik o‘tish davrida aholi uchun muxtoriyat joriy etildi. “Misr va Isroil o‘rtasida tinchlik shartnomasi tuzish chegaralari” deb atalgan

hujatga muvofiq shartnoma bo'yicha uch oylik tayyorgarlik muddati to'g'risida kelishib oldilar. Isroil 1967-yildan boshlab uch yil davomida o'z qo'shinlarini Sinay chegarasidan olib chiqib ketishga rozilik bildirgan edi. Shunga asosan 1979-yil 26-mart kuni Vashingtonda Misr va Isroil o'rtasida tinchlik shartnomasi tuzildi va ikki davlat o'rtasidagi urush barham topdi. Tinchlik shartnomasiga muvofiq Misrga Sinay yarim oroli qaytarildi va ikki davlat o'rtasida to'laqonli diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Kemp-Devid tinchlik shartnomasi Yaqin Sharqning harbiy jihatdan eng kuchli mamlakati bo'lgan Misr rahbariyatining Yaqin Sharq mojarosini hal etishda faqat harbiy usullarga tayanish noto'g'rilib tushunib yetganligi natijasi bo'ldi. Isroil rahbariyati va jamiyati ongida ham shunday fikr tug'ildi. Biroq, arab dunyosining ko'pchilik davlatlari nafaqat ikki mamlakat rahbarlari boshlagan tinchlik jarayonini qo'llab-quvvatlashdan bosh tortdilar, balki Kemp-Devid tinchlik shartnomasiga e'tiroz tariqasida Misr bilan diplomatik munosabatlarni uzdilar. Ammo, na bu harakatlar, na 1981-yil 6-oktabrda Misr prezidenti Anvar Saodatning suiqasd natijasida o'ldirilishi, Yaqin Sharqni o'tmishdagi o'zaro murosasizlikka qaytarishga qodir edi.

1990-yillarda arab-isroil tinchlik o'rnatish jarayonlari sezilarli darajada ilgari surilgani kuzatildi: 1991-yilda Madridda arab-isroil munosabatlarini tinchlik yo'li bilan hal qilish masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi, 1993-yildan boshlab Oslo, Vashington, Sharm al Shayx va Uay-planteyshnda isroilliklar va falastinliklar o'rtasida qator oraliq kelishuvlar imzolandi. 1994-yilda Isroil va Iordaniya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi, sakkizta arab davlatlari Isroilda o'z vakolatxonalarini ochdilar.

Fors ko'rfazidagi inqiroz va Iroqdagi birinchi urushdan (1991-yil 15-yanvardan 27-fevralgacha) so'ng, jahon hamjamiyatida, shu jumladan, AQSh ma'muriyatida ham Yaqin Sharq mojarolarini tinchlik yo'li bilan hal qilishga da'vatlar borgan sari balandroq yangray boshladi.

1991-yil 30-oktabrda Madridda Yaqin Sharqda tinchlik muzokaralariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'z ishini boshladi. Konferensiyada Isroil, u bilan janjallahgan arab mamlakatlari, falastinliklar delegatsiyasi (deyarli FOT(Falastin ozodlik tashkiloti)) ishtirok etdi. Madrid uchrashuvining eng muhim natijasi shu bo'ldiki, taraflar bo'lajak to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar formulasi – "Hudud evaziga tinchlik" prinsipini qabul qildilar<sup>1</sup>. AQSh va SSSR tinchlik muzokaralarida kosponsor sifatida ishtirok etdilar.

---

<sup>1</sup>The Madrid Conference Speeches, Oct.-Nov. 1991; www.mfa.gov.il. Building for Peace in the Middle East: an Israeli-Palestinian Dialogue. – UN, 1992.

AQSh va SSSR tashabbusi bilan Madridda Yaqin Sharq tinchlik konferensiyasining chaqirilishi xalqaro munosabatlardagi eng murakkab masalalardan birini hal qilish istiqbollarini ochib berdi. Arab-isroil mojarolari tarixida birinchi marta muzokaralar stoliga mojaroda bevosita ishtirok etgan barcha taraflar taklif etildi, ikki tomonlama to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar, umumiyl manfaatlarni tan olish yo‘llari belgilab olindi, shu bilan birga ikki tomonlama muzokaralar g‘oyasi ko‘p tomonlama aloqalar va muzokaralar zarurati bilan bog‘lanmay qo‘yildi. Muzokaralarga Isroil, Suriya, Livan, Iordaniya hukumati vakillari taklif etildi. Falastinliklar esa birlashgan iordan-falastin delegatsiyasi doirasida taklif etilgan edi. Qayd etish lozimki:

-muzokaralarda ishtirok etishga Suriya rozilik bildirdi (1973-yilda Suriya ishtirok etmagani tufayli Jeneva konferensiysi muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi.);

-Madrid konferensiyasini o‘tkazish formulasi Isroilda “Likud” bloki hukumat tepasidaligida qabul qilingan edi;

-falastinliklar ularning qonuniy vakili - FOT ishtirokisiz muzokaralarni boshlashga tayyorliklarini bildirdilar;

-muzokaralar uzil-kesil tinchlik o‘rnatish borasida emas, vaqtinchalik o‘zini o‘zi boshqarish choralar borasida olib borilgan edi.

Konferensiya o‘z ishini faqat uch kun davom ettirdi, ammo uning ahamiyatini e’tirof etmay bo‘lmaydi, chunki birinchi bor muzokaralarda mojaroning barcha ishtirokchilari uchrashdilar.

Konferensiya natijalari:

1. “Yer evaziga tinchlik” formulasi ishlab chiqildi.
2. Kosponsorlik instituti uzil-kesil shakllandi.
3. Konferensiya Yaqin Sharqdagi muzokaralar jarayoniga kuchli turtki bo‘ldi<sup>1</sup>.

Osloda bo‘lib o‘tgan Yaqin Sharqda tinchlik o‘rnatishga bag‘ishlangan konferensiya, shuningdek, mojaroni hal etishga urinishlarning muhim bosqichi bo‘ldi.

Osloda 1993-yil 20-avgustda “Prinsiplarni e’lon qilish to‘g‘risida” shartnama imzolandi. So‘ngra FOT (Falastin ozodlik tashkiloti) va Isroil hukumati o‘rtasida o‘zaro tan olish to‘g‘risida muzokaralar bo‘lib o‘tdi. 1993-yil 9-sentabrda Tunisda tan olish to‘g‘risidagi hujjat va 1993-yil 10-sentabrda Tel-Avivda “Prinsiplarni e’lon qilish to‘g‘risida”gi shartnama imzolandi. Shartnama 17ta paragraf, 4 ta ilova va 1 ta bayonnomadan iborat edi. Shartnomani Isxak Rabin imzoladi: “Isroil hukumati FOT ni falastin

---

<sup>1</sup> Мирский Г. Израиль и палестинцы: самый длительный конфликт. – Мировая экономика и международные отношения, 2001. – №4. – С.66-74.

xalqining vakili deb hisoblagan holda tan olishga va Yaqin Sharqda tinchlik o‘rnatish jarayoni doirasida u bilan muzokaralar boshlashga qaror qildi”.

Ushbu muzokaralarda qator muhim masalalarni ko‘rib chiqish nazarda tutilgan edi.

... 12-moddada shartnomaga muvofiq Iordan daryosining G‘arbiy qirg‘og‘i va G‘azo sektoridan 1967-yilda kishilar, muhojirlar (qochoqlar) kirishi va chiqishi uchun ruxsatnomalarni tasdiqlaydigan doimiy komissiya tuzilishi to‘g‘risida so‘z borardi...

... 5-modda, 3-paragraf Quddusning maqomi to‘g‘risida “Muzokaralar Quddusning, qochoqlarning, Isroil aholi maskanlarining maqomini belgilashi, xavfsizlik choralarini, chegara muammosini umumiyl manfaatlar bilan bog‘liq boshqa masalalar bilan uzviy bog‘liqlikda hal etishi lozim”. 4-paragrafda o‘tish davrida erishilgan kelishuvlar asosiy maqom yuzasidan muzokaralarga to‘sinqinlik qilmasligi ta‘kidlangan edi.

Mahmud Abbas: “Oslo shartnomasi” falastin urushining yangi maqomini belgiladi va FOT rahbarligida falastin milliy ma‘muriyati tashkil etilishiga turki bo‘ldi. Falastin ma‘muriyati o‘z maqsadlarining bir qismini ro‘yobga chiqardi. U dunyoning ko‘philik mamlakatlari Falastinni tan olishlariga erishdi”.

Suv resurslariga kelinsa, ularni taqsimlash masalasi eng murakkab masalalardan hisoblanadi. Gap shundaki, mintaqada suv zaxiralari juda kam, ichimlik suvi esa, asosan, yer osti manbalaridan olinadi, bu manbalarning aksariyati G‘arbiy qirg‘oqda joylashgan. Isroilning fikricha, agar FOT ular ustidan nazorat o‘rnatadigan bo‘lsa, bu uning xavfizligiga tahdid soladi. Isroil hukumati suv resurslaridan voz kechishi Isroilning o‘zi uchun salbiy oqibatlarga ega bo‘ladi, va uning aholisini ichimlik suvidan mahrum qiladi. Isroil hukumati Falastin davlati tan olinadigan bo‘lsa, suv taqsimlash tartibi saqlanib qolmaydi, deb hisoblaydi – Isroil G‘arbiy qirg‘oq va G‘azo sektori uchun muxtoriyatni talab qilishining asosiy sababi ham shunda.

Isroilliklar Quddus Isroil davlatining ajralmas poytaxti ekanini qat’iy ta‘kidlaydilar, falastinliklar esa ular Quddusning sharqiy qismini Falastin davlati poytaxti, deb e’lon qilishga haqli ekanliklarini ta‘kidlaydilar.

Oslo muzokaralari natijalariga ko‘ra, Falastinga G‘arbiy qirg‘oq yerlarining 13 foizi ajratib berildi, sharti shuki Falastin terrorchilik bilan kurashni faollashtiradi. Isroil aholi maskanlari va Quddus maqomi to‘g‘risidagi masalaga kelinsa, ular hozirgacha taraflar o‘rtasidagi ziddiyatlarga sabab bo‘lmoqda.

1995-yil 28-sentabrda Vashingtonda yana bir Falastin-Isroil kelishuvi imzolandi. Bu hujjat “Oslo-2” nomi bilan tanilgan. Bu hujjatda ta‘kidlanishicha Isroil va FOT o‘rtasidagi muzokaralarning birinchi bosqichi tugatilgan. Bundan tashqari, Vashington kelishuvi Falastin Milliy

Kengashiga saylovlar tartibini, shuningdek, G‘azo va Iyerixon bo‘yicha kelishuvga kiritilmagan hududlarda Isroil fuqarolik ma’muriyati vakolatlarini falastinliklarga berish shakli va muddatlarini belgilab bergan. Imzolangan kelishuvga muvofiq<sup>1</sup> Isroil Falastin hukumat idoralariga G‘arbiy qirg‘oqdagi yettita shahardan oltitasida: Jenin, Shxem (Nablus), Tul-Karma, Kalkiliya, Ramal va Beyt-Laxemda (Vifleyem) barcha vakolatlarni topshirishi kerak edi. Xevronda mas’uliyat va vakolatlarni ajratib olish bo‘yicha alohida choralar kelishilgan edi. Gap shundaki, arxeologik qidiruvlar va tarixiy tadqiqotlar bilan Shxem, Beyt-Laxem va Iyerixon kabi shaharlarning yahudiy xalqi uchun ahamiyati favqulorra muhimligi tasdiqlangan bo‘lishiga qaramay, kelishuv imzolangan vaqtida bu shaharlarda yahudiy aholi bo‘laman. Xevronda esa kichkina, ammo mafkuraviy jihatdan juda mustahkam yahudiy jamoasi yashagan, bu mazkur shaharda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha alohida choralar ko‘rilishi zaruratini keltirib chiqarar edi.

Imzolangan kelishuvlarga muvofiq (“Oslo-2” shartnomasi sifatida tanilgan 1995-yil 28-sentabrdagi Vashington deklaratsiyasi alohida o‘rin tutadi) G‘arbiy qirg‘oqning butun hududi ko‘plab zonalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har xil maqomga ega edi. “A” zonasiga yuqorida qayd etilgan shaharlarning barchasi (shuningdek, Iyerixo) va ularning yaqin atrofi kiradi; bu zonada harbiy va fuqarolik hokimiyati butkul Falastin ma’muriyati qo‘lida edi.

“B” zonasasi ko‘plab falastin aholi maskanlari va qishloqlarini o‘z ichiga oladi; bu zonada Falastin ma’muriyatiga fuqarolik sohalarida butun hokimiyat topshirilgan bo‘lib, Isroil o‘zining xavfsizlikni ta’minlash borasidagi vakolatlarini saqlab qolgan edi. “B” zonasida falastinliklarga jamoat tartibini ta’minlashi lozim bo‘lgan yigirma beshta politsiya bo‘linmalari tashkil etishga ijozat berilgan bo‘lsada, falastin politsiyasi o‘z harakatlarini Isroil bilan muvofiqlashtirishi lozim edi. “C” zonasiga barcha yahudiy maskanlari (ba’zilarida bir necha o‘nta oila yashasa, ba’zilarida yuzlab va minglab oilalar yashar edi), shuningdek, aholi yashamaydigan hududlar kiritilgan edi. Bu yerda Isroil ham harbiy, ham fuqarolik sohalarida barcha vakolatlarni saqlab qolgan edi.

Ammo diplomat va muzokarachilarning urinishlari zoye ketdi va bir necha to‘qnashuvlardan so‘ng mojaro yangi keskinlik bosqichiga o‘tdi.

2002-yil aprel oyida AQSh, BMT, YeI va Rossiya bir guruh diplomatlar bilan turkum maslahatlar olib borish tashabbusi bilan chiqdilar. Bu tashabbus “Kvartet” nomini oldi. Kvartet ishtirokilar “Yo‘l xaritasi”, deb nom olgan loyihami ishlab chiqdilar. “Yo‘l xaritasi” – bosqichma-bosqich tinchlik

---

<sup>1</sup> Мирский Г. Израиль и палестинцы: самый длительный конфликт. – Мировая экономика и международные отношения, 2001. – №4. – С.66-74.

o‘rnatish rejasi bo‘lib, unda Isroil harbiylarini egallab turgan hududlardan chiqarish va Falastin davlati tuzish ko‘zda tutilgan edi.

2003-yil 30-aprelda “Yo‘l xaritasi” omma e’tiboriga havola etildi. Hujjatda muayyan maqsadlarni ko‘zlagan harakat dasturi, harakat davrlari, jadvali, maqsadlarni amalga oshirish muddatlari, shuningdek, siyosat, xavfsizlik, insonparvarlik sohalarida hamda Kvartet<sup>1</sup> boshchiligidagi davlat hokimiyati institutlari tashkil etish borasida ikkala taraf bir-biri tomon qadam bosishi orqali taraqqiyotga erishishga qaratilgan harakat bosqichlari belgilab berilgan edi.

2003-yil noyabr oyida BMT Xafsizlik kengashi o‘zining 1515-sonli rezolyutsiyasi bilan Yaqin Sharqda tinchlik o‘rnatish dasturi sifatida AQSh tomonidan “to‘rtlik” doirasida ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi”ni tasdiqladi.

Rejadan ko‘zlangan maqsad – Falastin-Isroil mojarosini uzil-kesil va keng qamrovli darajada hal etish, G‘azo sektori va G‘arbiy qirg‘oq bilan hududiy jihatdan chambarchas bog‘liq Isroil va boshqa qo‘shni davlatlar bilan xavf-xatarsiz tinch-totuv yashaydigan mustaqil, demokratik va barivoj Falastin davlati yaratish.

Mojaroni tinchlik yo‘li bilan hal qilish jarayoni uch bosqichga ajratilgan. Birinchi bosqichda (2003-yil may oyigacha) terror va zo‘ravonlikni to‘xtatish, falastinliklar uchun normal hayot sharoiti yaratish, falastin institutlarini shakllantirishni boshlash nazarda tutilgan. Birinchi bosqich davomida falastinliklar Isroil yordamida, qayta tashkil etilgan va samarali harakat qiladigan maxsus xizmat yordamida zo‘ravonlikni to‘xtatishlari (qamoqqa olish, terroristik harakatlar sodir etishga aloqador shaxslarni zararsizlantirish va jamiyatdan ajratish, noqonuniy qurol-aslahalarni musodara qilish va shu kabi boshqa tadbirlar orqali) kerak edi. Bundan tashqari, falastinliklar davlatchilikni shakllantirish maqsadida keng qamrovli siyosiy islohotlarni amalga oshirdilar, shu jumladan, Falastin konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqdilar va erkin, halol hamda ochiq saylovlar o‘tkazdilar.

O‘z navbatida, Isroil o‘z harbiy qo‘shinlarini 2000-yil 28-sentabrda (ikkinchi intifada boshlanishi) bosib olingan Falastin hududlaridan olib chiqib ketishi, shuningdek, har qanday aholi ko‘chirish faoliyatini to‘xtatishi, ishonchni yo‘qotishga sabab bo‘ladigan harakatlar qilmasligi va gumanitar vaziyatni yaxshilashga qaratilgan choralar ko‘rishi kerak edi.

Arab davlatlari zo‘ravonlik va terrorga aloqador guruhlarni davlat, xususiy shaxslar tomonidan moliyalashtirish va boshqa yordam berish shakllarini to‘xtatishlari lozim edi. Falastinliklarga moliyaviy yordam

---

<sup>1</sup> Павлов О. «Дорожная карта» и судьбы палестино-израильского урегулирования. Арабо-израильский конфликт: старые проблемы и новые планы. – М., 2003.

ko‘rsatayotgan donorlar tegishli mablag‘larni FXR Moliya vazirligining yagona g‘aznachilik hisob raqami orqali yo‘naltirishlari kerak edi.

Ikkinci bosqichda, Falastinda saylovlar o‘tkazilgandan so‘ng, Falastin iqtisodiyoti tiklanishiga yordam ko‘rsatish va vaqtinchalik chegaralar bo‘ylab mustaqil Falastin davlati tashkil topishiga, Yaqin Sharqda mutlaqo tinchlikka erishilishiga (shu jumladan, Isroil va Suriya, Isroil va Livan o‘rtasida mojarolarni tinchlik yo‘li bilan hal etish) olib kelishi mumkin bo‘lgan jarayonni ishga tushirish maqsadida xalqaro konferensiya tashkil etish ko‘zda tutilgan edi. Falastin davlatini BMT tarkibiga qo‘shilishi ham ehtimoldan xoli emas edi.

Isroildan aholini joylashtirish faoliyatini butkul to‘xtatish, Mitchell Komissiyasi belgilagan normalarga rioya etish talab qilinardi, bo‘lajak falastin davlatining hududiy yaxlitligini ta‘minlash maqsadida hudud almashish ehtimoli ham istisno qilinmasdi. Arab mamlakatlari Isroil bilan bo‘lgan “intifada”dan avvalgi munosabatlarini (savdo vakolatxonalar) tiklashlari talab etilardi. Ikkinci bosqichda mintaqadagi suv resurslarini taqsimlash, atrof-muhit, iqtisodiy rivojlanish, qochoqlar va qurollanish ustidan nazorat masalalari bo‘yicha ko‘p tomonli hamkorlik tiklandi.

Uchinchi bosqichda, taraflar bilan o‘tkazilgan maslahatlardan so‘ng, ikkinchi xalqaro konferensiyani tashkil etish, mazkur konferensiya doirasida mojaroning bevosita ishtirokchilari, mintaqada joylashgan davlatlar va xalqaro hamjamiyat vakillari bilan o‘tkaziladigan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama muzokaralar asosida 2004-yilda tinchlik o‘rnatish jarayonining yakuniy bosqichi uchun shart-sharoit tayyorlanishi kerak edi. 2005-yilda chegaralar to‘g‘risidagi masalalar, Quddus, qochoqlar va aholi makonlari masalalarini o‘z ichiga olgan yakuniy maqom to‘g‘risida kelishuv imzolanishi, shuningdek, Livan va Suriya bilan keng qamrovli tinchlik o‘rnatilishi lozim edi.

Shunday qilib, “Yo‘l xaritasi” faqat zarur shart-sharoit yaratilgandan so‘nggina asosiy masalalar yuzasidan muzokaralar boshlanishini nazarda tutadi. Bular: falastin institutlarini demokratlashtirish, xavfsizlik xizmatlarini isloh qilish, zo‘ravonlikni to‘xtatish, insonparvarlik muammolarini hal etish. Ammo, har qancha urinilmasin, bunga erishilmadi. Mojaroni tinchlik yo‘li bilan hal qilish jarayoni boshidanoq nazoratdan chiqdi, tez orada “Yo‘l xaritasi” kutilgan samarani berishi gumon bo‘lib qoldi<sup>1</sup>.

Mazkur reja bir necha bor tanqidga uchradi, xususan, unda Yaqin Sharq mojarosi negizida yotgan qator asosiy muammolar (hududlar to‘g‘risidagi masala, Quddus maqomi, Falastin qochoqlari muammosi) bo‘yicha yechimlar

---

<sup>1</sup> Захарченко А.Н. Перспективы практической имплементации плана ближневосточного мирного урегулирования «Дорожная карта». [www.mideast.ru](http://www.mideast.ru)

berilmagan. Biroq, mazkur hujjatning asosiy kamchiligi, aynan, asosiy masalalar bo‘yicha muzokaralar boshlash sharti sifatida taraflarga haddan ziyyod yuqori talablar qo‘yilganidadir.

“Yo‘l xaritasi”ning asosiy afzalligi shu bo‘ldiki, Isroil, Falastin ma’muriyati va arab mamlakatlari mazkur rejaga rioya qilishga roziliklarini bayon qildilar. Ammo hujjatga kiritilgan bajarib bo‘lmash talablar tufayli bu bayonotlar amalda tasdiqlanmadи va o‘zaro ta’nalarga sabab bo‘ldi<sup>1</sup>.

Mazkur rejani amalga oshirish yo‘lidagi to‘sqlivardan biri shuki, Falastin tarafi tarqoq va jipslashmagan edi. Uning ishtirokchilari tarkibi mojarо davridа radikal va xolislarga keskin ajralgan bo‘lib, bu muzokaralarga to‘sqinlik qilar edi. Falastin maxsus xizmatlari Isroilga qarshi amalga oshirilgan ekstremizm bilan samarali kurasha olmaydilar, chunki keng ma’noda ular terrorchilar bilan deyarli bitta qadriyatlarni himoya qiladilar, bir maqsadga intiladilar. Isroil qasoskorlikni, aholi maskanlari qurishni to‘xtatolmaydi, chunki uni yot madaniyat va dunyoqarashga ega davlatlar o‘rab turadi va u o‘z xavfsizligi uchun kurashishi lozim.

Mazkur rejani amalga oshirish jarayonining barcha murakkabliklariga qaramay, tan olish kerakki, “Yo‘l xaritasi” rejasi Falastin-Isroil muammosini hal etishda yagona va eng dolzarb reja bo‘lib qolmoqda.

2000-yil avgust oyida AQSh prezidenti Clinton Kemp-Devid sammitini chaqirdi, bu sammitda, oxir-oqibat, taraflar president Clinton yordamida kelishuvga kelishlari lozim edi. Shuni aytish kerakki, Isroil ham, Falastin ham president Klintonga, 2001-yil yanvar oyida uning prezidentlik muddati tugagunga qadar, sulh tuzish masalasida doimiy bosim o‘tkazar edilar.

Sammitda Barak o‘zidan oldingi prezidentlardan farqli o‘larоq ko‘p masalalarda yon berdi. U Isroilning aksariyat aholisi irodasiga qarshi borgan holda, arablarga Quddusning bir qismini taklif etdi. Shuningdek, u falastinliklarga G‘arbiy Qирg‘oqning 95 foizdan ortiq hududini taklif etdi, garchi G‘arbiy Qирg‘oqning qolgan 5 foizi Isroil ixtiyorida qolishi kerak edi. Birinchi qarashda, falastinliklar nimani istagan bo‘lishsa, shuni olgandek, shartnoma imzolanadigandek edi<sup>2</sup>. Ammo Yosir Arafat taklifni rad etdi va “qaytish huquqi”ni talab qildi, ya’ni 1948-yilgacha Isroilda yashagan arablar qaytishlarini yoki o‘zlarining hozirda isroilliklar egallab turgan uylariga qaytish huquqiga ega bo‘lishlarini talab etdi. Buning natijasida 4 milliondan ortiq arablar Isroil fuqarosiga aylanar edilar (shu tariqa Isroilda ko‘pchilikni tashkil qilar edilar), albatta, bironta Isroil siyosatchisi (hatto, eng so‘l partiya a’zosi ham) bunday talabga rozilik bildirolmasdi. Sammit hech bir natijasiz

---

<sup>1</sup> Gelvin, James L. *The Israel-Palestine Conflict: One Hundred Years of War* (Cambridge University Press, 2005).

<sup>2</sup> Swisher, Clayton E. *The Truth About Camp David* (Nation Books, 2004).

tugadi, u bilan birga Klinton va Barakning karyeralari ham poyoniga yetdi<sup>1</sup>. Falastinliklar esa Arofatni AQShva Isroil yetakchilarining bosimiga dosh bergen qahramon sifatida qabul qildilar. Shunday qilib, Kemp-Devid sammiti boshi berk ko‘chaga kirib qoldi.

Muzokaralarning barbod bo‘lishi, tinchlik shartnomasi tuzish istiqbollari yo‘qligi va AQSh ning ochiqdan ochiq Isroilni qo‘llab-quvvatlashi yangi qurolli to‘qnashuvlarga olib keldi, bu to‘qnashuvlar “Intifada Al-Aksa” deb nom oldi.

Ikkinci intifada mojaroni yangi bosqichga ko‘tardi. Bu endi xalq ommasining tartibsiz qo‘zg‘oloni emasdi, aksincha, jahon hamjamiyatining xayrixohligiga erishishga qaratilgan va, shu bilan birga, isroilliklarga dahshat solgan puxta o‘ylangan dastur edi. Ikkinci intifada davom etgani sari isroilliklarda falastinliklar bilan tinchlik shartnomasi tuzish istagi so‘nib bordi, ular Oslodagi jarayonni “yolg‘on”, yoki bahona deb atardilar, chunki ularning fikricha, arablar aslida hech qachon tinchlikni va isroilliklar bilan tinch qo‘sningchilik qilishni istamaganlar<sup>2</sup>.

Barakning tinchliksevar pozitsiyasini ko‘pchilik isroilliklar rad etdilar, chunki u isroilliklarga hujum qilinib turgan vaqtida ham muzokara olib borishga intilar edi. Uning koalitsiyasi tez orada tarqalib ketdi. Barak bosh vazir lavozimini tark etdi. Ariel Sharon saylovlarda 25 foiz ko‘p ovoz to‘plab, juda oson g‘alaba qozondi. Bunday ko‘pchilik ovozni Isroil tarixida hech bir siyosatchi to‘plamagan edi.

Intifadaning birinchi uch yili davomida 800ta isroillik va 2600ta falastinlik o‘ldirildi<sup>3</sup>. Isroilning harbiy operatsiyalari falastinliklarning hayotini jahannamga aylantirdi, shahar va qishloqlarni bir-biridan ajratdi va ko‘pchilik falastinliklarni ochlik domiga tashladi. Falastin faollarining yo‘q qilinishi (“nuqtali likvidatsiya”) va bunday operatsiyalar davomida tinch aholining halok bo‘lishi, terrorga aloqadorlikda gumon qilinganlarni qamoqqa olish yoki o‘ldirish maqsadida Falastin shaharlari va qishloqlariga Isroil armiyasining reydlari kabi oddiy holga aylandi. Falastin ozodlik urushi yetakchisi Yosir Arofatning Ramaldagi (“Mukat”) o‘z rezidensiyasida qamab qo‘yilishi, o‘ldirish to‘g‘risida do‘q-po‘pisalar Isroil istilosining asosiy ramziga aylandi, bularga Isroil hukumati vakili, xavfsizlik qo‘mitasi a’zosi Natan Shcharanskiyning so‘zlari yaqqol misol bo‘ladi: “Ayni bosqichda uni yakka ajratib qo‘yish to‘g‘risida qaror qabul qilindi, ammo bu doim shunday

<sup>1</sup> Мирский Г.И. Палестина после Арафата. Мировая экономика и международные отношения, 2005. – С.64.

<sup>2</sup> Эпштейн Ф.Д. Израильско-палестинский переговорный процесс, интифада и судьба израильских арабов. [www.ort.spb.ru](http://www.ort.spb.ru)

<sup>3</sup> Кузнецов Д. Арабо-израильский конфликт в зеркале общественного мнения в странах Запада и Востока. Азия и Африка, 2005. – № 12. – С.16-19.

bo‘ladi degani emas: balki, ertaga uni surgun qilish, indinga esa yana ham qat’iy chora ko‘rish vaqtি kelar”<sup>1</sup>.

Ko‘pchilik falastinliklar uchun Arofat tinchlik o‘rnatish jarayoni kontekstida nafaqat amaliyotchi siyosatchi, balki Falastin xalqining mustaqillik uchun kurashi ramzi edi. FOTning doimiy yetakchisi, o‘z hayotini mustaqil falastin davlati yaratishga bag‘ishlagan va uzoq yillar falastin qarshilik kurashining janjallahgan otryadlari o‘rtasida murosa uchun zamin yaratishdek noyob qobiliyat egasi bo‘lgan Yosir Arofat falastinliklar va butun dunyo uchun o‘ziga xos milliy qahramonga aylandi. Shuning uchun unga berilgan zarba Falastinliklar tomonidan Falastin mustaqilligi g‘oyasiga berilgan zarba sifatida qabul qilinar edi.

### **3. Yo. Arofat va A.Sharon siyosat maydonidan ketganidan so‘ng yuzaga kelgan vaziyat va uni tartibga solish istiqbollari**

Yosir Arofat vafot etganidan so‘ng hukumat va uning bir qismi bo‘lgan FATX harakati pozitsiyalari yanada zaiflashdi, harakat ichida ajralib chiqishga intilishlar kuchaydi. Harakatni Yo.Arofat birlashtirib turardi, uning obro‘sni va xalqning unga bo‘lgan muhabbati beqiyos edi. Yo.Arofat tirik ekan FATH a’zolaridan birontasining unga qarshi chiqishga haddi sig‘mas edi<sup>2</sup>.

U ketgach, vaziyat tubdan o‘zgardi. 2005-yil yanvar oyida bo‘lib o‘tgan saylovarda “eski gvardiya” vakili, 1993-yilda imzolangan Oslo-I Falastin-Isroiil Kelishuvini tayyorlashda faol ishtirok etgan Mahmud Abbas g‘alaba qozondi. Mahmud Abbasning falastin xalqi orasida obro‘s pastligi (2%), yoshini inobatga olgan holda, u falastin hukumati tepasida yuqori lavozimni egallagan vaqtinchalik odamligini hamma tushungan va tushunadi. Atrofda FATX dohiysi vazifasida Arofat o‘rnini egallahga qodir birorta odam yo‘q edi. M.Abbos harakat yetakchisi saylovlarida, so‘ng FMA rahbari lavozimiga saylovarda yutib chiqishiga sabab shu bo‘ldiki, harakat vakillari Yo.Arofat vafotidan so‘ng hokimiyat uchun kurash FATXga qarshi aylanishidan, bu yetakchi siyosiy kuch o‘z mavqyei va maqomini qo‘ldan chiqarishiga olib kelishi mumkinligidan qo‘rqdilar.

2006-yil 25-yanvarda bo‘lib o‘tgan FMA Qonun chiqaruvchi majlisiga saylovarda XAMAS islom fundamental terroristik tashkiloti Falastin Qonun chiqarish majlisidagi 132 o‘rindan 74tasini egallab, mutlaq g‘alabani qo‘lga

---

<sup>1</sup>Супонина Е. Прогулка, погубившая мир. Новое время. 2000, 8 октября. – №40.

<sup>2</sup> Озеров О. Post-Arafat Ближний восток. Международная жизнь. 2004. – № 11-12. – С.148,164.

kiritdi<sup>12</sup>. Parlamentda XAMAS egallagan o‘rinlar soni boshqa partiyalar ishtirokisiz hukumat shakllantirish uchun yetarli edi.

FATX hukumati korrupsiya sababli yemirilayotgan bir paytda XAMAS uni tanqid ostiga olib, o‘z obro‘sini ko‘tarib olgan edi. Bundan tashqari, XAMAS siyosiy jihatdan ish beradigan dasturni taklif etdi. Muxtoriyatda qonunsizlik, korrupsiya hukm surgan, shuningdek, Isroil bilan sulk tuzish jarayoni to‘xtab qolgan bir vaziyatda XAMAS islom fundamental terroristik tashkiloti falastin xalqi nazarida FATX hukmron siyosiy partiyasiga yaxshi muqobil sifatida qabul qilindi. Shu tariqa, hokimiyat tepasiga radikal islom harakati kelishi mintaqada kechgan jarayonlarning mantiqiy va qonuniy natijasi bo‘ldi.

Isroil rahbariyati bilan muzokaralarga kelinsa, shuni qayd etish lozimki, endi XAMAS rahbariyati g‘alaba qozonganidan oldingichalik qat’iyatli emas edi. XAMAS yo‘lboshchisi Xolid Mashal: “Isroil yashashga haqli ekanini tan olishdan bosh tortamiz, ularni tan olmasakda, haqiqatdan yuz o‘girolmaymiz ham. Isroil va uning bosqinchilik harakati bilan kurash davom etadi” deb ta’kdladi. Ko‘plab ekspertlarning fikricha, Yaqin Sharqda busiz ham katta qiyinchilik bilan siljiyotgan tinchlik o‘rnatish jarayoni XAMAS g‘alaba qozongandan keyin xavf ostida qoldi.

Isroil uchun XAMAS g‘alaba qozonishi “kutilgan tasodif” bo‘ldi. Bu arab Sharqida demokratik saylovlar natijasida hokimiyat tepasiga kelgan yagona kuchdir. Isroil uchun bu siyosat va partiya tizimida yuz berayotgan chuqur o‘zgarishlar vaqtiga to‘g‘ri keldi. Mamlakat ichidagi siyosiy kuchlar o‘rtasidagi shundoq ham shubhali muvozanat buzildi. Nima bo‘lganda ham, Falastin va Isroil o‘rtasidagi munosabatlар rivojini bashorat qilmagan ma‘qul. Kun tartibida turgan asosiy masalalar bunga misol bo‘la oladi. Binobarin, xalqaro tashkilotlar ekspertlarining xulosasiga ko‘ra, XXI asrda ham Yaqin Sharq dunyoning eng mojaroli mintaqalaridan biri bo‘lib qoladi:

- tug‘ilish darajasi yuqoriligi bilan birga iqtisodiy rivojlanish darajasi pastligi;
- o‘tgan urushlar davridagi falastin qochoqlari muammo;

---

<sup>1</sup> Эпитетин А.Д. Еще одна исламская революция: Израиль, ПНА и ХАМАС после вторых палестинских выборов. [www.ort.spb.ru](http://www.ort.spb.ru)

<sup>2</sup> XAMAS qisqartmasi “Xarakat al-Mukavama al-Islamiya” deb o‘qiladi, arab tilida “Islom qarshilik harakati” degani. XAMAS harkati “Musulmon birodarlar” tashkiloti negizida yuzaga kelgan. 1987 yilda shayx Ahmad Yasin boshchiligidagi siyosiy va tashkiliy shaklga ega bo‘ldi. XAMAS Isroilning yashash huquqini tan olmaydi. Harakatning yaqin davrdagi maqsadi – Isroilning 1967 yilda bosib olingan falastin yerlaridan chiqib ketishiga erishish, yakuniy maqsadi – muqaddam Angliya mandat asosida boshqargan sobiq Falastin hududida islom davlati barpo etish. XAMAS partiyasining shuningdek, siyosiy va harbiy qanoti mavjud (Izzad-Din al-Kassam). Hozirda islomiy harakatga Xolid Mashal boshchilik qilmoqda. XAMAS Isroil, AQSH va Yevropa ittifoqining terroristik tashkilotlar ro‘yxatiga kiritilgan.

- suv resurslari cheklanganligi;
- Falastin avtonomiyasi va Isroil o‘rtasidagi mojaro;
- arab mamlakatlarida siyosiy jarayonlar rivojlanishida demokratik an'analar yo‘qligi;
- zo‘ravonlikka zamin yaratuvchi terrorchilik harakatlari;
- yadro quroli tarqalishi va undan mintaqaviy mojarolarda foydalanish xavfi.

**Qaytarish uchun savollar:**

1. Falastin-Isroil mojarosi rivojlanishidagi asosiy tarixiy bosqichlar.
2. Falastin-Isroil mojarosi dinamikasiga baho bering.
3. Tinchlik o‘rnatish bo‘yicha muzokaralar jarayoniga tavsif bering.
4. Mojaro hududida bugungi kunda yuzaga kelgan vaziyatning xususiyatlari va uni hal etish istiqbollari qanday?

## **4. MOJAROLARNING OLDINI OLISH VA PREVENTIV DIPLOMATIYA VAZIFALARI**

1. Preventiv diplomatiya tavsifi va mohiyatiga yondashuvlar.
2. Nizo omillari va mojarolarning oldini olish strategiyasi (erta chora ko‘rish va tarkibiy oldini olish).
3. BMTning mojarolar oldini olish strategiyasi.

### **1. Preventiv diplomatiya tavsifi va mohiyatiga yondashuvlar**

Tarixdan ayonki, qurolli to‘qnashuvlar va urushlar aksariyat hollarda o‘zi bilan vayronagarchilik va zulm olib keladi. Zulmni oldini olish, zulm va zo‘ravonlik qilish ehtimolini kamaytirish uchun nima qilish kerak? Siyosatdonlar, diplomatlar va olimlar bu masalada deyarli yakdillar: mojaroning oldini olish uchun imkon qadar harakat qilish, uning halokatli ko‘rinishlari va oqibatlari yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Zulmga olib kelishi mumkin bo‘lgan mojarolarni oldini olish kerakligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Terminologiya nuqtayi nazaridan bu jarayonga ta’rif berish uchun turli talqinlardan foydalilanildi, ammo ularning ichida eng keng tarqalgani – “Preventiv diplomatiya” tushunchasi.

Uning mohiyati ikkita asosiy yondashuvdan iborat. Garchi ular bir maqsadni ko‘zlasa-da, mazmunan biroz farq qiladi. Birinchisi, mojaro avjiga olmasligi va keng tarqalib ketmasligi uchun, mojaro boshlanayotgan bosqichda oldini olish strategiyalarini qo‘llashni nazarda tutadi. Ikkinchisi, ushbu strategiyalarini nafaqat mojaro boshlanganda yoki undan oldingi vaziyatda, balki dinamikada qo‘llashni nazarda tutadi. Birinchi holatda gap oldini olish to‘g‘risida boradi. Avvalo, yuz berish ehtimoli katta mojarolarning salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirish, qurolli va, birinchi navbatda, harbiy zulm qo‘llashni istisno qilish nazarda tutiladi. Preventiv diplomatiyaning mohiyati – mojarolarning oldini olish, o‘z vaqtida chora ko‘rishdan iborat bo‘lib, u mojarolar va ularning manbalari bilan ular chuqurlashib, keng quloch yoygandan keyin emas, balki yuzaga kelishi bilanoq kurash boshlashni taqozo etadi. Bu borada preventiv diplomatiyaning mohiyati beziyon nizo va ziddiyatlarning doimiy zulm va qurolli kuch ishlatishgacha yetib borib, boshqarib bo‘lmaydigan jarayonga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat. M.Land<sup>1</sup> diplomatiyaning har xil turlarini munosabatlar dinamikasi bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganadi. “Munosabatlar”

---

<sup>1</sup> Ланд М. Концепция, методы и цели (в кн. Конфликты: теория и практика разрешения. Т. II. – Алматы, 2002. – С.176.

deganda u ham hamkorlik, ham qarama-qarshilikni nazarda tutadi, oldini olish strategiyasini qo'llash mumkin bo'lgan joyni ko'rsatib beradi.

	<b>Tinchlik davridagi o'zaro munosabatlar</b>	<b>Preventiv diplomatiya</b>	<b>Inqirozli boshqarish va harbiy diplomatiya</b>
Mojaro jadalligi	past; zulm ehtimoli kam yoki sezilarli emas (masalan, Kvebek o'z taqdirini o'zi belgilishi tarafdarlari harakati)	o'rtacha; zulm ehtimoli bor yoki bo'ladi (masalan, Qrimning ajralib chiqishi)	yuqori; zulm o'tkazilmoqda yoki zulm o'tkazishi muqarrar
Vaqt oralig'i	Uzoq muddatda	O'rta va qisqa muddat oralig'ida	Tez muddatda
Vazifalar	Oddiy muzokaralar va har kunlik davlat ishlari bilan shug'ullanish. Barqaror munosabatlar, institutlarni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash. Uzoq kelajakda – milliy va umumbashariy farovonlikni oshirish..	Keskinlikni yumshatadigan, nizolarni hal qiladigan, mojaroni bartaraf etadigan inqirozga yo'l qo'ymaydigan strategiyalarni, jarayonlarni amalga oshirish.	inqiroz rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik, zulm va irodaga qarshi majbur qilishni to'xtatish, urushni tugatish, harbiy harakatlarni to'xtatishga majbur qilish.
Misollar	"Katta yettililik" sammitlari. AQSh va Xitoy o'rtasidagi ikki tomonlama muzokaralar. Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika kelishuvlari	To'rt tomonlama (Berlin) kelishuv. Kam sonli millatlar ishi bo'yicha YEXHT Komissari faoliyati. Yadro qurolini tarqatmaslik dasturi. Makedoniyada tinchlik saqlash bo'yicha preventiv diplomatiyani amalga oshirish.	Suets kanali inqirozi, Karib inqirozi, Iroq va Eron o'rtasidagi urushda BMT vositachiligi. Bosniyadagi urushda tinchlikni qo'llab-quvvatlash.

Shunday qilib, preventiv choralar va oldini olish strategiyalaridan ko‘zlangan maqsad – mavjud yoki potensial nizolar adovat yoki ommaviy zulmgacha o‘sib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik, aksincha, ularni oddiy, tinch, barqaror munosabatlar va oddiy diplomatiya oqimiga qaytarishdir. Ammo, oldini olish strategiyalari samara bermasa, vaziyat inqiroz tomon rivojlanaversa, keyinchalik oldini olish strategiyasi va diplomatiya o‘rnini inqiroz diplomatiyasi egallashi kerak. Ya’ni, preventiv choralar beqaror tinchlik bosqichida samara beradi va ularni qat’iy farqlash kerak.

## **2. Nizo omillari va mojarolarni oldini olish strategiyasi (erta chora ko‘rish va tarkibiy oldini olish)**

Qayd etilganidek, preventiv choralarни va oldini olish strategiyasi mazmunini ta’riflashga yondashuvlar turlicha. Binobarin, ikkinchi yondashuvga muvofiq oldini olish strategiyalari yoki preventiv diplomatiya vazifalarini kengroq ifodalash kerak. Shuni eslatish o‘rinli bo‘ladiki, mojarolarning oldini olish g‘oyasi va “preventiv diplomatiya” termini birinchi marta D.Xamersheld tomonidan 1960-yilda qo‘llanilgan. Keyinchalik Butros Gali preventiv diplomatiyaga “taraflar o‘rtasida nizolar kelib chiqishini, mavjud nizolarning keskinlashib, mojaro darajasigacha borishini oldini olishga, mavjud mojarolarni cheklashga qaratilgan harakatlar”, deya ta’rif berib, bu terminni keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Shunday qilib, mojaroli munosabatlar dinamikasini ko‘z oldimizga keltiradigan bo‘lsak, preventiv choraldan mojaroning qulay shart-sharoit tug‘ilgan vaziyatdan tortib, mojaro yetilgan va keng tarqalgan vaziyatgacha bo‘lgan turli bosqichlari va darajalarida amalga oshirish kerakligini ko‘ramiz.

Mazkur ikki yondashuvni inobatga olgan holda preventiv diplomatiyani quyidagicha ta’riflash mumkin.

Preventiv diplomatiya – bu beqaror mintaqalarda murakkab davrda iqtisodiy, ijtimoiy va global o‘zgarishlarning beqarorlikka olib keluvchi salbiy ta’siri ostida yuzaga keladigan siyosiy ziddiyatlarni hal etish maqsadida qurolli kuchlar yoki shunga o‘xshash tazyiq vositalaridan foydalanish xavfining oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat. Bunday faoliyat qator “diplomatik” (tor ma’noda), siyosiy, harbiy, iqtisodiy va boshqa mexanizmlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi va hukumatlar, davlatlararo va nodavlat tashkilotlar, alohida insonlar tomonidan, shuningdek, nizo taraflarining o‘zi tomonidan amalga oshirilishi mumkin<sup>1</sup>.

Karnegi Komissiyasining “Zulmkor mojarolar oldini olish” yakuniy hisobotida oldini olish choralarini mohiyati aniq-ravshan ochib berilgan:

---

<sup>1</sup> Ланд М. Концепция, методы и цели. (вkn. Конфликты: теория и практика разрешения. Т.II). – Алматы, 2002. – С. 169-170.

•zulmkor mojarolar namoyon bo‘lishini oldini olish – hukumat organlari bo‘lgan, qonun ustunligiga asoslangan, keng tarqalgan iqtisodiy imkoniyatlarga ega, ijtimoiy institutlar tarmog‘i yaxshi tashkil etilgan, asosiy inson huquqlari himoyalangan, yuridik salohiyatga ega davlat yaratish va fuqarolik jamiyati shakllantirish nazarda tutiladi;

•mavjud mojaro davlat ichida va davlatlar o‘rtasida keng tarqalishini oldini olishga siyosiy, iqtisodiy va, zarur bo‘lsa, harbiy to‘siqlar yaratish orqali erishiladi. Urushni inkor etuvchi, yaxshi tashkil etilgan va qat’iy da’vatlar yordamida, shuningdek, mojaro qurbanlari ahvolini yengillashtiradigan insonparvarlik operatsiyalari yordamida qurolli otishmalarni to‘xtatib turish;

•takror zulm o‘tkazilishi oldini olish maqsadiga tinchlik yo‘li bilan erishish mumkin bo‘lgan qulay va xavfsiz muhit yuzaga keltirish orqali erishiladi. Bunday sharoit, ya’ni muhit mojaro hududiga tezlik bilan xavfsizlik kuchlari kiritish orqali yaratiladi. Maqsad – agressorni aniqlash va unga qurolsizlanishni taklif etib, barqarorlikka erishish. Zudlik bilan qonuniy siyosiy hukumatni tiklashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish, zarur organlarni tiklash va normal iqtisodiy faollikni yangidan boshlash bo‘yicha tashqi va ichki sa’y-harakatlarni birlashtirish maqsadida mahalliy politsiya, sud tizimi va shu kabi institutlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda yordam berish zarur.

Bostirib kelayotgan zulmdan qutilishga qaratilgan choralarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

- erta chora ko‘rish va erta mas’uliyat; preventiv diplomatiya;

- tarkibiy oldini olish (xavfsizlik, atom, biologik, kimyoviy qurol tarqatmaslik tartibi, xavfsiz rivojlanishni qo‘llash maqsadida turli davlat va xalqaro tashkilotlar birlashishi, rivojlanmagan mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishiga yordam berish, adolatli xalqaro tartibot yaratish, adolatli milliy tartibot (rejim)lar yaratish).

Mojaroga olib keluvchi omillar va mojaroning ehtimoldagi preventorlari<sup>1</sup>:

Miqyos	Mojaro keltirib chiqaruvchi omillar	Ehtimoldagi preventorlar
Global miqyosda	Xalqaro tizimlarga zid tuzilmalar	Xalqaro tartibdagi o‘zgarishlar
Mintaqaviy miqyosda	Mintaqaviy diasporalar	Xavfsizlik masalalari bo‘yicha mintaqaviy kelishuvlar

<sup>1</sup>Аклаев А.Р. Этно-политическая конфликтология. Анализ и менеджмент. – М.: Дело, 2005. – С.414- 415.

Davlat miqyosida	Etnik stratifikatsiya Qoloq iqtisodiyot Avtoritar boshqaruv Inson huquqlari poymol etilishi	Konsotsiatsiya (federalizm), avtonomlashtirish siyosati. Iqtisodiy rivojlanishga ko‘mak. Demokratlashtirish orqali boshqaruvni qonuniylashtirish. Huquqiy davlat, qonun ustunligi, inson huquqlari monitoringi va himoyasi
Jamiyat miqyosida	Qoloq jamiyat Sust kommunikatsiya tizimlari. Qarama-qarshi guruhlararo da’vatlar	Fuqarolik jamiyati tuzilmalarini mustahkamlash. “Davra suhbatlari”, trening-seminarlar, madaniyatlararo aloqalar va dialoglarni rivojlantirish. Kross-madaniy aspektda ishslash
Xususiy miqyosda	Radikal va ekstremistik guruhlar yetakchilari	Oqil yetakchilar pozitsiyasini mustahkamlash

Tarkibiy oldini olish qator chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu choralar xavfsizlikni ta’minlashga, mojaroning tub sabablari bilan ishslashga qaratilgan strategiyalarga yo‘naltirilgan. Hozirgi dunyoda xavfsizlikning bir necha manbai bor:

### 1.Ommaviy qirg‘in quollarini (OQQ) qo‘llash xavfi.

Tarkibiy oldini olish choralari yadro qurollari va materiallari hisobini olib borish, qayerda va qachon yadro quroli yaratilishi va qo‘llanilishi mumkinligini kuzatish, shuningdek, yadro arsenallarini qisqartirishga qaratilgan sa'y-harakatlar (MAGATE) xavfsizligini ta’minlashdan iborat. Bunday qarama-qarshilikning oldini olishda davlatlar tomonidan xalqaro huquq normalari tan olinishi va ixtiyoriy tarzda bajarilishigina tarkibiy chora bo‘lishi mumkin.

### 2. Ichki zulm – terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, qatag‘on siyosati.

Bu kabi mojaro manbalarini oldini olishda tarkibiy choralar – qonuniylikning huquqiy mexanizmlarini rivojlantirish, fuqarolik jamiyati

institutlarini rivojlantirish. Davlat va xalqaro institutlar birgalikda va alohida amalga oshiradigan kompleks chora-tadbirlar terrorizm bilan kurashish vositasi vazifasini bajarishi mumkin. Mazkur institutlar jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy jihatlariga lozim darajada e'tibor berishlari, ya'ni terrorchilar uchun qulay ijtimoiy sharoit yaratilishiga yo'l qo'ymasliklari lozim. Bu yerda ushbu tahlika va xavflar chegara va masofa bilmasligini va xalqaro tus olishi mumkinligini albatta inobatga olish kerak.

Ko'plab olim va amaliyotchilar preventiv choralar mojarodan oldingi vaziyatda, mojaro rivojlanib borayotgan vaziyatda va mojarodan keyingi vaziyatda zarur deb hisoblaydilar. Mojaro o'sib borishining turli bosqichida amalga oshiriladigan preventiv choralar strategiyasini ishlab chiqish uchun turli indikatorlardan foydalaniladi. Tinch taraqqiyot va mojarolar oldini olishni maqsad qilgan mintaqaviy va global xalqaro tashkilotlar tomonidan bunday strategiyalar ishlab chiqilishiga quyidagi indikatorlar asos bo'ladi:

- u yoki bu mamlakat, yoki mintaqada yuzaga kelgan beqaror siyosiy vaziyat;
- ichki mojarolar rivojlanishi yoki eskalatsiyasi (u yoki bu davlat, yoki mintaqaga miqyosida);
- taraflar o'rtasida ochiqdan-ochiq qurolli to'qnashuvlar;
- "etnik tozalash" va genotsid;
- inson huquqlari poymol etilishi, kam sonli guruhlarni tahqirlash;
- "vaqtincha ko'chirilgan shaxslar", qochoqlar oqimi paydo bo'lishi faktlari;
- gumanitar halokat, tabiiy ofatlar;
- davlat to'ntarilishlari.

S.Xofmann etnik zulm o'tkazilishi ehtimoli bor joylar indikatorlarini aniqlashda davlatning gumanitar-huquqiy tartibni nazorat qilish, ya'ni o'z fuqarolarining hayoti va mulkini himoya qilishni va fuqarolik erkinliklarini kafolatlash qobiliyati sustligini inobatga olishni taklif etadi. U ichki tartibni lozim darajada nazorat qila olmaydigan davlatlarni uch toifaga ajratadi: "qurbi yetmagan", "inqirozdagi", "jinoiy".

"Qurbi yetmagan" davlatlarda (masalan, Somali, Liberiya, Kolumbiya) davlat o'z tasarrufidagi hududlar ustidan nazoratni butkul qo'ldan chiqargan, shu bilan birga, bu vazifani o'z zimmasiga oladigan boshqa kuchlar ham yo'q. "Inqirozdagi" davlatlarda (Sudan, Ruanda, Shri-Lanka, Gruziya) davlat o'z tasarrufidagi hududlarning aksariyat qismida nazoratni qo'ldan chiqargan; hukumat konstitutsiyaga zid tartibda o'zgarishi kuzatiladi. Xofmanning fikricha, "jinoiy" davlatlar kam sonli millatlarga nisbatan

qatag‘on siyosati olib borishi bilan ajralib turadi. Masalan, Iroq, Gaiti 1991-yildan 1994-yillargacha bo‘lgan davrda<sup>1</sup>.

Turli miqyosdagi zulmkor mojarolar sabablari va preventorlari<sup>2</sup>.

Miqyos	Sabablarga misollar	Preventorlarga misollar
Global miqyosda	kolonial davrdan qolgan meros	Kam sonli guruqlar huquqlari ta'minlanishi xalqaro tartibi
Mintaqaviy miqyosda	Mojaroning mintaqaga tarqalishi	Mintaqaviy institutlar yordamida mojaroning oldini olish
Davlat (jamiyat)	Davlat hokimiyati bitta etnik guruh tomonidan monopolizatsiya qilinishi	Ovozlarni qo‘shish, etnik aralash partiyalarga krossetnik saylov
Mojarolashuvchi taraf	Xutu va Tutsi qabilalari o‘rtasidagi adovat	Kamchilikni tashkil etuvchi guruhlarning pragmatik yondashuvi
Elita (shaxslar)	Xutu qabilasi yo‘lboshchilari Tutsi qabilasiga qarshi genotsid kampaniyasini tashkil etadilar	Mamlakat prezidenti xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini qabul qiladi

Mojarolarni **oldini olishdan** asosiy maqsad – mojaroni siyosiy darajada ushlab turish va zulmkorlik darajasigacha kengayishiga olib keluvchi sabablarni bartaraf etish. Zulmkorlik darajasigacha kengaygan mojaroni siyosat darajasiga qaytarish uchun diplomatik urinishlar qilinayotganda mojaroni **boshqarish** to‘g‘risida so‘z boradi. Amalda bo‘lmasa ham, hech bo‘Imaganda, konseptual darajada muammolarning siyosiy yechimi topilgani mojaro **hal etilganini** anglatadi.

Bu faoliyatning barcha turlari turli xil taktik vositalarni taqozo etadi – harbiy kuchdan tortib to diplomatik choralargacha, iqtisodiy bosim o‘tkazishdan to ijtimoiy va madaniy dasturlargacha. Umumiyligi maqsad butun dunyoda mojarolarni bartaraf etish emas, balki davlatlarga o‘zaro munosabatlarda “murosa madaniyati”ni singdirishdan iboratdir, toki ular zulm va zo‘ravonlik qilmasdan mojarolarni boshqara olsinlar, hal etsinlar va tinchlik yo‘liga bursinlar.

<sup>1</sup>Hofmann S. The politics and ethics of military intervention. Survival, L., 1996.Vol.37, #4 P.29-51.

<sup>2</sup>Аклаев А.Р. Этно-политическая конфликтология. Анализ и менеджмент. – М., Дело, 2005. – С.414- 415.

### 3.Mojarolarni oldini olish bo'yicha xalqaro institutlar strategiyasi

Preventiv diplomatiya ko'plab subyektlar tomonidan ham davlat miqyosida, ham davlatdan tashqari miqyosda, ya'ni BMT, mintaqaviy tashkilotlar, BMTga a'zo davlatlar, global nohukumat tashkilotlar va xususiy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro barqarorlikni saqlash, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash va xalqaro mojarolarni ogohlantirish va oldini olishda BMT, ayniqsa, muhim o'rinni tutadi. BMT preventiv diplomatiyasining maqsadi – potensial mojarolarni, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega mojarolarni bartaraf etish. Ushbu maqsadda qashshoqlik va qoloqlik, korrupsiya, siyosiy beqarorlik bilan kurashish bo'yicha uzoq muddatli dasturlar, shuningdek, ekologik muammolarni hal etish, millatlararo va dinlararo ziddiyatlarni bartaraf etish bo'yicha dasturlar ishlab chiqiladi. Bu ishlarni BMTning ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar masalalar bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkilotlari amalga oshiradi. Shu bilan birga, yetilib kelayotgan ziddiyatlarni yoki xavfliroq bosqichga o'tish ehtimoli bor mojarolarni vaqtida aniqlash maqsadida dunyoning turli burchaklaridagi vaziyatlar o'rganiladi.

Mojarolarni oldini olish bo'yicha sa'y-harakatlar samara bermagan taqdirda preventiv tusga ega tinchlik o'rnatish aksiyalari o'tkazish masalasi ko'tariladi. Bu aksiyalarning mohiyati nizolarni hal etish uchun xalqaro-huquqiy mexanizmlardan, masalan, sud va arbitraj tizimidan foydalanishdan, shuningdek, muzokarolar olib borish, mojarodan tinchlik yo'li bilan chiqish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda xolis xizmat ko'rsatishdan iborat. Tinchlik o'rnatish nafaqat yuridik, siyosiy, diplomatik resurslardan, ba'zi hollarda harbiy kuchdan foydalanishni ham taqozo etadi. Zamonaviy mojarolarni hal etishda turli operatsiyalar – tinchlik o'rnatish operatsiyalari – TO'O, tinchlikni saqlash operatsiyalari – TSO olib boriladi.

Tinchlik o'rnatish operatsiyalari – xalqaro va noxalqaro mojarolarning oldini olish, keskinligini yumshatish, hal etish, oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha muvofiqlashtirishlган tizimlar orqali mojaro chiqqan mintaqalarda xalqaro tinchlik va barqarorlikni tiklash bo'yicha birgalikdagi xalqaro sa'y-harakatlarning siyosiy-diplomatik, harbiy va boshqa shakl va usullari majmuidir<sup>1</sup>.

*Mojaro xavfi bor mintaqalarda mojarolarning oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan tinchlik o'rnatish faoliyati bosqichlari, turlari, tiplari va shakllari<sup>2</sup>.*

---

<sup>1</sup> Современные международные отношения и мировая политика. Учебник / отв. Ред. А.В. Торкунов. – М: Просвещение, 2005. – С.229-234.

<sup>2</sup> Современные международные отношения и мировая политика. Учебник / отв. Ред. А.В. Торкунов. – М.: Просвещение, 2005. – С.229-234.

**MOJARODAN OLDINGI TINCHLIK O'R NATISH FAOLIYATI**

Bosqichlar	Tinchlik o'rnatish faoliyati turlari	Huquqiy tip	TO'O muayyan shakllari va elementlari
	Ishonch choralari va mojarolarga erta chora ko'rish	TSO	Axborot to'plash va tahlil qilish, faktlarni aniqlash
		TSO	Xalqaro tashkilot va mojaro taraflarining siyosiy dialogi
		TSO	Diplomatik tashabbuslar, fuqarolarning vositachilik missiyalari
		TSO	Operatsiya ishtirokchilarining nodavlat nashr tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi
	Preventiv xalqaro sanksiyalar	TO'O	Iqtisodiy sanksiyalar (qurol-yarog' bilan savdo qilishni man etish, hisob raqamlarni hibsga olish va hokazo)
			Siyosiy sanksiyalar (diplomatik munosabatlarni uzish, xalqaro tashkilotlardan chiqarib yuborish, ultimatumlar)
			Mintaqani blokada qilish
	Preventiv harbiy-kuch ishlatish choralari	TSO' TO'O	Siyosiy talablarni bajarishga majbur qilish uchun harbiy kuch qo'llash

		Mojaro hududiga tashqaridan kirishni (insurgensiyanı) va qurol-yarog‘ yetkazib berishni cheklash
		Ajratish, taraflarning provokatsiya va harbiy harakatlar boshlanishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan pozitsiyalarini ajratish
Preventiv insonparvarlik choraları	TSO	Fuqarolarni qisman evakuatsiya qilish. Kamchilikni tashkil etuvchi guruhlarni himoya qilish, infratuzilma obyektlarini (elektr stansiyalari, aerodromlar, kasalxonalar va hokazo) qo‘riqlash.
	TSO	Aholiga oziq-ovqat yetkazib berish, tibbiy va insonparvarlik yordami ko‘rsatish

### 3. BMTning mojarolar oldini olish strategiyasi

BMTning quolsizlantirish dasturlari preventiv diplomatiyaning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. BMT tashkil etilgan paytdan boshlab, tashkilot faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri – tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, har tomonlama quolsizlantirish va qurollarni cheklashdir. Insoniyatga katta xavf tug‘diruvchi yadro qurolini qisqartirish va yo‘q qilish, kimyoviy qurollarni yo‘q qilish va biologik qurolni man etishga tashkilot alohida e’tibor beradi. Shuningdek, o‘qotar quollar va yengil quollar barqarorlikka xavf tug‘diradigan darajada to‘planishiga, piyoda askarlarga qarshi yer usti minalaridan ommaviy foydalanishga qarshi kurashishni kuchaytirish ham tashkilotning diqqat markazida turadi. BMT kotibiyatida BA (Bosh Assambleya) tomonidan quolsizlantirish masalalari yuzasidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bilan Qurolsizlantirish masalalari bo‘yicha Departament (QMD) shug‘ullanadi.

Qurolsizlantirish muammolarini tadqiq qilish bo‘yicha BMT instituti (YUNIDIR) qurolsizlantirish va u bilan bog‘liq muammolar, birinchi navbatda, xalqaro xavfsizlik muammolari bo‘yicha mustaqil tadqiqotlar olib boradi. Bugungi kunga qadar ko‘p tomonlama asosda qurolsizlantirish masalalari bo‘yicha 15 dan ortiq kelishuvlar imzolangan, aynan shu

kelishuvlar hozirgi dunyoda xavfsizlik tizimi asoslarini tashkil etadi. Ular ichida eng muhimlari: 1963-yildagi “Qurolini atmosferada, koinotda, suv ostida sinovdan o’tkazishni man etish to‘g‘risida”gi shartnoma (Sinovlarni qisman man etish to‘g‘risida shartnoma). Unga ko‘ra yadro quollarini faqat yer ustidagi poligonlarda o’tkazishga ruxsat beriladi. 1968-yilgi “Yadro qurolini tarqatmaslik to‘g‘risida”gi shartnomaga muvofiq yadro quroliga ega bo‘limgan davlatlar hech qachon uni sotib olmaslikka roziliklarini, evaziga ularga yadro energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanishda yordam va’da qilinadi. 1972-yilgi “Bakteriologik (biologik) qurol to‘g‘risida konvensiya” (BQTK) biologik va tarkibida toksinlar bo‘lgan preparatlarni ishlab chiqishni, ishlab chiqarishni va to‘plashni man etadi, shuningdek, bunday qurolni va uni yetkazish vositalarini yo‘q qilishni nazarda tutadi. 1996-yilgi “Yadro sinovlarini butkul man etish to‘g‘risida”gi shartnoma butun dunyoda har qanday muhitda har qanday yadro sinovlarini man etishni nazarda tutadi<sup>1</sup>.

1967-yilda imzolangan “Lotin Amerikasi va Karib basseynida yadro qurolini man etish to‘g‘risida”gi shartnoma (Tlateleko shartnomasi) qurolyarog‘ ustidan mintaqaviy nazorat borasidagi yangi yutuqlarni ortda qoldirgan hodisa bo‘ldi. Shartnoma dunyoning aholi yashaydigan qismida birinchi bo‘lib yadro qurolidan xoli zonani yaratdi. Yadrosiz zona, shuningdek, Tinch Okeanining janubiy qismida (Rarotongo shartnomasi, 1985-y.), Janubi-Sharqi Osiyoda (Bangkok shartnomasi, 1995-y.) va Afrikada (Pelinbad shartnomasi, 1996-y.) tashkil etildi. Mazkur shartnomalar samarasi o‘laroq Janubiy yarim sharning aholi yashaydigan qismi yadro qurolidan holi zona maqomiga ega. 2002-yil sentabr oyida Markaziy Osiyoning beshta davlati (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston) Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona tashkil etish to‘g‘risidagi shartnoma matnnini oldindan kelishib oldilar.

Zamonaviy bosqichda BMT faoliyatining asosiy yo‘nalishi “Mingyillik Deklaratsiyasi”da<sup>2</sup> qayd etilgan strategik dasturiy maqsadlarni amalga oshirishdir. Bugun BMT o‘z oldiga qo‘yan vazifani “tarkibiy oldini olish” vazifasi deb aytish mumkin. “Taraqqiyot muammolari” deb atalmish muammolar ustidan olib boriladigan ishlar tinchlik va xavfsizlik asoslarini tashkil etuvchi preventiv strategiyaning muhim qismidir. BMT global miqyosda munosib barqaror rivojlanishga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan. Bugungi kunda hal etilishi kerak bo‘lgan masalalar:

- 1) qashshoqlik va ochlikni tugatish;
- 2) barcha boshlang‘ich ta’lim olishini ta’minlash;

---

<sup>1</sup> Основные факты об Организации Объединенных наций. – М., Весь мир, 2005. – С. 162.

<sup>2</sup> Основные факты об Организации Объединенных наций. – М., Весь мир, 2005. – С. 223.

3) erkaklar va ayollar tengligini rag‘batlantirish va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;

4) bolalar o‘limini qisqartirish;

5) onalikni himoya qilishni yaxshilash;

6) IIV/OITS, bezgak va boshqa kasalliklar bilan kurashish;

7) ekologik barqarorlikni ta’minlash;

8) taraqqiyot yo‘lida global sheriklikni ta’minlash.

2015-yilgacha o‘ta qashshoq yashaydigan insonlar sonini ikki marta qisqartirish, o‘g‘il va qiz bolalar boshlang‘ich ta’lim olishini ta’minlash, onalar o‘limini qisqartirish (2015-yilga qadar to‘rtadan uch qismga), OITS tarqalishini to‘xtatish, vayronalarda yashovchi kamida 100 mln. kishining hayotini yaxshilash ko‘zda tutilgan.

Bugun dunyo aholisining deyarli yarmi, asosan, Osiyo va Afrika, Lotin Amerikasi va Karib basseynida kuniga 2 dollardan kam mablag‘ga yashashga majburligi BMTni jiddiy xavotirga solmoqda. Qariyb 860 mln. kishi savodsiz, 100 milliondan ortiq bolalar maktabga borish imkoniga ega emas, 1 milliarddan ortiq kishi SUV quvuri va kanalizatsiya yo‘q joylarda yashaydi. 2002-yil oxirida dunyoda 180 millionta ishsiz bo‘lgan, “ishlaydigan qashshoqlar” – kuniga 1 dollardan kam mehnat haqi oladiganlar soni 55 mln. kishidan ortdi<sup>1</sup>.

Ham davlat ichida, ham davlatlar o‘rtasida kambag‘allik va tengsizlikni bartaraf etish BMTning asosiya maqsadlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) BMTning iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy organ, uning amaliy dastagidir. Shuningdek, u xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish va bu borada siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asosiy forum hisoblanadi. EKOSOS qoshida shaxsan o‘zi nomidan ish ko‘radigan 24 ekspertdan iborat rivojlanish borasidagi siyosat bo‘yicha komitet faoliyat yuritadi. Komitet yuzaga keladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolar bo‘yicha maslahat organi vazifasini bajaradi. Komitet, shuningdek, davlatlarni “eng kam rivojlangan mamlakatlar” (EKRM) kategoriyasiga kiritish mezonlarini ishlab chiqadi. Bundan tashqari, BMT doirasida Osiyo va Tinch okeani, Afrika, Yevropa, G‘arbiy Osiyo, Lotin Amerikasi va Karib basseyni mintaqalari taraqqiyoti bilan shug‘ullanuvchi beshta mintaqaviy komissiya tashkil etilgan. Bu komissiyalar ishini BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi muvofiqlashtiradi. Komissiyalar mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga va ular o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga ko‘maklashish maqsadida tuzilgan<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Основные факты об ООН. – М: Весь мир, 2005. – С.185.

<sup>2</sup>[www.uneca.org](http://www.uneca.org), [www.unece.org](http://www.unece.org), [www.eclac.org](http://www.eclac.org), [www.unescap.org](http://www.unescap.org)

BMT Taraqqiyot dasturi (BMT TD) rivojlanayotgan mamlakatlarni rivojlanish masalalarida qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'sis etilgan. BMT TD siyosiy tavsiyalar ishlab chiqadi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi institutsional salohiyat yaratishga ko'maklashadi. BMT TD vakolatxonalar dunyoning 166 davlatida keng qamrovli faoliyat olib boradi. Ushbu vakolatxonalar mamlakatlarda qashshoqlik bilan kurashish, inqirozlar oldini olish hamda harbiy mojarolar va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, energetika muammolari, OITS tarqalishining oldini olish kabi muammolarni hal etishda yordam beradilar. BMT TDning mintaqaviy dasturlari milliy kadrlar tajribasiga tayanadi va, asosan, mahalliy kadrlar tomonidan amalga oshiriladi.

Afrika BMT faoliyatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. 1996-yilda BA Afrika bo'yicha Umumtizim ijtimoiy tashabbus bilan chiqdi. Mazkur tashabbus doirasida bandlikni kengaytirish orqali kamabag'allik bilan kurashish maqsadida BMTning "Afrika uchun ish o'rnlari" dasturi milliy va mintaqaviy salohiyat rivojlantirish va mustahkamlashga yo'naltirildi. Keyinchalik BMT TDning ayollar uchun dasturlari, ta'lim dasturlari, Afrika davlatlarida OITS bilan kurashish dasturi, BMT Bosh kotibining Afrika mamlakatlarining qarz yukini yengillashtirish va taraqqiyotga rasmiy yordamni ko'paytirish bo'yicha tashabbusi amalga oshirildi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, BMT faoliyati oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish talab etiladigan indikatorlar ishlaydigan mamlakatlarga yordam berishni tashkil etish tizimlari orqali mojarolar va ularning og'ir oqibatlarini oldini olishga yo'naltirilgan. BMTni isloh qilish jarayoni aksariyat yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi, biroq uning asosiy jihatlari (harbiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy) bir butunligi nuqtayi nazaridan xavfsizlikka yondashuv islohotlarning bo'lajak yo'nalishlarini belgilashda hal qiluvchi asos bo'ladi.

### **Qaytarish uchun savollar:**

1. Preventiv diplomatiyaga ta'rif bering va uning mohiyatiga asosiy yondashuvlarni aytib bering.
2. Mojarolarni oldini olishning asosiy usullari va strategiyalari nimalardan iborat?
3. Mojarolarni oldini olish bo'yicha xalqaro institutlar (BMT, YEXHT, xalqaro nodavlat tashkilotlar) strategiyasiga baho bering.

---

<sup>1</sup> Основные факты об ООН. – М: Весь мир, 2005. – С.190.

## **5. ZAMONAVIY XALQARO MOJAROLAR: BOSHQARISH VA HAL ETISH MODELLARI**

### **(Kosovo misolida)**

1. Tarixiy kontekst va Kosovo mojarosining rivojlanish bosqichlari.
2. Kosovo muammosini o‘rganishning yuridik jihatlari.
3. Mojaroni hal etishga urinishlar.
4. Kosovoda milliy-siyosiy mojaroni boshqarish modellari.

Ko‘plab davlatlarning ichidagi va xalqaro mojarolarni tahlil qilish hamda hal etish modellarini izlash zarurati siyosat fanida mojaroshunoslik yo‘nalishi shakllanishiga asos soldi. Aynan shu yo‘nalish bichimi u yoki bu mojaro bilan bog‘liq barcha jihatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilishni taqozo etadi. Tahlil muayyan mojaroni tadqiq qilishga individual yondashishga asoslanadi, bunda umumiy shablon va sxemalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ammo bir qator asosiy masalalar borki, ularni inobatga olmay bo‘lmaydi. Muammo tarixi, mojaro rivojlanishi dinamikasi, uning tuzilmasi va mojaroda ishtirok etuvchi asosiy tomonlar tavsifi va hal etishga urinayotgan vositachilar, muzokaralar jarayoni va ularning ishtirokchilari tavsifi hal etish ssenariysi va modellari – bular hali zamonaviy mojarolarni tahlil qilishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan elementlarning barchasi emas.

### **1. Tarixiy kontekst va Kosovoda mojaro rivojlanishininig asosiy bosqichlari**

Bunday tahlil uchun Kosovo mojarosini misol qilib olish mumkin, chunki aynan shu mojaro ham mojarolarning sabablari va dinamikasini tadqiq qilish, ham boshqarish va hal etish usullari va strategiyalari nuqtayi nazaridan qiziqarli material taklif etadi.

Zamonaviy mojaroshunoslikda “mojarolarni oldini olish”, “boshqarish”, “hal etish” terminlari juda ko‘p ishlataladi va, allaqachon, odatiy bo‘lib qoldi, shu munosabat bilan mojaroshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri boshqarish modellari va hal etish usullarini qidirishdan iborat. Shunday qilib, zamonaviy mojaroshunoslik davlatlar ichidagi va xalqaro mojarolarni hal etish bo‘yicha barcha ehtimoliy variantlar, takliflar va modellarga juda katta ahamiyat beradi.

Bayon etilgan elementlarni tahlil qilish uchun biz Kosovodagi mojaroni tanladik. Kosovo mojarosi mojaroni boshqarish jarayoni xususiyatlarini va hal etishning ehtimoliy modellarini yaqqol misolda kuzatish imkonini beradi.

Ushbu mojaro yuzaga kelgan kundan boshlab, uni milliy-siyosiy mojaro deb baholash mumkin, negaki uning negizida Kosovo o‘lkasida yashovchi

serb va alban millatiga mansub fuqarolarning qarama-qarshi manfaatlari yotadi, shuningdek, taraflarning talablari siyosiy vositalar yordamida bayon etilgan. Maqom to‘g‘risidagi masala kun tartibiga qo‘yilgach, mojaro mutlaq siyosiy tus oldi.

Har qanday mojaroni tahlil etish uchun uning tarixini o‘rganish lozim, chunki aynan tarix qarama-qarshiliklarning sabab va oqibatlarini yaqqol ko‘rsatib beradi. Kosovo mojarosi negizi yashiringan tarixni uch bosqichga bo‘lish mumkin: Yugoslaviya Federatsiyasi tashkil etilishigacha bo‘lgan davr, Sovet davri, o‘tgan asrning 90-yillaridan bugungi kungacha bo‘lgan davr.

Yugoslaviya va Albaniya tarix fanlarida alban tarixinining dastlabki bosqichida alban millati hozir egallab turgan o‘z ona yerlarida qanday paydo bo‘lgani borasida bahslar hozirgacha to‘xtamaydi. Serbiya Fanlar Akademiyasining Tarix instituti direktori S.Terzich Kosovo va Metoxiya o‘lkalari hech qachon hech qanday alban davlati tarkibiga kirmagani, XII asrdan boshlab esa ular o‘rta asrlardagi Serb davlati tarkibiga kirgani va shu davrdan boshlab Yevropa faniga Serbiya tarixiy viloyati sifatida ma’lumligi, XIV asrda “... o‘rta asrlardagi Serb davlatining janubiy chegaralari zamonaviy Albaniya hududidan oqib o‘tagidan Mat daryosidan o‘tgani” umume’tirof etilgan fakt deb hisoblaydi. “Serb qiroli Dushan bosib olgandan so‘ng deyarli butun Albaniya Serb qirolligi tarkibiga kirgan. Ammo bu tarixiy faktdan kelib chiqib, serblarhozirda zamonaviy Albaniya hududini tashkil etuvchi yerkarta haqlimiz, deganxulosagakelmaydilar”. 1389-yilda bo‘lib o‘tgan serblarning turklarga qarshi mashhur jangidan so‘ng Kosovo serblar uchun matonat, turk istilosiga qarshilik timsoliga aylangan va hozirgacha bujangserb eposi, adabiyoti, san’ati va ijtimoiy ongida alohida o‘rin tutadi. Tarixchilar serb davlatining ildizlari aynan Kosovoda ekanligini ta’kidlaydilar.

Albaniyada esa, aksincha, Kosovo “aholisi tub illir-alban millatidan iborat hudud bo‘lganini, bu xalq Kosovoda nafaqat turli tarixiy davrlarda doimo yashab kelgan, balki aholining ko‘pchilik qismini tashkil etgan”, deb hisoblaydilar. “IX-XI asrlarda Kosovoga slavyanlar bostirib kirgani va u bolgar va serb davlatlari tarkibiga kirganiga qaramasdan, albanlar o‘z yerlarida ko‘pchilikni tashkil etganlar, slavyanlashish jarayoniga samarali qarshilik ko‘rsatganlar”<sup>1</sup>.

Bolqon ittifoqi mamlakatlari (Serbiya, Chernogoriya, Bolgariya va Gretsiya) Turkiyaga qarshi olib borgan Birinchi Bolqon urushida (1912-1913-yy.) Turkiya o‘zining Bolqondagi barcha hududlarini qo‘ldan berdi,

---

<sup>1</sup>Гуськова Е. Динамика косовского кризиса и политика России. Из. Кн. Международные аспекты кризиса в Косово. www.carnegie.ru

Bolqon ittifoqi mamlakatlari hududlari esa kengaydi. “Buyuk davlatlar” sa'y-harakatlari bilan mustaqil Albaniya tashkil etilganiga qaramay, serb hukumati Kosovo va Metoxiya masalasida hech qancha murosaga bormagan, bu yerlarni serb halqining “muqaddas yerlari” deb hisoblagan. Shunday qilib, Kosovo va Metoxiya Serbiya tasarrufiga o'tgan. Bu Albaniya Serbiyaga hududiy da'vo bildirishiga, albanlar uchun Kosovo Serbiya tomonidan bosib olinganini e'lon qilib, 1918yilda Tirana yordamida bu viloyatlar Albaniya tarkibiga qo'shilishi uchun kurash boshlashlariga sabab bo'lgan<sup>1</sup>.

Ikkinci Jahon urushi so'ngida Albaniya va Yugoslaviya hukumatlari Albaniya Yugoslaviya bilan birlashishi kerak, degan fikrda yakdil edilar. Bu Yugoslaviyadagi alban millatiga mansub aholi muammosini hal etgan bo'lardi. I.Tito ko'proq o'zi o'ylab qo'ygan “Bolqon Federatsiyasi” taqdiri to'g'risida qayg'urar edi. Federatsiya asosini Yugoslaviya tashkil etishi kerak edi. Albanlar uning rejasini yoqlashlari uchun u Serbiya tarkibidagi Kosovoni qurbon qilishga tayyor edi. Albaniya prezidenti A.Xo'ja I.Titoning VKP(b) MKga yozgan xatidagi so'zlarini birma-bir qaytarib, shunday deydi: “Kosovo Albaniyaga tegishli va Albaniyaga qo'shilishi kerak. Biz buni chin dildan istaymiz, ammo hozirda bunga yo'l qo'yolmaymiz, chunki velikoserblarning reaksiyasi haligacha juda kuchli”<sup>2</sup>. Federatsiya g'oyasi I.Tito uchun uzoq vaqt dolzarbligicha qoldi va u ikki davlatni yaqinlashtirish bo'yicha o'z urinishlarini to'xtatmadи. 1946-1947-yillarda 46ta shartnoma imzolangan bo'lib, ularda Albaniya va Yugoslaviya yagona iqtisodiy siyosat yuritishi deyarli belgilab qo'yilgan edi. Hamkorlik to'g'risida shartnomalar va vizalarni bekor qilish to'g'risida kelishuv I.Titoning “Kosovo va Metoxiya aholisini Albaniya aholisi bilan yaqinlashtirish bo'yicha barcha choralarni ko'rish” rejalariga mos edi<sup>3</sup>.

Sotsialistik Yugoslaviyada federativ munosabatlar o'rnatishga doim katta ahamiyat berilgan. YUFXRning *birinchi* Konstitutsiyasiga (1946-y.) SSSR ning 1936-yildagi Konstitutsiyasi ta'siri katta edi. Konstitutsiya Yugoslaviyani “respublika tipidagi federativ davlat, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, shu jumladan, ajralib chiqish huquqi asosida birgalikda federativ davlatda yashash istagini bildirgan teng huquqli xalqlar birlashmasi” deb e'lon qildi. Hududida yashovchi xalqlar va kam sonli millatlar hamdo'stligi sifatida respublikalar ittifoqdosh birlik bo'ldilar. Serbiya murakkab federal birlik sifatida belgilangan edi. Taxminan 500 ming

<sup>1</sup>Гуськова Е. Динамика косовского кризиса и политика России. Из. Кн. Международные аспекты кризиса в Косово. www.carnegie.ru

<sup>2</sup>Ляука И. Эволюция проблемы Косово и ее современное состояние: Автореф. дис... канд. полит.наук. – М., 1994. – С. 7.

<sup>3</sup>Валев Э. Б. Югославский клубок // География. – 1996. – № 13. – С. 4.

vengrlar yashaydigan Voyevodino hamda Kosovo va Metoxiya (Kosmet) Serbiya tarkibidagi avtonom oblast maqomini oldi. Respublikalar va federal organlar o‘rtasidagi munosabatlar markaziy hokimiyat ustuvorligi prinsipiga asoslangan edi. 1963-yili Konstitutsiya ziddiyatlarga to‘la edi: bir tarafdan kam sonli millatlarning huquqiy holati mustahkamlangan (ular endilikda elatlar deb atalar edi), avtonom oblastlarga (shu jumladan, Kosovoga) o‘lka maqomi berilgan bo‘lsa, boshqa tarafdan mamlakatning siyosiy tizimida millatlarning ahamiyati kamaygan edi. 1967-yildan to 1971-yilgacha Konstitutsiyaga 42 ta tuzatish kiritilgan bo‘lib, ular respublika va o‘lkalarning suveren huquqlarini oshirib, federatsiyaning huquq va vakolatlarini kamaytirgan edi. Mazkur tuzatishlar yordamida millatlararo nizolarning sabablarini bartaraf etish ko‘zda tutilgan edi. Ammo millatchilik kayfiyatlarri rivojlanishining oldini olib bo‘lmadi. 1974-yilgi uchinchi Konstitutsiyaga muvofiq respublika va avtonom o‘lkalarga yanada keng huquqlar berilgan, ular yanada ko‘p siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishgan edilar. Voyevodino va Kosovo o‘z ichki hayotiga taalluqli barcha masalalarni o‘zлari hal qilish vakolatini qo‘lga kirtdilar. Lekin, bu Konstitutsiya ham millatchilik chiqishlarini bartaraf eta olmadi.

O‘lkadagi ochiqdan-ochiq mojarodan oldin yuz bergen hodisalar va siyosatni 1986-yilda saylangan Serbiya kommunistalari uyushmasi MK raisi S.Miloshevich nomi bilan bog‘laydilar. 1987-yilda siyosatdonning xalq ommasi orasidagi obro‘sni keskin oshdi. Uning aprel oyida Kosovo-Poledagi chiqishi, bu chiqishda u birinchi bor Serbiyaning Yugoslaviya federatsiyasi tarkibidagiadolatsiz holati to‘g‘risida so‘z ochishi va serb xalqiga himoya va’da qilishi serb xalqi tomonidan milliy dastur sifatida qabul qilindi. 80-yillar oxiriga kelib, u siyosiy-hukumat oligarxiyasida alohida mavqyega ega bo‘ldi va deyarli “Serbiyaning daxlsiz siyosiy rahbariga aylandi”<sup>1</sup>. U hukumatning markazlashtirilishi va o‘lkalarning qator vakolatlari bekor qilinishi orqaligina vaziyatni barqarorlashtirish mumkinligiga amin edi. Hukumat tepasida 1974-yilgi Konstitutsiya Serbiyani zaiflashtirdi, uni o‘z davlatchiligidagi ega bo‘lish huquqidan mahrum etdi, degan fikrlar ustun edi. Serbiyada respublikaning huquqiy, hududiy va ma’muriy birligi va avtonom o‘lkalar huquqlarini cheklash kampaniyasi avj oldi. 1990-yilda yangi Konstitutsiya qabul qilinib, bu o‘zgarishlar qonuniylashtirildi. Bu o‘zgarishlar avtonom o‘lkalarda, xususan, Kovosoda juda salbiy qabul qilindi.

Kosovoning maqomi o‘zgarishiga javoban xalq ommasi chiqishlari va politsiya bilan to‘qnashuvlar ortdi, vaqt o‘tishi bilan ular ommaviy tus oldi:

---

<sup>1</sup>Documents diplomatiques: Correspondanceconcernant les actes de violence et de brigandage des AlbanaisdanslaVieille-Serbie (Vilayet de Kossovo) 1898-1899. – Belgrade, 1899. – P. 16.

1990-yil yanvar oyida namoyishlarda taxminan 40 ming albanlar ishtirok etar edi. O'lkaga kiritilgan harbiy qismlar va politsiya kuch bilan shaharlarda tartib o'mnatishta harakat qilardi. Bu davrga kelib federatsiya parchalanishi muqarrarligi aniq bo'ldi, Xorvatiya va Sloveniya ajralib chiqish yo'lini tanladilar va o'z xohishlarini yuridik choralar bilan tasdiqladilar – respublika parlamenti qarorlari, tegishli deklaratsiyalar qabul qilindi, xalq referendumda o'z xohish-irodasini bildirdi. Kosovo ham Xorvatiya va Sloveniya tanlagan yo'ldan ketishga qaror qildi. 1990-yil 2-iyulda, Sloveniya "Sloveniya Respublikasining to'liq davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya" qabul qilgan kuni, o'lka skupshchinasining alban delegatlari "Konstitutsion deklaratsiya" qabul qilib, Kosovoni respublika, deb e'lon qildilar. Bunga javoban Serbiya skupshchinasini o'lkada jamoat tartibi buzilayotganini asos qilib ko'rsatgan holda, Kosovo skupshchinasini tarqatib yubordi. Ushbu sharoitda 1990-yil 7-sentabrda tarqatib yuborilgan o'lka skupshchinasini delegatlari butkul maxfiy tarzda o'lkanning yangi konstitutsiyasini qabul qildilar. Ushbu Konstitutsiyaga ko'ra Kosovo respublika, deb e'lon qilingan, respublika fuqarolari endilikda o'z taqdirlarini o'zlarini hal etish huquqiga ega edilar. Bu harakat Serbiya rahbariyati tomonidan respublikaning hududiy yaxlitligini buzuvchi aksilkonstitutsiyaviy harakat sifatida baholangan edi.

O'lkadagi ahvolni barqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy choralarining hech biri kutilgan natija bermadi. Mojaro respublika sarhadlaridan tashqariga chiqdi va butun mamlakat uchun o'tkir muammoga aylandi, uni 10 yil mobaynida na harbiy kuch, na tegishli partiyaviy rezolyutsiya va qarorlar, na avtonomiyani cheklash choralarini yordamida hal qilib bo'lmadi.

Shunday qilib, mojaro rivojini ikkita muhim elementning tarkibiy qismi sifatida baholash mumkin, bular – yashirin bosqich va oshkor bosqich. Yashirin bosqichda nizoli munosabatlar va ziddiyatlar, zo'rlik ishlatilgan ayrim to'qnashuvlar namoyon bo'lsada, federatsiya butunligi saqlanib, o'z maqomini yo'qotmay. Ochiq bosqichda zo'rlik ochiqdan-ochiq ishlatiladi, fuqarolar o'rtasidagi qarama-qarshilik va taraflar o'rtasidagi keskinlik ortadi.

Mazkur mojaro tahliliga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda demografik omilga katta e'tibor qaratiladi. Aynan Kosovo o'lkasida alban millatiga mansub aholi soni ortishi bilan bog'liq demografik vaziyat mojaroli munosabatlar xususiyati va rivoji hamda keyinchalik siyosiy talablar qo'yilishiga sabab bo'ldi. Demografik vaziyat rivojlanishi 90-yillar boshida mintaqada o'ziga xos nomutanosiblik yuzaga kelishiga, ya'ni albanlar aholining 90 foizi, serblar esa 10 foizini tashkil etishiga olib keldi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Международные аспекты кризиса в Косово. – [www.carnegie.ru](http://www.carnegie.ru)

## **2. Kosovo muammosini o‘rganishning yuridik jihatlari**

Maqom to‘g‘risidagi masala kun tartibiga qo‘yilgach, muammoning etnik jihatni uning yuridik jihatni bilan o‘zaro bog‘liqlik kasb etadi.

Kosovo inqirozi zamonaviy xalqaro munosabatlar tajribasida mislsiz hodisa bo‘ldi. Tarixda birinchi bor suveren davlatga nisbatan harbiy kuch tashqi tajovuzga javob tariqasida emas, balki ichki mojaroga va davlatning o‘z aholisiga nisbatan zulmi sifatida qo‘llanildi. Ammo bu zarbalar BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a‘zolari o‘rtasida yuzaga kelgan jiddiy kelishmovchiliklar sababli BMT qaroriga muvofiq Xavfsizlik Kengashi ruxsatisiz amalga oshirildi, bu esa xalqaro huquq nuqtayi nazaridan intervensiya huquqiy asosga ega bo‘lmasini anglatadi. Ekspertlar 1975-yildagi Yakuniy Xelsinki aktida qayd etilgan xalqaro huquqning ikki prinsipi o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelganini qayd etadilar. Bir tarafdan, hududiy butunlik va chegaralar daxlsizligi prinsipi, ikkinchi tarafdan, xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi prinsipi. Agar mojarogacha jahon hamjamiyati chegaralar daxlsizligi prinsipiga rioya qilishga harakat qilgan bo‘lsa, Kosovodagi mojaroga kelganda, bu ziddiyat birinchi bor ikkinchi prinsip foydasiga hal bo‘ldi. Tashqi intervensiya va keyinchalik 2008-yil 17-fevralda Kosovoning mustaqil davlat, deb e’lon qilinishi zamonaviy xalqaro huquqda mislsiz hodisa bo‘ldi.

## **3. Mojaroni hal etishga urinishlar**

Kosovo mojarosi va manfaatlari to‘qnashuvi allaqachon diqqat markaziga tushgan, hatto, uni hal etish rejalarini ham ishlab chiqilgan edi. Xususan, serb yozuvchisi D.Chosich 1968-yildayoq Serbiya komunistlar uyushmasi MK plenumida mamlakatda millatlararo munosabatlarda muammolar mavjudligi. Shu jumladan, Kosovo muammosi to‘g‘risida ochiq so‘zlagan. Albanlarning o‘lkani ajratib olish uchun kurashi qanchalik og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan ko‘rib bilib, o‘lkani alban va serb qismiga bo‘lish rejasini ishlab chiqadi. Rejaga muvofiq o‘lkaning 200 dan ortiq serb madaniyati yodgorliklari – pravoslav cherkovlari va monastirlari Serbiya hududiga o‘tishi ko‘zda tutilgan edi. O‘scha vaqtida D.Chosichning g‘oyasi mamlakat rahbariyatiga xush kelmadidi. Uning o‘zi keskin tangqid ostiga olindi.

1994-yilda o‘lkada vaziyat yana bir bor keskinlashganda, yana bir bor Kosovoni ajratish masalasi ko‘tarildi. Professor Branislav Krstich muammoni hal etish bo‘yicha o‘z variantini taklif etdi. U o‘z variantini ishlab chiqayotganda, avvalo, Kosovo va Metoxiyada ikki huquq to‘qnashganligini inobatga olgan edi: serb xalqining tarixiy huquqi va alban milliy hamdo‘stligining etnik huquqlari. B.Krstichning fikricha faqat hududlarni

ajratibgina bu ikki huquqni amalga oshirish mumkin. “Krstich rejası”ga muvofiq albanlarga alban madaniyati yodgorliklari joylashgan hududlar hamda alban aholi yashaydigan g‘arbiy va janubiy viloyatlar ajratib berilishi kerak edi. Bu yerlarga B.Krstich keng hududiy muxtoriyat berishni taklif etgan edi. Asosan serb va chernogor aholi yashaydigan qolgan hududlar Serbiya va Chernogoriya tarkibiga qo‘silishi kerak edi<sup>1</sup>.

1996-yilda akademik Miodrag Yovichich mamlakatni mintaqalarga bo‘lish g‘oyasini ilgari surdi. Bu g‘oyaga ko‘ra Kosovo va Metoxiya ikkita alohida mintaqa bo‘lishi kerak edi. U quyidagi nuqtayi nazardan kelib chiqqan: birinchidan, Serbiya o‘z tarkibida Kosovo va Metoxiyani saqlab qolishi kerak, ikkinchidan, bugungi dunyoda barcha fuqarolar, millatidan qat’iy nazar, teng huquqli bo‘lishlari kerak, shuning uchun milliy muxtoriyatlar – bu anaxronizm, uchinchidan, Kosovo va Metoxiya avtonom o‘lkalari 1945-yildan boshlab Serbiya uchun doimiy muammo manbaiga aylangan. M.Yovichich qayd etishicha, natijada “Kosovo va Metoxiya yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan noto‘g‘ri davlat tuzilishi namunasiga aylangan, shuning uchun ularni, albatta, likivdatsiya qilish kerak”<sup>2</sup>. M.Yovichichning rejasiga ko‘ra mamlakat 13ta mintaqa, ya’ni o‘z hokimiyat organlari – ikki palatali skupshchina va hukumatga ega, ammo davlatchilik elemetlariga ega bo‘lmagan keng muxtoriyat huquqlari berilgan hududiy birliklarga bo‘linishi kerak bo‘lgan. Bunda har bir mintaqa geografik, iqtisodiy va madaniy butunlikni tashkil etishi kerak edi.

Serbiya tarixchisi Dushan Batakovich Kosovoni kantonlarga bo‘lish rejasini ishlab chiqdi. D.Batakovichning fikriga ko‘ra, o‘lkani 18ta kantonga bo‘lish kerak bo‘lib, shulardan 5tasida serb aholi ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lardi. Serb kantonlari Serbiyaning konstitutsion tizimiga kirishi mumkin edi, alban kantonlari esa Yugoslaviya bilan federal darajada munosabat o‘rnatishlari, Serbiyaga nisbatan juda kam majburiyatlarga ega bo‘lishlari kerak edi.

1997-yilda Kosovo muammosini hal etishga xalqaro hamjamiyat ham qo‘sildi. Bu jarayonda Aloqa guruhi, BMT, YEXHT, NATO, shuningdek, ayrim mamlakatlar rahbarlari faol ishtirok etdilar. 1997-yil noyabr oyida Fransiya va Germaniya Tashqi ishlar vazirliklari o‘lkaga muayyan o‘tish davriga maxsus “oraliq” maqom berish tashabbusi bilan chiqdilar. Ushbu tashabbusga muvofiq, xalqaro tashkilotlar yordamida Kosovoni Serbiya yurisdiksiyasidan tinch siyosiy yo‘l bilan chiqarish hamda “teng huquqli

<sup>1</sup> Терзич С. Историческая подоплека событий в Косово и Метохии. Обозреватель. 1998. – №10. – С. 40.

<sup>2</sup> Письмо Э. Ходжи в ЦК ВКП (б) о предыстории возникновения косовского вопроса и методах его решения. Восточная Европа в документах российских архивов 1944-1953. Т. 2: 1949-1953. – Москва; Новосибирск: Сибир. хронограф, 1998. – С. 206.

xalqlar va davlatlarning bo‘lajak hamjamiyatida” Kosovo uchun teng huquqlilikni ta’minlaydigan tegishli demokratik siyosiy infratuzilma shakllantirish” uchun eng maqbul shart-sharoit yaratilishi ko‘zda tutilgan edi. Albanlar ushbu tashabbusni jo‘shqin qabul qildilar. Chunki ular uchun har qanday maxsus maqom ularning Serbiyadan ajralib chiqishga intilishlari amalga oshishini yaqinlashtiruvchi qadam edi. Aynan shu sababga ko‘ra Serbiya rahbariyati bu tashabbusga qarshi chiqdi. Ma’lumki, 1997-yilda NATO Yugoslaviya prezidentini mojaroga harbiy kuch bilan aralashish, aniqrog‘i, havodan ma’lum nishonlarga qarata zarba berish ehtimoli borligi to‘g‘risida ogohlantirgan holda mojaroni hal etishga aralashdi.

1998-yilning oktabr oyida Kosovoda vaziyat keskinlashdi, Serbiya politsiyasi va Kosovo Ozodlik armiyasi o‘rtasida ochiqdan ochiq urush boshlandi. NATO Serbiya politsiyasi va YUXA qo‘shinlari o‘lkada harbiy operatsiyalarni davom ettirgan taqdirda havo hujumlari boshlashini ma’lum qilib, Yugoslaviyani qo‘rqitar edi. NATO vakillari alyans BMT Xavfsizlik Kengashining ruxsatisiz zarba berishga tayyorligini ma’lum qildi. NATOga a’zo mamlakatlar ehtimoliy harbiy hujumga tayyorgarlik boshladilar.

1999-yil fevral oyida Parij yaqinidagi Rambuye shaharchasida muzokalararning birinchi raundi 17 kun davom etdi. 16 kishini tashkil etgan Alaniya delegatsiyasi, asosan, Kosovo Ozodlik armiyasi, I.Rugova boshchiligidagi Kosovo Demokratik ligasi, shuningdek, Redjep Chosya boshchiligidagi Birlashgan demokratik harakat vakillaridan iborat edi. Delegatsiyaga KOA jangarilari komandirlaridan biri Hoshim Tochi rahbarlik qilgan edi. 14 kishidan iborat Serbiya delegatsiyasi tarkibiga esa rasmiy kishilardan tashqari huquqshunos olimlar, shuningdek, turk, alban, lo‘li va Kosovoda yashovchi boshqa millat vakillari kirgan edi.

6-fevralda Rambuyeda boshlangan tinchlik konferensiyasida Aloqa guruhi tomonidan ishlab chiqilgan Kosovo muammosini hal etish prinsiplari, shu jumladan, “Kosovo keng muxtoriyati elementlari” muhokama etilishi ko‘zda tutilgan edi. Ammo, ishtiropchilarga muhokama etish uchun “Kosovo va Metoxiyada o‘zini o‘zi boshqarish va tinchlik to‘g‘risida vaqtinchalik shartnoma”ning ayrim qismlari – Ramkali hujjat hamda Kosovo Konstitutsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarish va sud organlariga saylovlar masalasiga oydinlik kirituvchi to‘qqizta ilovadan beshtasi havola etilgan edi. Faqat bir haftadan keyin delegatlar iqtisodiy masalalarga taalluqli yana bir ilovani oldilar. Ushbu hujjatlar matni Aloqa guruhi bilan kelishilgan, 10ta banddan iborat bo‘lgan mojaroni tinchlik yo‘li bilan hal qilish prinsiplari to‘g‘risidagi siyosiy bayonot matni bilan mos kelmasligiga qaramay, delegatsiyalar ishni davom ettirdilar. YUIR delegatsiyasi talab qilayotgan qo‘shimchalarning barchasi Serbiya va Yugoslaviyaning hududiy butunligini saqlab qolish to‘g‘risidagi hujjatlar bo‘yicha edi.

23-fevralda Aloqa guruhi muzokaralar jarayonida siljish kuzatilganini bayon qildi va tez orada hujjatning siyosiy qismidagi barcha masalalar bo'yicha tomonlar kelishib olishlariga umid bildirdi. Ammo ko'zda tutilgan kelishuvning to'liq matnini taraflarga faqat muzokaralarning oxirgi kuni taqdim etdilar. Serbiya delegatsiyasi matnning 68 foizini birinchi bor ko'rib turgani ma'lum bo'ldi. Xususan, ikkita ilova (2-paragraf va 7-paragraf) Aloqa guruhi tomonidan dastlab ko'rib chiqilmagan bo'lib, ayrim guruh a'zolarining tinchlik bitimi tuzilishi bilan avtomat tarzda NATO qo'shinlarini kiritish va politsiya kuchlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflariga asoslangan edi. Hujjatga ilova qilingan xatda "yakuniy taklif Rambuye uchrashuvida qabul qilingan qoidalarni o'z ichiga olgani", shuningdek, "Rossiya 2- va 7-ilovalarga qo'shilmasligi" (Rossiya vakili, elchi Boris Mayorskiy hujjat ostiga o'z imzosini "2- va 7-ilovalardan tashqari" degan izoh bilan qo'ydi), javobini shu kuni soat 13dan kechikmay berish shartligi ta'kidlangan edi<sup>1</sup>.

Muzokaralarning birinchi bosqichidan so'ng taraflar siyosiy bayonotlar bilan cheklanishga qaror qildilar. Yugoslaviya delegatsiyasi Rambuyedagi kelishuvlarga qaramay, muzokaralarni davom ettirish kerakligini, bunda Kosovo muxtoriyati elementlarini aniq belgilab olish hamda Serbiya va Yugoslaviya hududiy butunligini tasdiqlash zarurligini qayd etdi. Kosovo vakillari o'z bayonotida uch yildan keyin Kosovoning alban aholisi mustaqillik to'g'risida referendum o'tkazish imkoniga ega bo'lsagina shartnomani imzolashini ma'lum qildi. AQSh vakillari muzokaralarni davom ettirish imkoniyatini rad etdilar va taklif etilgan matn ikkinchi raundning birinchi kuni imzolanishi kerakligini eslatib o'tdilar. YUIRga deyarli ultimatum e'lon qilindi: agar Yugoslaviya delegatsiyasi tinchlik bitimini imzolaydigan bo'lsa, o'lka hududiga NATO qo'shinlari kiritilishi, imzo chekishdan bosh tortilsa, muzokaralar muvaffaqiyatsizlikka uchragani uchun javobgarlik serblarga yuklatilishi, buning uchun bomba zARBALARI tarzida jazo choralar ko'riliши nazarda tutilgan edi.

Yugoslaviya qo'yilgan ultimatumni qat'iy tanqid ostiga oldi va shartnomaning siyosiy qismini imzolashga tayyorligini bildirdi, shu bilan birga uch yillik "o'tish" davri o'tgandan keyin ham Serbiya butunligi kafolatlanishini talab qildi. Faqat shundan keyingina YUIR kelishuv bajarilishi uchun Kovosoga xalqaro kuchlar qancha hajmda kiritilishini va xususiyatini ko'rib chiqishga rozilik bildirishini ma'lum qildi. Albaniya delegatsiyasi ham murosaga bormay, shartnomani imzolashdan va armiyani qurolsizlantirishdan bosh tortdi, shuningdek, uch yillik o'tish davri va o'z

---

<sup>1</sup> Цит. по: Терзич С. Историческая подоплека событий в Косово и Метохии. Обозреватель. 1998. – С. 40.

hududida NATO qo'shinlarini joylashtirish muddati tugaganidan so'ng mustaqillik to'g'risida referendum o'tkazishni talab qildi.

Muzokalarlarning ikkinchi raundi 1999-yil 15-martda Parijda boshlandi. Yugoslaviya delegatsiyasining muzokalarlarni davom ettirish to'g'risidagi taklifi qabul qilinmadni. Albaniya delegatsiyasiga shartnomani bir tomonlama tartibda imzolashga ruxsat berdilar. Rossiya vakili bu hujjatga o'z imzosini qo'yishdan bosh tortdi, chunki Aloqa guruhida uning harbiy ilovalari muhokama qilinmagan edi. Muzokalarlarni deyarli to'xtatib, AQSh va NATO "muzokalar muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga aybdorni" jazolashga tayyorgarlik boshladilar. 1999-yil 24-martda NATO Yugoslaviyaga birinchi raketa-bomba zARBalarini yog'dirdi.

NATOning bu xATTI-harakatlari xalqaro huquq normalariga zid edi, chunki Yugoslaviya bu tashkilot a'zosi emas va alyansga a'zo bo'lмаган mamlakatning ichki mojarolariga aralashish esa uning vakolat doirasiga kiradigan masala emas edi. Yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish maqsadida NATO 1999-yil aprel oyida alyans sammitini o'tkazadi va 1991-yildan keyingi ikkinchi Yangi strategik konsepsiyanı qabul qiladi. Bu hujjatda NATO yer yuzining har qanday burchagidan chiqayotgan xavfsizlikka qarshi xatarga javoban chora ko'rishi mumkinligi to'g'risida yangi maqsadli vazifani qabul qiladi<sup>1</sup>. Shunday qilib, ma'lum vaqt o'tgach, NATO avval sodir etgan xATTI-harakatlarining huquqiy asosini yaratdi. Ammo dunyo hamjamiyati bunga nisbatan salbiy munosabat bildirdi. Xususan, o'sha vaqtarda siyosiy va iqtisodiy inqirozlar domida bo'lgan Rossiya NATOning harakatlariga qarshi fikr bildirdi. Rossiya Serbiya bilan tarixiy, siyosiy va madaniy aloqalarga ega bo'lgan bo'lsada, o'sha vaqtida biron chora ko'rmadi.

O'sha davrda yuzaga kelgan vaziyatni jiddiy inqiroz sifatida baholash mumkin edi. Bu vaziyatda xalqaro tuzum-tartibot maqomi tubdan o'zgaradi va xalqaro huquq asoslari qayta ko'rib chiqiladi. Eski muammolarni hal qilish, yangi inqiroz manbalarini bartaraf etish zarurati dolzarb bo'lgani sababli barcha bunday o'zgarishlar muqarrarligini yaxshi tushunib yetgan edi. Ammo kunning eng katta muammosi – bunday xATTI-harakatlarni kelishtirish va muvofiqlashtirish uchun, xavfsizlik tizimini yaratishda tarixiy yutuqlarni saqlab qolish va yangilariga erishish uchun nima qilish kerakligini anglashda edi.

1999-yil iyun oyida BMT XQ 1244-sonli rezolyutsiyani qabul qiladi. Rezolyutsiyaga muvofiq «Kosovoga BMT rahnamoligida zarur xodimlar va anjomlarga ega xalqaro fuqarolik xizmatlari va xavfizlikni ta'minlash xizmatlari kiritilishi; tegishli xalqaro tashkilotlar yordamida Kosovoda

---

<sup>1</sup>Шепова Н. ООН и некоторые проблемы регионального миротворчества. МЭО и МО. 2008. – №6. – С. 3-12.

muvaqqat ma'muriyat tashkil etish maqsadida BMT Bosh kotibiga o'lkaga xalqaro fuqarolik xizmatlari kiritish vakolati berilishi, mazkur ma'muriyat boshchiligida Kosovo Yugoslaviya Ittifoqdosh Respublikasi doirasida muxtoriyat sifatida faoliyat yuritishi; ushbu muvaqqat ma'muriyat o'tish ma'muriyatini ta'minlashi, shu bilan birga Kosovo aholisi uchun tinch va osoyishta hayot sharoitlarini ta'minlash maqsadida muvaqqat demokratik o'zini o'zi boshqarish organlari yaratilishi va ularni nazorat qilishi" ko'zda tutilgan edi. Ushbu rezolyutsiyada yana "barcha a'zo davlatlarning Yugoslaviya Ittifoqdosh Respublikasi va mintaqadagi boshqa davlatlarning Yakuniy Xelsinki bayonotida ifodalangan<sup>1</sup> suvereniteti va hududiy butunligi tarafdori" ekanligi tasdiqlanadi.

Mojaroni hal etishda ishtirok etgan muayyan xalqaro institutlar mojaroni boshqarish mexanizmi vazifasini o'tadilar. Keyinchalik Kosovo rivojlanishiga xalqaro ko'mak doirasida amalga oshiriladigan ish yo'naliishlari belgilandi. Yuqorida tilga olingan rezolyutsiyaga muvofiq BMT Ustavining VII bobiga asoslangan holda tinchlik o'rnatish operatsiyalariga YEXHT, YEI, NATOning xalqaro tashkilotlari jalb etildi. Ekspertlar bu kompleks yondashuv qo'llanilgan tarixda birinchi tinchlik o'rnatish operatsiyasi bo'lganini qayd etdilar. Bu operatsiyaga "yangi avlod tinchlik o'rnatish operatsiyasi" deb nom berildi. Xususan, YEXHT tashkilotlari demokratik institutlarini rivojlantirishga va saylovlarni tashkil etishga yordam berishi; NATO alyansi xavfsizlikni ta'minlashi va mintaqalari rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi; YEI institutlari mintaqalari iqtisodiyoti rivojlanishi hamda YEI mamlakatlari bilan birlashishi strategiyalarini ishlab chiqishi va taklif etishi lozim edi. Ammo mojaroden chiqish jarayonini boshqarish va mojaroden so'nggi reabilitatsiya BMTning Muvaqqat ma'muriyati zimmasiga yuklatilgan edi.

BMT Kosovoda tinchlik o'rnatish vazifasi Yevropa intitutlari bilan o'zaro hamkorlikda va tinchlik o'rnatish bo'yicha o'tmish tajribasini inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerakligini aniq tushunib yetdi. 2001-yil boshlariga kelib, BMT rahnamoligida 50ta tinchlik o'rnatish operatsiyasi amalga oshirildi, shundan 15tasi 1980-yilgacha, qolganlari keyingi davrda yuz berdi. Tinchlik o'rnatish operatsiyalarida 68 davlatdan kelgan 1 mln. harbiy, politsiya va fuqarolik xizmati xodimlari ishtirok etdi. Xarajatlar 16,61 mlrd.dollarni tashkil etdi<sup>2</sup>. 2000-yilda tinchlik o'rnatish operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha yangi tavsiyalar ishlab chiqildi. Tavsiyalarda kompleks choralar ko'rish nazarda tutilgan edi. Yuksak darajadagi Guruh

---

<sup>1</sup> www.un.org/russian/document/scresol/res1999/res1244.thm

<sup>2</sup> 02.05.2008 йилги <http://ru.wikipedia.org> маълумотлари

tomonidan tayyorlangan ma’ruzada yangicha yondashuv va samarali doktrina<sup>1</sup> ishlabchiqishzarurligiqaydetilganedi.

BMT operatsiyalariga nisbatan xolislik Nizom prinsiplariga rioya etishni anglatishi lozim: agar tinchlik bitimi taraflaridan bittasi uning shartlarini buzsa, bundan keyin BMTning barcha taraflarga birdek munosabati eng yaxshisi besamaralikka olib kelishi mumkin, eng yomoni razolat bilan til biriktirishga teng bo‘lishi mumkin. Hyech bir mag‘lubiyat tashkilotning 90-yillardagi tinchlik o‘rnatish faoliyati obro‘siga qurbonni tajovuzkordan ajratishni istamaslikchalik katta zarar yetkazmagan edi. Agar BMT tinchlikni saqlash va davlatlar ichidagi- transmilliy mojarolarni to‘xtatib, tinchlik o‘rnatish ishida muvaffaqiyatga erishmoqchi ekan, u Kambodja, Somali, Syerra-Leone va Ruandadagi tajribani inobatga olishi lozim.

Shundan keyin XQning 1296-sonli (2000-y.) rezolyutsiyasida harbiy mojaro sharoitida fuqaro aholiga qarshi atayin harakatlar va urushdan aziyat chekkan aholiga insonparvarlik yordami ko‘rsatishdan bosh tortishni o‘zi xalqaro tinchlik va xavfizlikka tahdid solishi mumkin, shu sababdan XQ tomonidan chora ko‘rilihiga sabab bo‘lishi qayd etib qo‘yildi. O‘tmishdagi operatsiyalar tajribasini o‘rganishga alohida bob bag‘ishlangan. Yangi kompleks yondashuv mojarolarning oldini olish va tinchlik o‘rnatish, tinchlikni saqlash va tinch hayot qurish bo‘yicha harakatlarni o‘zaro kelishgan holda amalga oshirishni taqozo etadi. “Sovuq urush” tugagunga qadar BMTning tinchlikni saqlash bo‘yicha operatsiyalari ko‘p hollarda o‘q otishni to‘xtatishni nazorat qilish uchun an’anaviy mandatga ega bo‘lgan va tinch hayot qurish borasida to‘g‘ridan to‘g‘ri vazifalarni o‘z oldiga qo‘ymagan. “Kirib borish strategiyasi” yoki tashkilot kuchlarini olib kirish bo‘yicha hodisalar va qarorlar turkumi juda sodda bo‘lgan: urush, o‘q otishni to‘xtatish, o‘q otishni to‘xtatishni kuzatishga taklif va shu maqsadda harbiy kuzatuvchilarni yoki kuchlarni kiritish, bir vaqtning o‘zida, mojaroni siyosiy yo‘l bilan hal qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarni davom ettirish.

Tinchlikni saqlashda mahalliy taraflarning operatsiyalarni olib borishga roziliklari, beg‘arazliklari va faqat o‘zini himoya qilish maqsadida kuch ishlatishlari muhim. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, mahalliy taraflar roziligini tarozga qo‘yishi yoki umuman rozilik bildirishdan bosh tortishi mumkin, shundan keyin cheklangan mandat tinchlik o‘rnatish missiyasini samarasiz qilib qo‘yadi. Yangi yondashuv ba’zi hollarda “mahalliy taraflar ma’naviy jihatdan teng bo‘lgan subyektlar emas, balki tajovuzkor bilan birga qurbon bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tinchlik o‘rnatish kuchlari kuch ishlatish uchun nafaqat operativ asosga, balki ma’naviy majburiyatga ham ega

---

<sup>1</sup> [www.un.org/peace/reports/peace-operations](http://www.un.org/peace/reports/peace-operations) (Report of the Panel on United Nations Peace Operations, F/55/305-S/2000/809m 21 August 2000)

bo‘lishlari kerak. Ruandardagi genotsidning ildiz otib ketishi sababi shundaki, o‘sha payt mamlakatda olib borilayotgan operatsiyadan ochiq yovuzlikka qarshi turadigan darajada foydalana olinmadi yoki u mustahkamlanadi”<sup>1</sup>.

Mintaqada vaziyat keskinligicha qolardi, vaqtı-vaqtı bilan adovat va ziddiyatli munosabatlar namoyon bo‘lib turar edi. 2004-yil mart oyida vaziyat keskinlashadi va dunyo OAV diqqat markazidan tushmay qoladi. 2005-2007-yillar davomida Kosovoning bo‘lajak maqomi to‘g‘risidagi masalani hal etishga BMT Bosh kotibining maxsus elchisi M.Axtisaari jalg qilinadi. Uning mandatida elchi Bosh kotib bilan maslahatlashuvlar asosida hamda taraflar hamkorligi va joydagi vaziyatni inobatga olgan holda bo‘lajak maqomni belgilash jarayoni sur’ati va davomiyligini aniqlashi kerakligi ko‘rsatilgan edi. “1244-rezolyutsiya qabul qilganidan beri mana 8 yil o‘tdi va Kosovo borasidagi mavhumlikning saqlanib qolishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Kosovoning bo‘lajak maqomi borasidagi mavhumlik – Kosovoning demokratiya yo‘lidan rivojlanishi, hisobot berishi, iqtisodiyoti rivojlanishi va millatlararo totuvlikka xalaqit qiluvchi jiddiy to‘sinqqa aylandi. Bunday mavhumlik to‘xtab qolishga, Kosovo jamoalari o‘rtasidagi nifoq chuqurlashishiga va bularning natijasi o‘laroq tartibsizliklarga va siyosiy chiqishlarga olib keladi”<sup>2</sup>. Axtisaarining fikricha, “Kosovo uchun yagona variant bu dastlabki davrda xalqaro hamjamiyat nazorati ostidagi mustaqillik”. Dokladda qayd etilishicha, “so‘nggi sakkiz yil davomida Kosovo va Serbiya mutlaqo alohida boshqarilib kelindi. Kosovoda BMT missiyasi ta’sis etilishi shunday vaziyatni keltirib chiqardiki, Kosovoni boshqarish bo‘yicha biron vakolatni amalga oshirmayapti. Bu – inkor etib bo‘lmaydigan haqiqat. Kosovo Serbiya boshqaruviga qaytishi aksariyat o‘lka aholisi uchun nomaqbul ish bo‘ladi. Belgrad qat’iy qarshilikka uchramasdan turib, o‘z hokimligini tiklay olmagan bo‘lardi. Serbiya tarkibida Kosovo avtonomiysi, bunday avtonomiya qanchalik shartli bo‘lmasin, amalga oshmaydigan narsa. “Xalqaro boshqaruvni davom ettirishning iloji yo‘q. Ammo MOONK boshqaruvida bo‘lgan davrda Kosovoda ko‘plab tashkilotlar va muassasalar ta’sis etilgan bo‘lib, ular Kosovoni boshqarish bo‘yicha mas’uliyat va vazifalarni borgan sari keng ko‘lamda o‘z zimmalariga olmoqdalar. Ammo MOONK yashashga qodir iqtisodiyot shakllantirishni uddasidan chiqmadi. Kosovoning mavhum siyosiy maqomi unga xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatishga, mintaqaviy iqtisodiyotga qo‘shilishiga hamda asosiy infratuzilmani moliyalashtirish uchun zarur xorijiy kapitalni jalg qilishga xalaqit bermoqda... Kosovoda iqtisodiy

<sup>1</sup>[www.un.org/peace/reports/peace-operations](http://www.un.org/peace/reports/peace-operations) (Report of the Panel on United Nations Peace Operations, F/55/305-S/2000/809m 21 August 2000)

<sup>2</sup>[www.un.org](http://www.un.org). БМТ Бош котиби маҳсус элчисининг Косовонинг бўлажак мақомини белгилаш бўйича доклади

rivojlanishni ta'minlash uchun shunday darajadagi ravshanlik va barqarorlik kerakki, bunga faqat mustaqillikni qo'lga kiritibgina erishish mumkin...M.Axtisaarining fikricha, Kosovodagi vaziyat shunchalik mislsizki, uni hal etish uchun ham mislsiz yechim kerak. Bu yechim boshqa mintaqalardagi hal etilmagan mojarolar uchun yechim bo'la olmaydi. 1244-sonli rezolyutsiyani (1999) bir ovozdan qabul qilib, XK Miloshevichning Kosovodagi xatti-harakatlariga javoban Serbiyani Kosovoni boshqarish huquqidan mahrum etib, vaqtinchalik BMT boshqaruviga o'tkazdi, shuningdek, Kosovo kelajagini ta'minlashga mo'ljallangan siyosiy jarayonlarni belgilab berdi. Ushbu omillar birlashib, Kosovodagi vaziyat mislsizligini isbotladi<sup>1</sup>. Bugungi kunda BMTning ushbu masala yuzasidan nuqtayi nazari shundan iboratki, muammo yechimini kechiktirish nafaqat Kosovo va Bolqonda, balki butun Yevropada tinchlik va xavfsizlikka salbiy ta'sir qiladi. Belgrad va Prishtina o'rtasidagi 15 oyli muzokaralar yakuni bo'yicha hamda BMT maxsus elchisi Marti Axtisaari Kosovo maqomini belgilash bo'yicha Keng qamrovli taklif<sup>2</sup>tayyorlagandan so'ng Prishtina ushbu rejani qabul qildi, ammo bu reja Belgrad tomonidan rad etilgan edi. Natijada Aloqa guruhi (Germaniya, Italiya, Angliya, AQSh. Rossiya, Fransiya) vakillar uchitaligi (AQSh, YEI, Rossiya) olib borilgan muzokaralar asosida kelishuvga kelish maqsadida yana bir bor muzokaralar o'tkazishlari kerakligi to'g'risida qaror qabul qildi. Uchlik mandati muddati 4 oy qilib belgilangan edi. Shu vaqt ichida 10ta sessiya olib borilgan bo'lib, shulardan oltitasi to'g'ridan to'g'ri dialog tariqasida bo'lib o'tdi. Belgrad nomidan prezident Boris Tadich, bosh vazir V.Koshtunitsa va Kosovo ishlari bo'yicha vazir S.Samardjich, Prishtina nomidan prezident Fatmir Seydiu, bosh vazir Agim Cheku, Assambleya vakillari Xoshim Tochi va Veton Suroi ishtirot etdilar.

Ushbu muzokaralarda Prishtina yana bir bor Kosovo mustaqilligi tarafdori ekanini va Axtisaari rejasini qabul qilishini ma'lum qildi. Belgrad Axtisaari taklifini rad etdi va Serbiya tarkibida Kosovo avtonomiyasini tan olish taklifi bilan chiqdi. Shuning uchun Axtisaari rejasi boshqa muhokama

---

<sup>1</sup>www. un. org. BMT Boshkotibi maxsus elchisining Kosovoning bo'lajakmaqomini belgilash bo'yicha dokladi.

<sup>2</sup>www. un. org.“Kosovo maqomini belgilash bo'yicha Keng qamrovli taklifning asosiy mazmuni” ma'rzasidan parcha. “Tartibga solish rejasini kuchga kirgandan so'ng 120 kunlik o'tish davri boshlanadi. O'tish davrida MOONK mandati o'zgarmaydi. O'tish davri mobaynida Kosovo Assambleyasi Xalqaro fuqarolik vakili bilan maslahatlashgan holda yangi konstitutsiya hamda Tartibga solish rejasini amalga oshirish va unda ko'zda tutilgan Kosovo institutlarini shakllantirish uchun zarur qonunlarni tasdiqlash uchun mas'ul bo'ladi. Konstitutsiya va qonunlar o'tish davri tugagach kuchga kiradi. O'tish davri so'ngida MOONK mandati muddati tugaydi va MOONK zimmasiga yuklatilgan barcha qonun chiqarish va ijro etish vakolatlari Tartibga solish rejasiga muvofiq to'liqligicha Kosovo hukumati zimmasiga o'tadi.

etilmadi. Belgrad o‘zining avtonomiya modelini taklif qildi. Modelda Kosovo vakolatlarini kengaytirish, Serbiya vakolatlarini esa qisqartirish ko‘zda tutilgan edi. Serbiya vakillari 1999-yil martigacha hukm surgan vaziyat qaytarilmasligini ma’lum qildilar.

Prishtina ikki mustaqil davlat o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnomani taqdim etdi. Shartnomada ko‘p millatlilik, umumiylar tashkil etish va Yevroatlantika intilishlarini amalga oshirishda bir birini qo‘llab-quvvatlash shartlari ifodalangan edi.

“Uchlik” taraflarga yakuniy variantlar modellarini – mustaqillikdan tortib avtonomiyagacha, shuningdek, konfederativ tuzilish kabi muqobil variantlarni va, hatto, “norozilikka rozilik” prinsipiga asoslangan modelni, ya’ni taraflardan hech biri o‘z nuqtayi nazaridan voz kechmaydigan, lekin shunga qaramay, o‘zaro hamkorlik va maslahatlarni davom ettiradigan modelni o‘rganib chiqishni taklif etdi. 120 kunlik qizg‘in muzokaralardan so‘ng taraflar suverenitet to‘grisidagi asosiy masala bo‘yicha murosaga borishdan bosh tortdilar. Muzokara ishtirokchilari ushbu jarayonni foydali deb topdilar, chunki taraflar nuqtayi nazarlarida mos keladigan jihatlar topildi va o‘qib eshittirildi. Belgrad ham Prishtina ham ularning bo‘lajak munosabatlari uchun ikki mamlakatning Evropa tarkibidagi kelajagi muhimligini va ular EI tarkibiga kirishga intilishlarini tasdiqladilar.

#### **4. Kosovoda milliy-siyosiy mojaroni boshqarish modellari**

“Uchlik” tomonidan muzokaralarga berilgan baho: asosiy xulosalar.

“Uchlik” taraflarning nuqtayi nazarini tahlil qilib chiqdi. Ikkala taraf nuqtayi nazariga zarar yetkazmagan holda, quyidagi prinsiplar vaziyatni hal etishga yo‘l ochadi deb hisoblaymiz:

1. Belgrad va Prishtina o‘z diqqatlarini o‘rtalaridagi alohida tusga ega munosabatlarni, ayniqsa, shu munosabatlarning tarixiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarini rivojlantirishga qaratadilar.
2. Belgrad va Prishtina o‘rtalarida bo‘lajak muammolarni tinchlik yo‘li bilan hal etadilar va boshqa tarafga xavf tug‘diradigan deb baholanishi mumkin bo‘lgan harakatlarda yoki taraddudlarda ishtirok etmaydilar.
3. 1999-yilgacha mavjud bo‘lgan holatga qaytish yo‘q.
4. Belgrad Kosovoni boshqarmaydi va u yerda jismonan ishtirokini tiklamaydi.
5. Belgrad va Prishtina Yevropa Ittifoqi tarkibiga kirishga harakat qiladilar.
6. Taraflar o‘zaro manfaatli masalalarda hamkorlik qiladilar, shu jumladan: -dom-daraksiz yo‘qolgan kishilar taqdirini aniqlashda va ko‘chirilgan kishilarni qaytarishda, kam sonli guruhlarni himoya qilishda, madaniy merosni himoya qilishda; iqtisodiy masalalar, shu jumladan, soliq siyosati va energetika, savdo va YEI bilan standartlarni moslashtirish, iqtisodiy o‘sish va mintaqaviy

iqtisodiy tashabbuslarga muvofiq rivojlanish bo‘yicha birgalikda strategiya ishlab chiqish, tovar va xizmatlarning erkin harakatlanishi; bank sektori; jinoyatchilik bilan, xususan, terrorizm, noqonuniy odam savdosi, qurol-yarog‘ va narkotiklar hamda uyushgan jinoyatchilik bilan kurash.

Bizning fikrimizcha, Aloqa guruhi, vakillar uchligi, mintaqaviy institutlarning ushbu mojaroni hal etishda ishtirok etishi niyoyatda ijobiy holat, chunki bu strategik transformatsiya va tartibga solishga yordam berishi mumkin. Haqiqatan, ikkala taraf kelajakda Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lishni niyat qilganlar va tinchlik kontekstini shakllantirishdan manfaatdor bo‘lganlari sababli ushbu konteksti o‘zgartiradilar. Albatta, eski muammolar, qarashlar, ma’lum darajada adovat saqlanib qoladi, ammo kelajakda taraflar yangi iqtisodiy, muhimi, umumevropacha siyosiy va huquqiy sharoitga kirib borgach, asta-sekin ziddiyatlarni yengishlari va yangi munosabatlar qurishlari imkoniyati mavjud. Bu taxmin transformatsiya nazariyasining ba’zi qonunlariga mos bo‘lib, ushbu nazariyaga ko‘ra kontekst o‘zgarishi va boshqa ishtirokchilar yordamida munosabatlarning yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishi mojaroni hal etishga yordam beradi. SSSRning parchalanib ketishi shunday boshqaruv strategiyasiga misol bo‘la oladi. “Sovuq urush”ning tugashi, yangi mustaqil davlatlar tashkil topishi G‘arb va Sharq o‘rtasidagi adovatni yengishga, yangi ishtirokchilar xalqaro munosabatlar tizimiga qo‘shilishiga yordam berdi.

Xalqaro munosabatlarning ikki qutbli tizimi yo‘q bo‘lgandan so‘ng, tinchlik o‘rnatish jarayonini ko‘p tomondan nazorat qilish tendensiyasi kuchaydi. Dunyoda ko‘p qutbli tizim rivojlanayotgan sharoitda ko‘p tomondan aralashish buyuk davlatlarning bir tomonli intervensionalizmi o‘rnini bosadi. Ammo buyuk davlatlarning tinchlik o‘rnatish missiyalarini tashkil etishda yetakchiligi saqlanib qoladi. NATOning 1999-yilda sobiq Yugoslaviyada harbiy kuch qo‘llashga qaror qilishi tinchlik o‘rnatish jarayonlarini nazorat qilish qonunlari va xalqaro huquq normalarini nazar-pisand qilmaslik tendensiyasidan dalolat edi. Lekin bu mintaqada tinchlik o‘rnatishga yo‘l ochib berdi. Mintaqaviy xavfsizlik tashkilotlariga mintaqaga miqyosida doimiy qonuniy huquq berilishi tinchlik o‘rnatish jarayonlarini nazorat qilish borasidagi ziddiyatlarni qisman bartaraf etadi. Mintaqaviy tashkilotlar mojaro mohiyatini va millatlararo munosabatlar tarixini yaxshiroq biladilar<sup>1</sup>.

Kosovo mojarosini hal etishda bu rolga bir necha mintaqaviy tashkilot da’vo qiladi. Ekspertlarning fikricha, YEXHT bu vazifani bajarishni uddasidan yaxshiroq chiqadi. YEXHTni “kooperativ” xavfsizlikning rasmiy timsoli desa bo‘ladi. YEXHT davlatlar bir biriga nisbatan hamda ichki siyosatda (asosan, inson va kam sonli millatlar huquqlarini ta’minlash borasida) muomalalarini

---

<sup>1</sup> Чернобровкин И.П. Миротворческий контроль внутригосударственных конфликтов: принципы, стратегии, тенденции. Политические науки. 2004. – №4. – С.149.

o'zgartirishlarini taqozo etadi. YEXHT Kosovo mojarosini hal etishda faol ishtirok etishga intilgan edi. Uning rahbariyati bu masalada BMT, NATO va Aloqa guruhi bilan yaqindan aloqa qilgan. BMT XK 1244-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq YEXHT zimmasiga institutsional rivojlanishni ta'minlash vazifasi yuklatilgan edi. Bu sud tizimida, politsiya, davlat ma'muriyatida inson resurslarini mustahkamlashni, demokratlashtirish va boshqarishni, inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qilishni va bu sohada salohiyatni mustahkamlashni, saylovlar o'tkazish va ularning borishini nazorat qilishni nazarda tutadi.

Biroq, YEXHT amalga oshirgan tadbirlar yetarlicha samara bermadi. Bunga ta'sir qilgan omillar ichida, birinchidan, AQSh, Rossiya va Yevropa davlatlari YEXHTning Yevropa xavfsizlik tizimidagi rolini turlicha tushunishi, ikkinchidan, YEXHT ixtiyorida mojarolarni hal etish va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro aloqa qilish mexanizmi uchun mustaqil samarali harbiy kuch yo'qligini ko'rsatish mumkin. Hozirda preventiv choralarmi rivojlantirishni, ayniqsa, mojarodan keyingi dunyo tuzilishini YEXHT o'zi uchun ustuvor vazifa, deb biladi.

NATO boshidanoq Yugoslaviya davlati ichidagi mojarosiga o'z qarashini faol bildirgan. Kosovo voqyealariga munosabat bildirar ekan NATO zudlik bilan aralashishga tayyorligini aytgan va oxiri 1999-yil 24-martda BMT ruxsatisiz Serbiyani bombardimon qilishni boshlagan. Bombardimon qilishni NATO BMTning ruxsatisiz amalga oshirdi, bu, hatto, mintaqaviy tashkilot huquqlari, vakolatlari va vazifalariga zid edi. Shu munosabat bilan NATO muammoni qisman hal etishga qaratilgan choralarmi ko'rdi. Xususan, o'sha 1999-yilning aprel oyida yangi strategik konsepsiya qabul qilindi va unga yangi - tashkilot dunyoning har qanday burchagida sodir bo'lgan va alyans mamlakatlari xavfsizligiga tahdid qiladigan xavfsizlik shartlarini buzish hollariga javoban chora ko'rishga haqli ekanligi to'g'risida band kiritildi. "Amalda bu NATO alyans mamlakatlari hududidan tashqarida harbiy mojarolarni bartaraf etish, tinchlikka majbur qilish, insonparvarlik intervensiysi va shu kabi vaziyatlarni hal etish maqsadida harbiy kuchdan foydalanishga haqli ekanini anglatar edi. Tinchlikka majbur qilish operatsiyalari Kosovoda (1999-y.), Afg'onistonda (2001-y.) va Iroqda (2003-y.) amalga oshirilgan. Keyinchalik, 1244-rezolyutsiya qabul qilingach, tashkilot zimmasiga Kosovoda xavfsiz sharoit yaratish vazifasi yuklatildi.

Olib borilgan tadqiqotdan shuni xulosa qilish mumkinki, sotsialistik tuzum parchalanishi bir qator mojarolarni keltirib chiqardi va shulardan eng fojealisi Yugoslaviyada yuz berdi. Bu ikkita inqirozli jarayonda namoyon bo'ldi. Bir tomonidan, xalqaro munosabatlar andozasi murakkab tarzda qayta shakllanishi, yangi kuch va ta'sir qutblari yuzaga kelishi bo'lsa, ikkinchi tomonidan, xalqaro huquq tizimida ham inqiroz alomatlari sezilishi bo'ldi, aynan birinchisining ta'siri

ostida Ikkinchı Jahon urushidan so'ng tashkil topgan huquq tizimini qayta ko'rib chiqish tendensiyasi paydo bo'ldi.

Aytish mumkinki, Kosovoda yuz bergan hodisalar ko'p jihatdan bahsli hududlar maqomini aniqlash bilan bog'liq xalqaro huquqning yangi normalarini belgilashda namuna bo'ladi va Kosovo hodisisi o'ziga xosligi qayd etilganiga qaramay, modeldan turli variatsiyalarda boshqa mojarolarni hal etishda foydalanish mumkin.

2008-yil 17-fevralda Prishtina bir tomonlama tartibda mustaqillik e'lon qildi. Prishtina mustaqilligini AQSh va G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlari tan oldilar. Hozirda Kosovo mustaqilligi 39 davlat tomonidan tan olingan. Shuningdek, Kosovoning yangi maqomini o'zini o'zi mustqil deb e'lon qilgan, qisman tan olingan davlatlar – Abxaziya, G'arbiy Saxa, Tog'li Qorabog' Respublikasi, Falastin Muxtoriyati, Dnestr bo'yi, Tayvan, Shimoliy Kipr Turk Respublikasi, Janubiy Osetiya tan oldilar<sup>1</sup>.

Mojaro transformatsiyasi konsepsiyasining nazariy doirasi mojaroni hal etishning Kosovoda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir necha variantini nazarda tutadi:

-mojaroli munosabatlar negizida yotgan masalani o'zgartirish. Kosovoda - bu maqom masalasi bo'lib, u taraflardan biri uchun juda alamli va nomaqbul masala, shu sababdan kun tartibiga qo'yilmasligi va boshqa masalalar bilan almashtirilishi lozim;

-mojaroni hal etish uchun qulay kontekst, ya'ni muhit yaratish lozimki, bu muhit ikkala tarafni qoniqtirsin, shunda ular mojaroni aynan shu tariqa hal etishga rozi bo'lsalar ajab emas. Kosovo va Serbiya vaziyatida Yevropa Ittifoqiga kirish va ulkan Yevropa makoni bilan uyg'unlashib ketish istiqboli shunday kontekst vazifasini o'tashi mumkin;

-muzokaralar jarayonini to'g'ri tashkil etish. Albatta, kompromisslar va taraflarning o'zaro aloqalari orqali tinchlikka erishish mumkin. Prishtina va Serbiyaga nisbatan olganda bu hali ham mojaro domida yotgan, manfaatlari ayri taraflar o'rtasida aloqalarni tiklashdir.

### **Qaytarish uchun savollar:**

1. Kosovoda mojaro rivojlanishiga baho bering (yashirin va ochiq bosqich).
2. Kosovo mojarosining yuridik jihatlari qanday?
3. Mojaroni hal etishning asosiy ssenariylari qanday?
4. Mojaroni boshqarish nima. Kosovoda milliy-siyosiy mojaroni boshqarish modelining o'ziga xosligi nimada?

---

<sup>1</sup>02.05.2008 yilgi <http://ru.wikipedia.org>

## **6. MOJARO SHAROITIDA MUZOKALAR JARAYONI**

1. Siyosiy muzokalarlar tavsifi. Muzokalarlarni mojarolarni hal etish usuli sifatida tadqiq qilishga asosiy ilmiy yondashuvlar.

2. Zo'rlik ishlatiladigan mojarolarni to'xtatish uchun olib boriladigan muzokalarlarda kun tartibiga qo'yiladigan asosiy masalalar.

### **1. Siyosiy muzokalarlar tavsifi. Muzokalarlarni mojarolarni hal etish usuli sifatida tadqiq qilishga asosiy ilmiy yondashuvlar.**

“Muzokalarlar” ma'nosini bildiradigan inglizcha “negotiations” so‘zi lotincha “negotians” – “savdogar” so‘zidan olingan bo‘lib, mohiyatan bu tushuncha savdogarlik faoliyati bilan bog‘liqligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, siyosatda “muzokalarlar” tushunchasi kundalik turmushdagiga va iqtisodiyotdagiga nisbatan ancha kech paydo bo‘lgan, chunki ibtidoiy davrda ham inson boshqa odamlar bilan o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va shaxsiy muammolari yuzasidan muzokara olib borishiga to‘g‘ri kelgan.

“Siyosiy muzokalarlar” termini bugungi kunda diplomatiya va xalqaro munosabatlar sohasida mustahkam o‘rin egallagan, chunki aynan muzokalarlar diplomatik faoliyatning asosini tashkil etadi. “Siyosiy tarixning eng qizg‘in bosqichlari muhim siyosiy muzokalarlar bilan alohida ajralib turganki, bu muzokalararning natijalari dunyo siyosatining asosiy prinsiplarini belgilab bergen: buning isboti tariqasida Vena kongressi va Versal shartnomasi, Yalta konferensiyasi va Xelsinki kelishuvlarini eslash kifoya. Ushbu barcha murakkab xalqaro muzokalarlar siyosiy ehtiroslar jumbushga kelishi, fitna-nayranglar avjiga chiqishi, yirik siyosiy xarakterlar to‘qnashishi bilan ajralib turgan. Bu esa siyosiy muzokalarlarda nafaqat strategik, balki murakkab psixologik kontekst yaratadi. Shu sababdan siyosiy muzokalarlarga taraflar o‘rtasidagi mojaroli qarama-qarshilik sharoitida siyosiy kelishuvga erishish san'ati va fani sifatida qarash lozim”<sup>1</sup>.

Muzokalarlar to‘g‘risidagi fanni o‘rganishuchun quyidagi masalalarni o‘rganib chiqish talab etiladi: muzokalarlarni qanday o‘tkazish lozim, mojaro taraflarini qanday qilib muzokalarlar stoliga o‘tqizish mumkin, o‘z nuqtayi nazarini qanday qilib ishlab chiqish va to‘g‘ri ifodalash mumkin, qanday dalil-isbotlar keltirish kerak va muzokalarlarda muxolif taraflar ushbu dalil-isbotlarni to‘g‘ri tushunishlari va qabul qilishlari uchun nimalar qilish lozim, siyosiy qaror qabul qilishda murosaga qanday erishish kerak? Xullas, siyosiy

---

<sup>1</sup> Василенко И.А. Политические переговоры. Учебное пособие. – М.: Гардарики, 2006. С.14.

muzokaralar - bu insonlar o‘rtasidagi siyosiy o‘zaro aloqa va hamkorlikning o‘ziga xos turi bo‘lib, uni albatta o‘zlashtirish lozim.

Bugungi kun mualliflari o‘z taddiqotlarida muzokaralar jarayonining turli jihatlarini bayon etganlar. Masalan, taniqli amerikalik olimlar R.Fisher va U.Yuri muzokaralarning mohiyati kelishuvga intilishdan iborat, deb hisoblaydilar. Ular uchun bu qarama-qarshi manfaatlarni tinchlik yo‘li bilan birlashtirish imkonini beradigan amaliyotlar majmuasi, “taraflar mag‘lubiyatsiz, do‘stona kelishuvga erishishi usuli”<sup>1</sup>.

Qurolli kurashni davom ettirish imkoni cheklanishi – bu undan voz kechishga turtki, xolos, ammo hali muammo yechimini birgalikda izlashni boshlash emas.Taraflar bir tomonlama har qanday boshqa harakatlar qilishi mumkin (masalan, bir-biriga siyosiy yoki iqtisodiy bosim o‘tkazish).Birgalikdagi harakat, ya’ni umumiylar yechimni topishga yo‘naltirilgan muzokaralar, faqat barcha taraf muzokaralardan boshqa yo‘l qolmaganiga ishonch hosil qilganidagina boshlanadi. Fisher va Yuri maxsus termin joriy etdilar «BATNA» – «Best alternative to a negotiated agreement» – muzokaralarda topilgan yechimga eng yaxshi muqobil yechim. Bu yerda “eng yaxshi” iborasiga alohida urg‘u berish lozim, chunki, mojaroni hal etish maqsadida muzokaralarni boshlar ekanlar, ishtirokchilar avval muammoni hal etishning bir necha muqobil yechimlarini o‘rganib chiqadilar. Ko‘p hollarda muqobil yechimlar diqqat bilan o‘rganiladi. Muhimi, bu jarayon muzokaralar bilan bir vaqtda kechadi. Mojaroni hal etish jarayonida muammoni hal etishning boshqa vositalarini qo‘llashga, shu jumladan, qurolli yo‘l bilan hal qilishga urinilayotganini kuzatish mumkin va bu tasodif emas.

Taraflar muzokaralarga o‘tishlari uchun muzokaralar uchun makon barpo etish kerakki, aynan shu makonda muayyan kelishuvga kelish va muzokara olib borish mumkin bo‘ladi. Shunday makonning yo‘qligi ko‘pgina zamonaviy mojarolarni hal etishdagi asosiy muammodir.

E’lon qilingan pozitsiya A tarafning pozitsiyasi	Muzokaralar uchun makon	E’lon qilingan pozitsiya B tarafning pozitsiyasi
A taraf qabul qilishi mumkin bo‘lgan yechim	B taraf qabul qilishi mumkin bo‘lgan yechim	

<sup>1</sup> Фишер Р., Юрий У. Путь к согласию, или переговоры без поражения. – М., 1990. – С 15.

Mumkin bo‘lgan yechim – bu ishtirokchilarning har biri qabul qilishi mumkin bo‘lgan yechimdir. Odatda, bunday yechimda murosaga borishga to‘g‘ri keladi. Shu sababdan taraflar bu yechimni zaxira variant sifatida qabul qiladilar. Muzokaralar uchun makon mavjud bo‘lishi uchun mumkin bo‘lgan yechimlar chegarasi o‘zaro mos kelishi lozim. Agar bunday chegaralar bo‘lmasa, demak muzokaralar uchun makon yo‘q. Ba’zida muzokaralar uchun makonni savdo uchun makon, deb ham ataydilar.

Rossiyalik siyosatshunos M. Lebedeva esa, aksincha, muzokaralarni mojaroning bir turi, bosqichi sifatida baholaydi, shunday ekan, demak muzokaralar taraflar o‘rtasidagi mojaroning hal etilgan bosqichi<sup>1</sup>.

Amerikalik siyosatshunos I.V. Zartman esa muzokaralar chog‘ida axborot almashinuvi oqibatida “yangi voqelik yaratiladi” va doimiy qadriyatlar o‘zgaruvchan qadriyatlarga aylanadi, ya’ni transformatsiya yuz beradi, deb ta’kidlaydi<sup>2</sup>. Zartman trasformatsiya nazariyasining bir necha qoidasini ko‘rsatib o‘tadi:

**Birinchi qoida - kontekst transformatsiyasi.** Shuni inobatga olish kerakki, mojaro doimo ijtimoiy, mintaqaviy yoki xalqaro kontekstga ega bo‘lib, o‘z navbatida, bu kontekstlar mojaro hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kontekstni o‘zgartirish ba’zida taraflar ichidagi o‘zgarish yoki ularning o‘zaro munosabatlaridagi o‘zgarishga nisbatan ko‘proq samara berishi mumkin. “Sovuq urush” tugatilishi yuqorida bayon etilgan transformatsiyaga eng yorqin misol bo‘la oladi. “Sovuq urush” tugashi bilan o‘sha davrda Osiyoda, Janubiy Afrikada, Markaziy Amerika va boshqa mintaqalarda anchadan beri cho‘zilib kelayotgan ko‘plab mojarolar barham topdi.

**Ikkinci qoida – tarkibiy transformatsiya.** Mojaro tarkibi aktorlarga, muammo va taraflar ko‘zlaydigan maqsadlar qarama-qarshiligiga bog‘liq bo‘lib, asosan, taraflarning xatti-harakatlari bilan belgilanadi. Manfaatdor taraflar bor ekan, mojaro davom etaveradi. Agar mojaro sababi taraflar o‘rtasida yuzaga kelgan munosabatlar ichida, ya’ni tarkibida mujassam bo‘lsa, demak mojaroni hal etish uchun uning tarkibini o‘zgartirish, transformatsiya qildirish kerak. Masalan, asimmetrik mojaroda tarkibiy transformatsiya kuchli va zaif taraf o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarishiga olib keladi. Zaif taraf uchun bitta muqobil variant, ya’ni yo‘l qoladi - xalqaro yordam so‘rab murojaat qilish. Tarkibni o‘zgartirishning eng to‘g‘ri yo‘li taraflar manfaatlarini o‘zgartirish bo‘lib, bu radikal siyosatchilar o‘rniga

---

<sup>1</sup> Лебедева М.М. Политическоеурегулирование конфликтов. – М., 1999, С.183.

<sup>2</sup> Zartman I.W. Negotiations as a Joint Decision-making process. The negotiation process. 1978.– P. 81

oqilona fikrlaydigan, mojaro tugashidan manfaatdor siyosatchilar kelishini ta'minlaydi.

***Transformatsiyaning uchinchi varianti*** oldingi variantning mantiqiy davomidir. Bu variant yetakchilarni va yetakchilik qilish usulini o'zgartirishni hamda yangi maqsad va imkoniyatlarga moslashishni ko'zda tutadi.

***To'rtinchi variant*** – muammo transformatsiyasi. Mojaro taraflarning muammoga nisbatan munosabati, pozitsiyasi bilan belgilanadi. Taraflar o'z pozitsiyasini o'zgartirsa, yoki muammo o'z dolzarbligini yo'qotadi, yoki boshqa muammo yuzaga keladi. Muammoni transformatsiya qilsa, ya'ni o'zgartirsa bo'ladi. Demak, taraflarning mojaroli munosabatlari negizida yotgan muammoning ramkalarini o'zgartirish mojaro tinch yo'l bilan hal etilishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu modelga muvofiq muammoni ancha keng kontekstga joylashtirish mumkin, yoki taraflarning manfaatlarini shunday qayta yo'naltirish mumkinki, bu manfaatlar bir-biriga zid bo'lmay qoladi. Masalan, suverenitetni bo'lish yoki bahsga sabab bo'lgan resurslardan foydalanish masalasida, yoki ushbu bahsga sabab bo'lgan resurslarni boshqarish borasida mediatorlar babs sohasiga yaqin boshqa sohalarda kompensatsiya yoki murosaga borishni taklif qilgan holda, "non" hajmini ko'paytirishga harakat qilib ko'rishlari mumkin. Qayd etish lozimki, amalda ikkala yondashuvdan baravar foydalaniladi.

Amerikalik Albin kiritgan taklif bunga yorqin misol bo'la oladi. U Quddusning (Iyerusalim) maqomini aniqlashda bir necha shunday yondashuvlarni taklif etadi. Ikkala taraf – isroilliklar ham, falastinliklar ham shahar bo'linmasligi kerakligiga aminlar, ammo ular shahar ustidan nazorat o'rnatish borasida bahslashib keladilar va bu babs ko'plab asrlardan beri davom etib kelayotgan mojaroga sabab bo'lmoqda. Ikkala taraf muqaddas joylar ustidan nazorat ularning qo'lida bo'lishini va shaharga poytaxt maqomi berilishini talab qiladi. Mojaroni transformatsiya qilish maqsadida bir necha takliflar kiritilgan bo'lib, shulardan biri - shahar chegarasini kengaytirish va shu katta hududni taraflar o'rtasida taqsimlashdan iborat. Bunda ikkiga bo'lingan shaharning ikkala qismi poytaxt maqomini oladi (resurslar kengayishi). Quddus ichida markazdan mustaqil hudud hosil qilinib, bu hududda hokimiyat teng vakillik asosida amalga oshiriladi, Isroi esa Falastin avtonomiyasini qaytaradi (kompensatsiya). Etnik mojarolarda integrativ yechim ayniqsa sust va ishonchsiz bo'ladi, lekin, shunga qaramay, birlashtirish, federalizm, avtonomiya, hokimiyatni bo'lish, hukumat va saylov tizimini bo'lib yuborish millatlararo koalitsiya uchun mojaroni hal etish yo'lini taklif etish va qulay shart-sharoit yaratish imkonini beradi.

Mojaroni hal etishga konstruktivistik yondashuv nuqtayi nazaridan mojaroning turli bosqichlarida, ochiq bosqichda ham, latent bosqichda ham, mojaroli vaziyatdan chiqishning ba’zi bir mexanizmlarini qo’llash mumkin. Konstruktivistlarning fikricha, turli darajadagi diplomatik urinishlar taraflarni mojaroli munosabatlar doirasidan tashqariga chiqarishi mumkin. Bunda mojaro qaysi bosqichga yetganining ahamiyati yo‘q. Xususan, amerikalik tadqiqtchi J.Makdonald **Ko‘p darajali diplomatiya (multi-truckdiplomacy) modelini** taklif etadi, bunda qarama-qarshi taraflar dialogida, albatta, hukumat va yetakchi siyosatchi asosiy rol o‘ynaydi, ammo shu bilan birga mojaroni hal etishga va, umuman, muzokaralar jarayoniga fuqarolik jamiyati institutlarini ifodalovchi turli tashkilotlar qo’shilishi mumkin:

1. Hukumat (rasmiy diplomatiya).
2. Mojarolarni hal qilish sohasidagi professionallar.
3. Biznes vakillari.
4. Diniy guruhlar.
5. «Savdogarlar diplomatiyasi» - oddiy fuqarolar qatnashi.
6. Ijtimoiy tashkilotlar, tinchlik tarafdarlari harakatlari.
7. Xususiy jamg‘armalar va universitetlar.
8. Ilmiy treninglar va ta’lim.
9. Jurnalistlar (OAV).

Ushbu model mojaroni hal etish jarayoni ishtirokchilari sonini oshirishimkonini beradi, ya’ni bunday imkoniyat nafaqat hukumatda bo‘lishi kerak, shunda agar ko‘plab taraflarning sa’y-harakatlari birlashtiriladigan bo‘lsa, tinchlik barqarorroq bo‘ladi. Bunday jarayonga misol tariqasida fuqarolar urushi tugagandan keyingi dastlabki davrda Bosniyada ham xorvat, ham bosniya, ham serb tillarida ishlagan telestansiya tashkil etilganini keltirish mumkin. Telestansiya jamoasi turli millatga mansub jurnalistlardan tashkil topgani alohida e’tiborga loyiq.

### **Mojaroni hal etishning asosiy prinsiplari va bosqichlari**

*Asta-sekinlik prinsipi (tamoyili).* Asta-sekinlik – bu jarayonning muhim sharti hisoblanadi. Qurolli mojarodan hamkorlikda harakat qilishga darhol o‘tishga urinishlar, ko‘pincha, muzokaralar barbod bo‘lishiga olib keladi. Taraflar birgalikda qaror qabul qilishga tayyor emasliklari ayon bo‘ladi. Natijada yetakchilarda va xalq ommasida muzokaralarga ishonmaslik tuyg‘usi uyg‘onadi. Asta-sekinlik bilan ish olib borish esa ishtirokchilarni muzokaralarga tayyorlash, ularning fikrini bilish, yechimning turli variantlarini ishlab chiqish va, shundan keyingina, yakuniy qarorni kelishishga kirishish imkonini beradi. Bundan tashqari, asta-sekinlik taraflarning bir-birlariga bo‘lgan ishonchini tiklash uchun imkoniyat yaratadi. Ammo voqealar jadal tus olayotgan bo‘lsa, mojaroni hal etishning tinch

yo‘lini tanlashni cho‘zib yuborish, mojaro keskinlashib, quroq ishlatalish bosqichiga o‘tib ketishiga olib kelishi mumkin. Asta-sekinlik prinsipi bilan bir vaqtda, keskinlikni yumshatishga qaratilgan o‘zaro tashabbuslar bildirish usuli qo‘llanilishi ham mumkin. Ya’ni, mojaro ishtirokchilaridan biri yakka tartibda keskinlikni yumshatishga qaratilgan tashabbuslar bildiradi va ularni amalga oshirishga kirishadi va, o‘z navbatida, boshqa ishtirokchi ham shunday ish tutishiga umid bog‘laydi. Masalan, 80-yillar oxirida AQSh ochiq atmosferada sinovlar olib borishni man etganini e’lon qilganda, SSSR xuddi shunday ish tutmadi, u AQShning tashabbusiga javoban yangi bombalar ishlab chiqarishni to‘xtatdi.

Qurolli mojaro chog‘ida asta-sekinlik prinsipi bir qator bosqichlardan o‘tishni anglatadi. Bu bosqichlar o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalari bilan farq qiladi:

- zo‘ravonlik xatti-harakatlari to‘xtatilishi (barqarorlashtirish);
- dialog o‘rnatish, muzokaralarga tayyorgarlik ko‘rish (kommunikatsion);
- muzokaralarni boshlash (axborot);
- kelishilgan shartlarni bajarish (implementatsiya).

Asta-sekinlik prinsipi *birgalikda harakat qilish (sinxronlik) prinsipi* bilan to‘ldiriladi.

Bu degani, taraflardan biri, ayni vaqtda, qaysi bosqichda bo‘lsa, qaramaqarshi taraf ham o‘sha bosqichda bo‘lishi lozim. Agar taraflardan biri ekstremistik kuchlarning operatsiyalari yoki harakatlari natijasida oldingi bosqichga qaytsa, odatda, ikkinchi taraf ham shunday yo‘l tutadi.

### **Muzokaralar oldida turgan vazifalar**

- axborot berish (taraflar bir-birlarining niyatlarini to‘g‘risida ko‘proq axborotga ega bo‘ladilar);
- kommunikatsion (munosabatlarni tiklash);
- harakatlarni tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- nazorat (masalan, kelishuvlar bajarilishini nazorat qilish);
- diqqatni chalg‘itish (taraflardan biri vaqtadan yutishga harakat qiladi);
- targ‘ibot (jamoatchilik fikriborasida “ochko” to‘plash);
- paysalga solish (taraflardan biri opponentni aldash va yolg‘on umid bag‘ishlash maqsadida muzokaralarda ishtirok etadi).

## **2. Zo‘rlik ishlatiladigan mojarolarni to‘xtatish uchun olib boriladigan muzokaralarda kun tartibiga qo‘yiladigan asosiy masalalar**

Britaniyalik tadqiqotchi K.Barns tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi sxema siyosiy muzokaralarda kun tartibiga kiritilishi mumkin bo‘lgan asosiy masalalarni o‘z ichiga olgan.

**Harbiy muammolar** – o‘t ochishni to‘xtatish, qurolni topshirish, demobilizatsiya, xavfsizlik tizimini isloh qilish.

**Gumanitar muammolar**– qochoqlarni vataniga qaytarish, insonparvarlik yordamidan foydalanish uchun imkoniyat yaratish va reabilitatsiya.

**Yuridik muammolar va inson huquqlari**– amnistiyalar va inson huquqlarini himoya qilish, ularni monitoring qilish, qonunchilikni isloh qilish.

**Konstitutsiya va hududiy maqom**– davlat tuzilmasini shakllantirish, avtonomiylar tuzish, davlat turi.

**Davlat hokimiyyati**– hokimiyatni bo‘lish, o‘tish hokimiylari, saylovlar, demokratlashtirish, samarali ishtirok etish, siyosiy plyuralizm.

**Tarkibiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar**– yer islohotlari, tenglikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus choralar, reabilitatsiya.

**Adolat va murosaga kelish**–tribunallar, komissiyalar.

**Kun tartibiga ko‘ra muzokaralarning turi**

**Amaldagi kelishuvlarni uzaytirish to‘g‘risida muzokaralar** (masalan, harbiy harakatlarni to‘xtatish to‘g‘risidagi vaqtinchalik kelishuv).

**Normallashtirish to‘g‘risida muzokaralar**. Mojaroni qarama-qarshi taraflarni konstruktiv muloqot bosqichiga o‘tkazish maqsadida olib boriladi.Aksariyat hollarda uchinchi taraf ishtirok etadi.

**Qayta taqsimlash to‘g‘risida muzokaralar**. Taraflardan biri boshqa taraf hisobidan o‘z foydasiga o‘zgartirishlar kiritilishini talab qiladi.

**Yangi sharoit yaratish to‘g‘risida muzokaralar**. Yangi kelishuvlarga erishish maqsadida olib boriladi.

**Ikkinchi darajali muzokaralar**. Mojaroning asosiy muammosi emas, balki u bilan bog‘liq masalalar hal etiladi, ko‘pincha, tinchliksevarlik, taraflarning nuqtayi nazarlarini aniqlab olish, diqqatni chalg‘itish niyatları namoyish etiladi.

Muzokara ishtirokchilari ilgari suradigan vazifalardan kelib chiqqan holda muzokara jarayonining tarkibiy elementlarini ajratish mumkin:

- bir-birining manfaatlari, nuqtayi nazarlari va konsepsiyalarini o‘zaro aniqlab olish bosqichi;

- bahs-munozara bosqichi. Bunda muammoni birgalikda hal etishning asosiy parametrlari ishlab chiqiladi;

- yakuniy bosqich. Bu bosqich kelishuv ustida ishlashdan iborat.

**Siyosiy mojarolarni hal etishdagi kelishuv va yechimlarning ehtimoldagi turlari**

- vaqtinchalik sulh tuzish to‘g‘risida kelishuv;

- muammoni tartibga solish to‘g‘risida kelishuv (muammoni taraflarning manfaatlari va maqsadlarini birlashtirish orqali hal etish va shu bilan qarama-qarshilikni yumshatish);

- muammoni hal etish to‘g‘risida kelishuv (mojaro ishtirokchilari o‘rtalaridagi ziddiyatni bartaraf etadilar va o‘zaro munosabatlarini mutlaqo yangi bosqichga ko‘taradilar).

### **Kelishuvlarga uch turdag'i yechim asosida erishish mumkin:**

- ziddiyatlarni bartaraf etuvchi mutlaqo yangi yechimni topish;
- manfaatlarni birlashtirish va kompromisslarga asoslangan oralig yechim (Pareto prinsipi);

- mojaro ishtirokchilaridan bittasining manfaatlari ortiq darajada qoniqtirilishini nazarda tutuvchi asimmetrik yechim.

Oqilona muzokaralar to‘rtta prinsipial qoidaga asoslanadi:

- ishtirokchilarning shaxsiga va muzokaralar mazusiga taalluqli masalalarni alohida-alohida ko‘rib chiqish: muzokara ishtirokchilari, avvalambor, o‘z his-tuyg‘ulariga ega insonlar ekanliklarini yoddan chiqarmaslik;

- diqqatni taraflarning pozitsiyasiga ega emas, manfaatlariga qaratish: har bir taraf bahsda bittadan ortiq manfaatga egaligini tushunish; qarama-qarshi tomonning manfaatlari muhokama mavzusining bir qismini tashkil etishini ochiq tan olish;

- muqobil variantlarni izlash: bitta yagona javobni ko‘zlamaslik; opponentlar bilan miyaga hujum tarzida yig‘ilish o‘tkazish imkoniyatini muhokama qilish;

- natija obyektiv professional, yuridik, protsessual, tarixiy mezonlarga asoslangan bo‘lishini talab qilish. Ba’zida natija an’analarga, odatlarga, tarixiy pretsedentlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Statistik va sotsiologik ma’lumotlar, isbotlangan faktlar va ikkala taraf “obyektiv dalil” sifatida qabul qiladigan hamma narsa juda muhim hisoblanadi; shu bilan birga fikrlashga va fikrlash uchun ochiq qolishga harakat qilish, lekin hech qachon bosim ostida yon bemaslik<sup>1</sup>.

Rossiyalik olim I.A. Vasilenko “Siyosiy muzokaralar” kitobida ushbu konsepsiyanidan samarali foydalanishga misol tariqasida 1978-yilda Misr va Isroil o‘rtasida imzolangan Kemp-Devid kelishuvini keltiradi. Eslatib o‘tamiz, isroil Misrga tegishli Sinay yarim orolini bosib olgan edi va taraflarning pozitsiyasi mutlaqo qarama-qarshi edi: Isroil Sinay yarimorolining yarmiga da’vo qilar edi, Misr esa “o‘z hududining bir qarichini ham” berishni istamasdi. Butun e’tibor taraflar tutgan pozitsiyaga emas, balki manfaatlarga qaratildi va kompromissli yechim topildi: Sinay

---

<sup>1</sup> Финнер Р. Юрий У. Путь к согласию, или переговоры без поражения. – С.5-85.

Misr suverenitetiga to‘liq qaytarildi, ammo Isroil bilan chegaradosh hududda demilitarizatsiya qilingan ulkan zona yaratilishi to‘g‘risida kelishuv imzolandi, bu Isroil xavfsizligini kafolatlar edi, hamma yoqda Misr bayrog‘i hilpirab tursada, Isroil yaqinida Misr tanklari yo‘q edi<sup>1</sup>.

“Odatda, muzokaralar jarayonida bir nechta strategiya qo‘llaniladi va muzokaralar chog‘ida strategiyalardan navbatma-navbat foydalaniladi, ba’zida esa bir vaqtida bir necha strategiya qo‘llaniladi. Masalan, 2006-yil boshlarida Rossiya va Ukraina o‘rtasida yuzaga kelgan “gaz mojarosida” gaz narxi borasida qizg‘in bahslar ketgan va savdolashish usuli qo‘llanilgan edi. Keyinchalik, Rossiya Ukraina tarafi ruxsatsiz gaz olganini isbotlagach, Yevropa Ittifoqi va Ukraina vakillari bilan bahslashish strategiyasi qo‘llanildi va mojaro yakunida prinsipial muzokaralar usuliga o‘tildi, natijada ikkala tarafni qoniqtiradigan murosaga asoslangan qaror qabul qilindi<sup>2</sup>”.

### **Qaytarish uchun savollar:**

1. Muzokaralarga zamonaviy mojarolarni hal etish usuli sifatida baho bering. Muzokara makoni nima?
2. Zo‘rlik ishlatiladigan mojarolarni to‘xtatish uchun olib boriladigan muzokaralarda kun tartibiga qo‘yiladigan asosiy masalalar nimalardan iborat?

---

<sup>1</sup> Василенко И.А. Политические переговоры. Учебное пособие.– М.: Гардарики, 2006. – С. 36

<sup>2</sup> Василенко И.А. Политические переговоры. Учебное пособие. – М.: Гардарики, 2006. – С. 37

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOT:**

1. Василенко И.А. Политические переговоры. Учебное пособие.– М.: Гардарики, 2006.
2. Фишер Р., Юрий У. Путь к согласию, или переговоры без поражения. – М., 1990.
3. Политология. /под ред. Лавриненко. – М.: Юнити, 2006.
4. Политическая конфликтология. /под ред Ланцова С. – Питер, 2008.
5. Лебедева М.М. Политическое урегулирование конфликтов. – М., 1999.
6. Zartman I.W. Negotiations as a Joint Decision-making process. The negotiation process, 1978.
7. Здравомыслов А. Социология конфликта. – М., 1998.
8. [www.c-r.org/accord](http://www.c-r.org/accord) Елена РигаччиХей «Методология межтаджикского переговорного процесса».

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**Z.A. Zaripova**

# **KONFLIKTOLOGIYA**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Muharrir: Z.Yu. Tashpulatova**

Nashrga tayyorlangan materiallarning sifati, keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma'lumotlarning aniqligi, shuningdek, ochiq nashr etish man qilingan ma'lumotlarni ommalashtirgani uchun o'quv qo'llanma muallifi javobgardir.

JIDU ruxsatisiz qayta chop etish man qilinadi.

Format 84x108 1/32. Hajmi 5,75 b.t.

---

JIDUDA chop etildi.

100113, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko‘chasi, 54